

371(071)
R-92

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

SALIMA RUSTAMIY

BALOG'AT ILMI



O'QUV QOLLANMA

371(046)
R-92.

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

SALIMA RUSTAMIY

BALOG'AT ILMI

O'QUV QOLLANMA

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish
(mumtoz tillar bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha o'qiyotgan
talabalar uchun



Toshkent
«Zilol buloq» nashriyoti
2020

Rustamiy Salima Aliybek qizi. Balog'at ilmi – Toshkent:
«Zilol buloq» nashriyoti, 2020 y. 156 bet.

Mas'ul muharrir:

Ibrohimov N.I. filologiya fanlari doktori, akademik

Taqrizchilar:

Alimuxamedov. R. filologiya fanlari doktori
Nosirova M. filologiya fanlari nomzodi

«Balog'at ilmi» fani sharq tillari va adabiyotini chuqur o'zlashtirish imkonini yaratib, ma'nolari aniq ifodalangan ta'sirchan nutq so'zlash qonun-qoidalarini o'rgatadi. Bu fan filologlar, bo'lajak diplomatlar, san'atshunoslar, shoir va yozuvchilar, matbuot va radio xodimlari, ayniqsa pedagoglar nutqini, ham ma'noli, ham ravon bo'lishi, zarur hollarda uning ta'sir kuchini oshiruvchi vositalarni qo'llay olish bilimi va malakasini hosil qilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur o'quv qo'llanma sharq tillari, xususan mumtoz tillar yo'nalishlarida tahlil olivotgan talabalarga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 07.09.2020 yildagi 02-1301-tonli xulosasi asosida tayyorlandi.

ISBN 978-9949-6551-2-6

© Salima Rustamiy, 2020 y.

© «Zilol buloq» nashriyoti, 2020 y.

KIRISH

Jahon ilm-fani rivojida Movarounnahr olimlarining muhim o'rninga ega ekani e'tirof etib kelinmoqda. «Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebafo merosi, butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi»¹. Shuning uchun «buyuk ajodolarimiz bo'lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebafo hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashshtirish alohida ahamiyatga egadir. Bu masala yoshlarda ilm-fanga va ta'lim olishga intilish tuyg'usini kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatlari va madaniyatini to'g'ri anglash hamda qabul qilish, dunyoning barcha xalqlariga Islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish uchun muhimdir. Shuningdek, bugungi kunda xalqaro miqyosda konfessiyalar, millatlar va madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yish, tinchlik va totuvlikka erishishda ham muhim ahamiyat'kasb etadi»².

Buyuk ajodolarimiz yozib qoldirgan bebafo asarlar ichida asrlar davomida o'z mavqeini yo'qotmay kelayotgan ilmiy asarlar, ta'lim maskanlarida ilmi toliblarni o'qitishda foydalaniib kelingan darslik va o'quv qo'llanmalar ham mayjud. Ular nafaqat bizning hududda, balki ko'pgina sharqu g'arb mamlakatlarida keng miqyosda tarqalgan bo'lib, ba'zilaridan hozirgi kunda ham ma'lum soha mutaxassislari tayyorlashda foydalaniib kelinmoqda.

O'rta asrlarda filologiya sohasida ham hozirgacha dunyoga mashhur bo'lib kelayotgan bir qancha asarlar yaratilgan, jumladan butun jahon fan arboblari tan olgan yetuk olimlardan Mahmud Koshg'ariy turk tilshunosligiga oid dastlabki asar «Devonu lug'oti-t-turk»ni, Mahmud Zamaxshariy arab tilshunosligiga oid

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожатномаси // Халқ сўзи. – 2017. – 23 декабрь.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти вазифasини бажарувчи Шавкат Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташкилар вазирлари кенгаси 43-сессиясининг очилиш маросимиидаги нутки: Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик // Халқ сўзи. – 2016. – 19 октябрь.

«Mufassal», «Kashshof» asarlarini yaratgan bo'sha, Abu Yoqub Yusuf Sakkokiyning «Miftohu-l-ulum» asari arab tili grammatikasi, she'riyati va balog'at ilmining nazariy masalalarini qamrab olgan.

Qo'lyozma xazinalarida saqlanayotgan, arab filologiyasida o'rta asrlarda vujudga kelgan, keyinchalik boshqa tillarga ham tatbiq qilingan, hozirgacha insonlarga nafaqat arab tili, balki boshqa sharq tillari, jumladan turkiy tillarda ham ma'noni to'g'ri, aniq va go'zal tarzda yetkazib bera olish masalasida tilning nozik jihatlarini o'rgatib kelayotgan balog'at ilmiga oid asarlarni alohida ta'kidlash lozim. Bular XII asrda yaratilgan Abu Yoqub Yusuf bin Abu Bakr bin Muhammad bin Ali as-Sakkokiyl al-Xorazmiyning (555-626/1160-1229) «Miftohu-l-ulum» («Ilmlar kaliti») va shu asar asosida yaratilgan Jaloliddin Muhammad bin Abdurrahmon al-Qazviniyning (v.e. 739/1339) «Talxisu-l-Miftoh» («Miftohga qisqartma»), Sa'aduddin Mas'ud bin Umar at-Taftazoniyining (v.e. 792/1390) «Sharh Talxisi-l-Miftoh» («Talxisi-l-Miftoh» sharhi) asarlaridir. Bu asarlar ichida «Talxis Miftohu-l-ulum» va «Sharh Talxisi-l-Miftoh»ning ko'plab nusxasi bizgacha yetib kelgan va bu qo'lyozmalarning ko'pi XVIII-XIX asrda ko'chirilgan. Bu esa balog'at ilmining yaqin asrlarda ham boshqa sharq mamlakatlari kabi o'l kamiz o'quv dargohlarida ham keng miqyosda o'qitilganini ko'rsatadi. Keyinchalik uning badiiy san'atlarga oid bo'limiga qisman mos keluvchi san'atlar adabiyot fanida o'qitila boshlandi.

Balog'at ilmining nazariy asoslarini to'plab, tugal holga keltirgan olim Abu Yoqub Yusuf Sakkokiyning Markaziy Osiyoda mashhur bo'lgan ilmiy markazlardan biri Xorazm o'l kasasi olimlaridan ekanini ta'kidlab, yurtimizda tug'ilib ijod qilgan bu mashhur allomaning ilm-fan ravnaqiga, xususan, balog'at ilmi rivojiga qo'shgan munosib hissasini ko'rsatib berish, balog'at ilmining filologik fanlar qatoridagi o'rni va ahamiyatini yoritish bugungi kun tilshunosligi va adabiyotshunosligi uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Balog'at ilmi arab, turkiy va forsiz zabon xalqlar tili va adabiyotining nazariy asoslaridan biri hisoblangani uchun shu xalqlar tili va adabiyoti tarixini chuqurroq o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

«BALOG'AT ILMI» FANINING MAZMUNI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Dars rejasি:

1. «Balog'at ilmi» fanining mazmuni.
2. «Balog'at ilmi» fanining maqsadi va vazifalari.

Tayanch iboralar: Balog'at ilmi, malakali mutaxassis, tarixiy bosqichlar, balog'atshunos olimlar.

1. «Balog'at ilmi» fanining mazmuni. Respublikamizda bosqichma-bosqich demokratik tamoyillarning ustivorligiga asoslangan yangi jamiyatni qurishga yo'naltirilgan islohotlar doirasida ta'lim-tarbiya ishlariiga katta ahamiyat berilmoxda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini ta'minlab beruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lib, ushbu hujjatlarda zamon talablariga muvofiq bo'lgan barcha shart-sharoitlar va hammadan avval inson manfaatlarining ustuvorligini ta'minlovchi imkoniyatlar, uning ehtiyojlarini amalga oshirish masalalari bilan bir qatorda raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash asoslari belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar diniy sohada ham qator o'zgarishlar va katta loyihalarni amalga oshirishda muhim omil bo'ldi. Xususan, «e'tiqodi islam dini bilan bog'liq boy va noyob merosni ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, ular bilan xalqimiz va jahon jamoatchiliginini keng tanishtirish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo'nga qo'yish, islam dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g'oyalari, milliy g'urur va iftixon ruhida tarbiyalash»¹

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси хузуридаги Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази устави // Ўзбекистон Республикаси конун

maqsadidan kelib chiqib, Mavarounnahr olimlarining «...arab yozuvidagi turli mavzularga oid yozma yodgorliklar va epigrafika namunalarini tadqiq qilish, ularni asl holida hamda o'zbek va xorijiy tillarda ilmiy izohlar, tarjimalar bilan nashr etish, ilmiy muomalaga kiritish»¹ masalasi davlat ahamiyati va uning istiqbol rivojlanish strategiyasiga aloqador vazifalar qatoriga kiritilgan. Yurtimiz qo'lyozma xazinalarida balog'at ilmiga doir ko'plab qo'lyozmalar mavjud. Bu ilm islom dini bilan uzviy bog'liqlikda yaxlit til qonuniyati sifatida amal qilgan, u tilning badiiy ifoda imkoniyatlarini aniqlash, nutq boyligini amaliy ta'minlash mezonlari va qoidalari majmui sifatida keng tarqalgan.

Shulardan kelib chiiqb «Balog'at ilmi» fani talabalarga balog'at ilmi nazariy asoslarini ilmiy tadqiqotlarda tadbiq etish malakalarini hosil qilishni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Ushbu fan talabalarni balog'at ilmining nazariy asoslarini bilan tanishtiradi. Mazkur kurs bakalavr bosqichi Filologiya va tillarni o'qitish (mumtoz tillar bo'yicha) yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

«Balog'at ilmi» fanining predmetini arab va ajam olimlarning asarlarida keltirilgan balog'at ilmiga oid nazariy qarashlar tashkil qiladi.

2. «Balog'at ilmi» fanining maqsadi va vazifalari. Mazkur fanning maqsadi talabalarni balog'at ilmi tarixi, uning yuzaga kelishi va tarixiy bosqichlari bilan tanishtirib, undagi so'zlovchining o'z maqsadini til orqali to'g'ri ifodalay olishi uchun zarur bo'lgan usullarni ko'rsatib berishdan iborat.

Fanning vazifasi balog'at ilmi nazariy asoslarini ilmiy tadqiqotlarga tadbiq etish malakalarini hosil qilishni shakllantirishdan iborat.

Ushbu kursning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

хужжатлари тўплами, 2017 й., 31-сон, 782-модда; Конун хужжатлари маътумотлари миллий базаси, 17.01.2018 й., 09/18/23/0576-сон.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПК-2995-сон «Қадимий ёзма манбаларни саклаш, тадқик ва тарғиб килиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Карори // Халк сўзи, – 2017. – 25 май.

- o'rganilayotgan fanning u egallaydigan ixtisoslik bilan o'zaro bog'liqligi haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- balog'at ilmi tarixi, balog'atshunos olimlar, ularning yaratgan asarları, balog'at ilmi tarkibi va balig' kalom tuzish usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

- mumtoz matnlarning ma'nolarini yoritishda balog'at ilmi nazariyalariga asoslanib tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. «Balog'at ilmi» fani qanday mazmunga ega?
2. «Balog'at ilmi» fanining maqsadini aniqlang.

3. «Balog'at ilmi» fanining vazifalari haqida fikrlaringiz bilan o'rtoqlashing.

1-MAVZU. BALOG'AT ILMI TARIXI

1.1. Insonning tabiatan go'zallikka intilishi

Dars rejasি:

1. Maqollarda nutq go'zalligi ifodasi.
2. Xalq topishmoqlarida nutqiy go'zallik.
3. Xalq qo'shiqlarining badiiy estetik jihatlari.

Tayanch iboralar: nutqiy mahorat, maqollar, topishmoqlar, badiiyat, xalq qo'shiqlari, badiiy estetik.

1. Maqollarda nutq go'zalligi ifodasi. Insonning tabiatan go'zallikka intilishi uni ijodga undaydi. Natijada hayotning boshqa sohalarida bo'lgani kabi nutqda ham fikrni ma'noga e'tibor bergen holda go'zal shaklda ifodalash ehtiyoji tug'iladi. Bu ehtiyoj tilda mavjud bo'lgan vositalar orqali amalga oshiriladi. Bu borada olimlar quyidagicha fikr yuritadilar:

«Butun mavjudotning, xususan insonning tuzilishi, yurish-turishida qanchadan-qancha yetuklik, jumladan go'zallik bor. Ammo tabiiy go'zallikdan tashqari yana inson vujudga keltiradigan sun'iy go'zallik ham bor... shularning hammasi va ularning go'zalligi til vositasida aks ettiriladi. Bu tilning go'zallikni ifodalashdagi xizmatidir. Ammo tilning o'zi ham go'zallik moddasi sifatida so'z ustalari tomonidan va umuman xalq tarafidan foydalaniadi. Chunki til yetuk hodisalardan bo'lib, unda go'zallik uchun zarur bo'lgan barcha sifatlar mayjuddir... Til bir jihatdan tabiat va insondagi go'zallikni aks ettiruvechi vosita bo'lsa, ikkinchi jihatdan unda go'zallikni vujudga keltiruvechi javharlar ham mavjud... Biz tilga go'zallik javhari sifatida nazar soladigan bo'lsak, uning kishini hayratlantradigan darajada yetukligi bor... Tilning mana shu yetukligi uning go'zalligini va undan foydalanuvchining, ya'ni so'zlochining yoki yozuvchining nutqiy mahoratini ta'minlaydi»¹.

Bu mahorat dastlab xalq og'zaki ijodi namunalarida o'z aksini topgan.

Xalq og'zaki ijodiga oid asarlar oddiy mehnatkashlarning olam

va undagi hayotni ziyraklik va sinchkovlik bilan kuzatishi hamda ularni go'zal shaklda ifoda qilishi natijasida vujudga keladi. Bularda elning boy tajribasiga asoslangan xalq didaktikasi aks etadi.

Bu asarlar, jumladan, maqollar mazmunan va shaklan xalq ongiga yaqin bo'lgani uchun kishini hayoti davomida duch keladigan turli-tuman hodisalarga oqilona munosabatda bo'lib, yovuzlikdan saqlanishga, ezgulik sari intilishga chorlaydi. Bu hol xalq og'zaki ijodi mahsulining hayotiyligini ta'minlovchi omillarning asosiyisidir.

Ammo xalq maqollari, matallari, she'r va qo'shiqlarining hayotiyligi va mashhurligini ta'minlovchi yana muhim bir omil bor. Bu ularda nutqiy balog'at, g'arbcha qilib aytganda estetik, oddiy turkiy so'z bilan ta'bir qilganda chechanlik darajasining yuksakligidir.

Nutqiy ifodalarning ma'nolari (hayotiy ehtiyojlar) va sifati (go'zal holat) barcha xalqlar uchun umumiy bo'lsa, ma'nolarni ta'bir qilish usullari turlichadir. Bu bir tomonidan, xalqlarning tarixi, urf-odati, madaniyati va ma'naviyati kabilalar bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomonidan, har bir xalq tilida mavjud bo'lgan grammatik xususiyatlar va tilning badiiy imkoniyatlardagi o'ziga xoslikka bog'liq. Jumladan, arablar ham o'z tillarining ana shu umum va xos xususiyatlaridan kelib chiqib, fikr-mulohazalarni teran va go'zal ta'bir qilish malakasini egallaganlar.

«Qadim zamonlardan buyon arablar so'z san'ati bilan faxrlanib keladilar. VII – XII asrlarda o'rta asr arab madaniyatining gullab-yashnagan davrida, ellistik falsafa ta'siri ostida so'z san'ati alohida ahamiyat kasb eta boshlaydi. Shu bois arab adabiyotida so'z san'atiga katta e'tibor beriladi, badiiy ifoda uslubi esa asrlar davomida sayqallanib, jumlalar mutavozin shaklda tuzilib, turli xil xat va tovush bezaklari bilan boyitilib boriladi»¹.

Bunday «bezaklar» sirasiga kiruvchi iyoz, saj', tajnis, tazod, majoz kabi san'atlar, qaysi xalq tilida yaratilgan bo'lishidan qat'iy nazar, aksar maqollarga xosdir.

Shuni ta'kidlash joizki, bu kabi san'atlarning hosil bo'lishi,

¹ Рустамов А. Сўз хусусида сўз. –Т.: Ёш гвардия, 1987. –Б. 9, 12.
Сайдумаров М. Ҳарирӣ мақомалари. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1996. –Б. 15.

yashab kelishi hamda el orasida mashhur bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi.

2. Xalq topishmoqlarida nutqiy go'zallik. Maqollar bilan bog'liq holat xalq yaratgan topishmoqlarda ham kuzatiladi. Jumladan, iyjoz bilan birga mutobaqa (tiboq, tazod deb ham nomlanadi), muqobala san'atlari topishmoqlarda keng qo'llaniladigan san'atlar sirasiga kiradi.

Mutobaqaning «ijobiy» turi antonimlar orqali yasaladi. Boshqa xalqlarda bo'lgani kabi arab tilida yaratilgan topishmoqlarda ham ijobjiy mutobaqadan unumli foydalanilgan. Masalan¹: ما الذي يكون بين [osmon va yer orasidagi narsa nima? (javob: و harfi)], ما هو [osmon (yer) so'zleri mutobaqa hosil qilgan. [ko'paygan sari kamayadigan narsa nima? (javob: umr)]. Misoldagi mutobaqa زاد (ko'paydi) va [kamaydi] so'zlaridir. [ليس لها بداية و ليس لها نهاية فما هي؟ (javob: doira)]. Topishmoqdagi بداية (boshi) va نهاية (oxiri) so'zleri mutobaqadir. ما هو السؤال الذي تختلف إجابته دائما؟ [javobi hamisha o'zgarib turadigan savol qaysi? (javob: soat necha?)]. Bu yerda mutobaqa «javob» va «savol» so'zleri orasidadir.

Taqobil-i taonudni quyidagi topishmoqda ko'rish mumkin: شيء في السماء و ليس في الماء، فما هو؟ Bu topishmoq so'zlarning imlo xususiyatiga asoslangan. الماء [osmon]da bor, (suv)da yo'q (javob: sin harfi)]. «Osmon»ning ziddi «er», «suv»ning ziddi «olov», shunga ko'ra «osmon» «suv» so'zleri o'zaro zid ma'noli so'zlar juftligini hosil qilmasa-da, keltirilgan matn mazmuniga ko'ra ular orasida «g'oyat darajada bo'lmagan» qarshi ma'no bor.

في الشتاء خمس و في الصيف ثلاثة فما هي؟ Bu topishmoq so'zning imlosiga doir. الصيف (qish)da beshta, (yoz)da uchta. Bu nima? (javob: nuqtalar)]. Keltirilgan bu misolda mutobaqa hosil qilgan (qish) va الصيف (yoz) so'zlarining ikkalasi ham ot turkumiga mansubdir.

Navbatdagi topishmoqda mutobaqa sifatdoshlardan iborat: حامل (tashuvchi) va محمول (tashiluvchi), shuningdek (quruq) va مبلول (ho'l).

حامل و محمول. نصفه ناشف و نصفه مبلول. فما هو؟ [tashuvchi va

tashiluvchi... yarmi quruq, yarmi ho'l... bu nima? (javob: kema)].

Quyidagi misolda mutobaqa ikkita fe'lidan tashkil topgan. Bular ما هو الذي يؤخذ منك قبل أن يعطي لك؟ (olinadi) va يعطي (beriladi): [Senga berishdan oldin o'zingdan olinadigan narsa nima? (javob: fotosurat)].

Quyidagi topishmoqlarning birinchisi tasdiq ma'nosidagi (bor bo'lmoq) va inkor ma'nosidagi (bor bo'lamoq), ikkinchisi «ko'rmoq» «ko'rmamoq» fe'llari bilan salbiy tiboqqa misol bo'ladi: يوجد في استراليا و أمريكا و أوروبا و لا يوجد في آسيا فما هو؟ [Avsraliya, Amerika va Yevropada bor, Osiyoda yo'q (bor emas (javob: harfi)]; من هو الذي تراه ولا يراك؟ [Sen ko'rasan, lekin seni ko'rmaydi, bu kim? (javob: ko'r kishi)].

Topishmoqlar tarkibida mutobaqadan tashqari muqobala qo'llangan. Masalan: ما هو الذي لحمه من الداخل و عظمه من الخارج؟ (eti ichida, suyagi tashida bo'lgan narsa nima? (javob: toshbaqa)]. Bu misolda لحم (et, go'sht)ga عظم suyak va خارج ichga - qarshi ma'noda kelgan. [ho'la ما هو الذي يدخل مبلولا و يخرج ناشفا؟ (javob: non)]. Mazkur kirib, quruq chiqadigan narsa nima? (javob: non)]. Mazkur topishmoqdagi يدخل (kiradi)ga (chiqadi) va مبلولا (ho'l holatda)ga (quruq holat) ma'no jihatdan qarshi qo'yilgan. رجاله [ناشفا (quruq holat) على الأرض و رأسه فوق النجوم فما هو؟ (oyoqlari yerda, boshi yulduzlardan yuqori... Bu nima? (javob: zubit)]. Bu topishmoqda (ikki oyog'i) va رأسه (boshi) hamda الأرض (yer) va (yulduzlar) o'zaro muqobala hosil qilgan.

[ما هي التي تحرق نفسها لتغيد غيرها؟ o'zgalarga foyda keltirish uchun o'zini yondiradigan narsa nima? (javob: sham')]. Ushbu misolda تغيد (yondiradi) va (foyda keltiradi) fe'llari (matn mazmuniga ko'ra zid ma'noli so'zlar) va نفس (o'z) va غير (o'zga) olmoshlarining qo'llanish holati muqobalaga mos keladi.

Demak, zid ma'noli so'zlar boshqa xalqlar qatori arab topishmoqlarida ham mutobaqa va muqobala san'atlari orqali unumli qo'llangan. Ayniqsa, mutobaqaning antonimlarga asoslangan ijobjiy turi va bir xil so'z turkumi bilan ifodalangan shakllari keng tarqalgan. Shuningdek, topishmoqlarda salbiy, taonud mutobaqalar ham uchraydi. Muqobalaning mutobaqaga nisbatan shaklan kengligi uning xalq og'zaki ijodi, xususan topishmoqlarda

¹ Misollar olindi: <http://shabab.yanasoo.com/t275055.html> - مجموعة الغاز مع الحل

1.2. Balog'at ilmi va estetik tarbiya

Dars rejasি:

1. Filologiyada «balog'at» tushunchasi.

2. Balog'at ilmining estetik tarbiyaga aloqadorligi.

Tayanch iboralar: balog'at, fasohat, odob-ahloq, nutq ta'sirchanligi, estetik tarbiya.

1. Filologiyada balog'at tushunchasi. «Balog'at» so'zi lug'atda shunday izohlangan:

(بلغ) فعل
بلغ يبلغ ، بلاغة ، فهو بلغ
بلغ ، يبلغ ، مصدر بلاغة بلغ الكاتب: كان يليغاً ، أي فصح لسانه وحسن بيته
بلغ: فصح وحسن بيته ، فهو بلغ والجمع: بلغاء
(بلغ) بلغ (gapga chechan, fasohatli bo'lmoq): fe'l.

Uning masdari (harakat nomi): بلاغة (balāğatun) «balog'at, gapga chechanlik, so'zlash qobiliyati», «masalan: yozuvchi balig' bo'ldi, uning tili fasohatli va bayoni go'zal bo'ldi».

بلغ: uning bayoni fasohatlashdi va go'zallahdi, u balig'dir, ko'pligi: بلغاء

Demak, balog'atning shartlaridan biri fasohatli so'zlay olishdir.

Fasohat zohir bo'lish (ochiq-oydin ko'rinish), ravshanlik va anqlik demakdir, ya'ni fasohatda fikrni fasih jumlalar bilan bayon qilish talab qilinadi. Fasih jumla ma'no anqligiga ega, oson tushuniladigan, ravon aytildigan, yoqimli eshitiladigan va sarf qoidalariga mos tushadigan so'zlardan tashkil topgan jumladir.²

«Balog'at» so'zidan ilmiy atama sifatida so'zlovchining grammatic jihatdan mukammal jumlanı o'z o'rnida va tegishli holatda qo'llay olishi hamda shu talablarga javob beruvchi fasih jumlalarni so'zlay bilish mahorati tushuniladi.

Balog'at ilmining tarkibi ma'oniy, bayon va badi'dan iborat.

2. Balog'at ilmining estetik tarbiyaga aloqadorligi. Kishi o'zida hosil bo'lgan foydali bilimlarni, ham amalda tatbiq etsa, ham

boshqalarga ulashsa, ilm-ma'rifat urug'ining yanada kengroq sochilishiga hissa qo'shgan bo'ladi. Bilim olish va ularni targ'ib qilishning asosiy vositalaridan biri nutqdir. Nutqni shakllantirish, rivojlantirishning o'zi alohida bilimlarni talab qiladi va fikrni to'g'ri, kerakli o'rnlarda ta'sirli qilib yetkaza olish o'ziga xos san'at hisoblanadi. Bu borada o'rta asrlarda vujudga kelgan balog'at ilmi hozirgacha insonlarga nutq madaniyatining nozik jihatlari haqida bilim berib kelmoqda.

Sharqda, xususan arab tilida balog'at muhim mavqega ega bo'lgan ilmlardan hisoblangani bois qadimdan tilshunoslar, adabiyotshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgan va ilm ahlining yetuklik darajasi ularning balog'at ilmini qay darajada o'rganganliklari bilan belgilangan. Shuning uchun ham olimlar bu ilming rivojlanishi va uning o'zlashtirilishiga katta e'tibor berganlar va balog'at ilmini o'qitish, albatta, o'quv dasturlaridan ham joy olib kelgan.

Balog'at ilmining nazariy jihatdan to'liq shakllanishi bizning ajdodlarimizdan bo'lgan olim Abu Yoqub Yusuf as-Sakkociy al-Xorazmiy tomonidan IX asrda yaratilgan «Miftahu-l-'ulum»¹ («Imilar kaliti») asarida o'z ifodasini topgan. Bu fanning rivojlanishi bilan bog'liq asarlar, uning asosida yozilgan o'quv qo'llanmalar arab alifbosida yaratilgani va xuddi shunday fanning g'arbda mavjud emasligi uni o'quv dasturlaridan tushib qolishiga sabab bo'ldi. Natijada biz nutq madaniyati bilan bog'liq bo'lgan asosiy fanni yo'qotdik. Bu yo'qotishning natijalari bugungi nutqimizda o'z aksini topib turibdi, desak xato bo'lmaydi.

Lekin mustaqillik yillarda milliy qadriyatlarni tiklash bilan bir qatorda ma'naviy merosimizni o'rganishga ham katta e'tibor berilishi sharofati bilan ilmiy, ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlar mutaxassislar tomonidan chuqur o'rganilmoqda.

Balog'at ilmining rivoji sharq xalqlari, jumladan fors va turkiy xalqlar ijodiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi va o'rta asrlarda bu ilm qoidalariga asoslanib, uning san'atlarini mohirona qo'llagan holda yaratilgan ko'plab badiiy va didaktik asarlar yozildi. Bu asarlarda

Uzbekiston xalqaro

islom akademiyasi

Axborot-resurs markazi

¹ Qarang: Зиёвуддинова М. Юсуф ас-Саккокий ва унинг «Мифтоҳ ал-улум» асари // Шарқ филологиясининг тугун ва ечимлари. –Т.: ТошДШИ, 2019. № 16. 178-179.

² على حرام، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة، البيان، المعاني. الطبع، القاهرة، 1999، ص. 5.

balog'at ilmining tarkibini tashkil qiluvchi til qoidalariga qat'iy rivoja qilish bilan birga badiiy san'atlardan ham ustalik bilan foydalaniilgan.

Aynan ana shu haqiqat va ifoda vositalarining badiiy tus olishi, ya'ni ularning estetik jihatdan jozibador va maftunkor suratga kirishi balog'at ilmining ta'lif-tarbiyadagi rolini kuchaytiradi. Bu jihatdan uning, xususan estetik tarbiyada o'z o'rni bor. Balog'at ilmi o'zining estetik kuchi bilan shaxsning tom ma'noda ham ta'lif, ya'ni ilm olishi, ham tarbiya, ya'ni odob normalarini o'zlashtirishiga katta ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lif-tarbiyaga ta'sir etuvchi kuchni balog'at ilmining har bir bo'limalda, har bir san'atida ko'rish mumkin.

- balog'at ilmi muomalada odob-ahloq doirasidan chiqmaslikka undaydi, ya'ni so'zlarni o'z o'rnida qo'llash, tanbehlarni ham ta'sirchan va chirolyi usulda aytishga chaqiradi. Chunki fikrni beadab tarzda ifodalaganda u qanchalik to'g'ri bo'lmasin, o'quvchi yoki eshituvchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lif-tarbiya jarayonida esa aksincha, tinglovchiga ijobjiy ta'sir qila olish juda muhim ahamiyatga ega, chunki ijobjiy munosabat yaxshi qabul qilinadi va so'zlovchining fikrlariga ergashishga xohish uyg'otadi.

- balog'at ilmida so'zlarni takrorlash, oz so'z bilan ko'p ma'no ifodalash orqali nutq go'zalligi va ta'sirchanligini oshirish talab qilinadi.

- Shuningdek, bu ilmda tinglovchining didini o'stirishga xizmat qiluvchi, ham eshitilishi, ham ma'no jihatdan yoqimli so'zlarni qo'llash san'atlari o'rgatiladi.

Nutqning mazmunli va jozibador bo'lishi uchun qo'yilgan talablar balog'at ilmida o'rgatiladigan bir qancha badiiy san'atlardan orqali amalga oshiriladi. Ma'lumot tinglovchining ham didiga, ham tinglashiga malol kelmaydigan, aksincha xush yoquvchi, ham estetik zavq beruvchi ohangdorlikdan vujudga kelgan bo'lishi kerak. Xususan, ilmiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi ma'lumotlarning bu tarzda yetkazilishi tinglovchida uning mohiyatini anglab, mag'zini chaqishga rag'bat uyg'otadi va xotiraga tez o'mashadi. Bu esa ilmu ma'rifatni, odob-axloq qoidalarini kishilar ongiga singdirish va uni targ'ib qilishda muhim omillardan

hisoblanadi. Shuning uchun ham ko'plab ilmiy asarlar nazmga solingan va o'quv dargohlarida ularni yod olganlar. Bular qatoriga arab tili qoidalariga oid «Alfiya»larni, she'riy tarzda yozilgan matematik hisoblarni, «Urjuza»larni kiritish mumkin.

- Nutqda ta'sirchanlikka erishishga oid talablar balog'at ilmining bayon bo'limiga kiruvchi tashbih, majoz, kinoya kabi san'atlardan orqali amalga oshiriladi. Mumtoz asarlarda bunday san'atlarni juda mohirona qo'llaganlar. Adiblar so'zni dur va gavharga o'xshatganlar va suiste'mol qilmaslik uchun unga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lganlar. Har bir so'zni o'z o'rnida, go'yo ulardan marvarid shodalarini tuzgandek, mohirona qo'llaganlar. Adiblar o'git-nasihatlar, hikoyatlar nazmga solinib, badiiy vositalar orqali aylilsa, ularning ta'sir kuchi ortishini e'tiborga olganlar.

Mumtoz adabiyot namunalardan go'zal san'atlardan vositasida insonlarni illatlardan voz kechib, fazilatlarni ko'paytirishga undab yaratilgan satrlarni behisob keltirish mumkin. Bunday satrlarni jamlagan asarlar asrlar osha o'zining ma'nan teran va shaklan maftunkor tarovati bilan ilm ahli va san'at shaydolarini maftun etib, ular qalbini nafosatga oshno qilib kelmoqda. Zero, go'zallik singdirilgan qalb o'z sohibini yomon fe'llardan asraydi, ma'naviy jihatdan yuksaklikka yetaklaydi.

- Balog'at ilmining muhim talablaridan yana biri keltirilayotgan dalillar va misollar o'z o'rnida va ishonarli manba asosida bo'lishi kerak. Chunki shubhali yoki ishonchsiz dalil yetkazilgan xabarning kuchini kamaytiradi yoki butkul yo'qotadi. Natijada berilgan ma'lumot foydasiz bo'lib qoladi, ya'ni maqsadga erishilmaydi. Islom olamida bu manbalar Qur'on va hadislardir. Sharqda biror manbara tayanish odati bilan bog'liq «ishonchli manba» tushunchasi mavjud bo'lib, masalan, «bu fikr Zamaxshariydan» yoki «bu muolaja «Tib qonunlari»dan» deyilsa, u hech qanday e'tirozsiz qabul qilingan va bu fikrga hurmat bilan qaralgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ilmiy asarlarda manbalardan dalil keltirishda mumkin qadar aniqlikka rivoja qilingan. Shu aniqlik tufayli ham ko'pgina asarlarning o'zi bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, ular va ularning mualliflari haqidagi ma'lumotlar boshqa ilmiy asarlardagi qaydlar orqali yetib kelgan. Bunday qoidalarga

amal qilish hozir ham ilm ahli uchun zarur bo'lgan odoblardan sanaladi.

Balog'at ilmining tugal nazariy asoslari arab tilida yaratilgan bo'lighiga qaramay, u ajam o'lkalarda ham keng tarqalgan va fors, turkiy tillarda asarlar yaratilgan. Lekin balog'at ilmi fani uchun asosiy qo'llanma arab tilida yozilgan «Talxisu-l-Miftoh» va «Sharh Talxisi-l-Miftoh» asarlari hisoblangan. Bu fan boshqa sharq mamlakatlaridagi kabi o'lcamiz ta'lim maskanlarida ham arab tiliga oid fanlar qatorida doimiy ravishda o'qitilgan. Chunki balog'at ilmi arab tilini chuqur o'zlashtirish imkonini yaratuvchi asosiy omillardan biridir.

Balog'at ilmi va uning talablariga to'la javob beruvchi asarlarni «o'rghanishning o'qituvchi va tarbiyachilarining ham mahoratini oshirish hamda o'quvchi va shinavandalarning didini o'stirish uchun juda katta ahamiyati bor»¹.

Shuningdek, balog'at ilmi asosida yozilgan aksar adabiyot namunalarining katta g'oyaviy ahamiyati bor. Bu asarlar mazmunni birinchi o'ringa qo'yish, voqelikni asosiy mezon deb bilish, maniqqa xilof narsani qo'llamaslik, inson uchun tildan azizroq va qimmatliroq narsa yo'qligini isbotlab berish, hayo va odob insonning oliy xislatlaridan biri ekanligini ta'kidlash va san'at inson uchun xizmat qilishini nazarga olib asarlarda behijoblikka yo'l qo'ymaslik kabi estetik prinsiplarga asoslangan holda yaratilgan².

Bu asarlarda ana shunday go'zal insoniy fazilatlarning go'zal badiiy san'atlar vositasida targ'ib etilishi ularning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qildi. Ularning umr uchun foydali bo'lgan satrlari mag'zini chaqib, go'zalligidan zavq ola bilish uchun asrlar davomida insonlarga xizmat qilgan, lekin bugun biz uchun unut bo'layozgan balog'at ilmini o'rghanuvchilar tiliga moslashtirgan holda nafaqat oliygochlarning filologiya kurslarida, balki shu ixtisoslikka aloqador litsey va kollejlarda ham o'qitishni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Balog'at ilmini o'zlashtirish orqali insonlar

¹ Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Т: F. Үулом номидаги Алабинёт ва санъат нашриёти, 1979. –Б. 5.

² Qarang: Рустамов А. Ўша манба. –Б. 5-6.

chiroyli so'zlashni o'rgansalar, uning asosida yaratilgan asarlardan bahramand bo'lib, ma'naviy barkamollik tomon intiladilar.

Bu ilm bugungi kunda ham o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qtogani yo'q. Balog'at ilmi arab tilida ma'noni ifodalashning nozik sir-asrorlarini o'rgatib kelayotgani sababli hozirgi kunda ham sharq davlatlari o'quv dargohlarida o'qitib kelinmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, balog'at ilmini o'zlashtirish sharq tillarini chuqur o'zlashtirish imkonini yaratuvchi asosiy omillardan hisoblanadi, shuning uchun ham bu ilm nafaqat filologlar, balki xalqaro munosabatlar doirasida faoliyat ko'rsatuvchi bo'lajak diplomatlar uchun ham juda zarurdir.

Bu fan san'atshunoslar, shoir va yozuvchilar, matbuot va radio xodimlari, ayniqsa pedagoglar nutqini, ham ma'noli, ham ravon bo'lishi, zarur hollarda uning ta'sir kuchini oshiruvchi vositalarni qo'llay olish bilimi va malakasini hosil qilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asarlar inson ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Inson tarbiyasida balog'atning qanday o'rni bor?
3. Estetik didni shakllashtirishda balog'atning ahamiyatini yoritib bering.

1.3. Balog'at ilmining shakllanishi va rivoji

Dars rejasi:

1. Balog'at ilmining shakllanishi.
2. Abdulqohir Jurjoniy va Abu Ya'qub Sakkociy balog'at ilmi asoschilari.

Tayanch iboralar: nafis nutq, «Majoz al-Qur'on», Abu Ubayda, Johiz, Ibn Mu'tazz, Jurjoniy, Sakkociy.

1. Balog'at ilmining shakllanishi. Qadimgi arab adabiyotini o'rghanishda faqat nasr va nazmdagi asarlargagina tayanishga to'g'ri

keladi, bu davrda nazariy asarlar yaratilmagan. Arab adabiyotida bunday asarlar ilk o'rta asrlarga kelib paydo bo'la boshladi.

Bu davrga qadar «Arablardagi nafis nutq, deb yozgan edi al-Johiz (775-868), improvizatsion xarakterga ega, u chuqur tayyorgarliksiz, uzoq o'yilmasdan va begonalarning yordamisiz paydo bo'ladi, notiq jang kuni yoki hayvonlarni sug'orish paytida nutq so'zlash yoki she'r o'qishga tayyorlanib o'z nutqining mavzusi bo'yicha fikrini jamlar ekan, go'yoki uning og'zidan so'zlar, iboralar o'z-o'zidan chiqar edi... Arablar yozishni bilmas edilar va ularning san'ati o'rganilgan bo'lmay, balki tug'ma edi. Nafis nutq san'ati hamma uchun shunday tabiiy ediki, so'zlangan nutqni o'rganish yoki an'anaga aylantirishda uni yozib olish zarurati yo'q edi»¹. Shu bilan birga «qadimdan shoirning qobiliyati maxsus tahsil orqali o'sib borib, nazm mahorati ustozdan shogirdga o'tib borgan, notiqlikda ham muayyan uslub shakllangan. O'tmishda yozilmagan qonunlarga bo'ysungan bu san'at IX asrga kelib tartiblangan tizim shakliga kira boshladi va balog'at deb ataldi» deydi arabshunos olim I.M. Filshtinskiy.

Arab ilmlari orasida adabiyot bilan bog'liq qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan balog'at to'liq shakllangunga qadar uning tarkibiy qismlari bo'lgan bayon, ma'oniy va badi' o'ziga xos ravishda rivojlanib borgan.

Arab tilshunosligi o'ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Islomgacha davr arab og'zaki ijodida turli badiiy vositalardan juda keng foydalanib kelingan. Ana shu davrdanoq dastlabki adabiy til va badiiy tasvir qoidalari shakllana boshlagan. Bu haqda Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johiz o'zining «Al-bayon va-t-tabyin» asarida ma'lumot beradi.

Islom davri boshlangach Qur'on-i Karim o'zining boshqa fazilatlari bilan bir qatorda yuksak darajadagi badiiyati bilan

¹ Сайдумаров М. Ҳаририй макомалари. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1996. –Б. 51.

so'zamol, fosih arablarni lol qoldirdi va ushbu ilmlarni chuqurroq tadqiq qilishga majbur etib qo'ydi. Shuning uchun ham ushbu mavzudagi dastlabki asarlar Quron-i Karim bilan bog'liq bo'ldi.

Balog'at ilmining olimlari uni uch tarkibiy qismga ajratganlar. Bular: ilmu-l-bayon maqsadni izohlash va tushuntirish uchun gapni turli vositalar bilan ifodalash qoida va usullari; ilmu-l-ma'oniy ta'birni voqelik va maqsadga muvofiq tarzda tuzish usulblari haqidagi ilm; ilmu-l-badi' so'z san'ati ilmi.

Shulardan bayon ilmi haqida birinchi bor Abu Ubayda Ma'mar ibn al-Musanniy al-Basriyning (867 y. v.e.) «Majoz al-Qur'on» kitobida zikr etilgan. Bu Allah Taoloning zaqqum daraxti borasidagi jumlasining ma'nosi haqida Ma'mun vazirlaridan biri al-Fazl ibnu-r-Rabi' tomidan berilgan savolga javob natijasida yuzaga kelgan edi¹.

Bu Soffat suraning 65-oyatidagi (Uning mevalari xuddi shaytonlarning boshlari kabidir) degan jumladir.

Bu boradagi savol qanday qilib mevani shaytonning boshiga, ya'ni odamlar hech qachon ko'rмаган narsaga o'xshatish mumkinligiga ishora edi. Chunki tashbih san'ati qo'llanganda mushabbah bih, ya'ni o'xshovchi o'quvchi yoki tinglovchiga ma'lum yoki tasavvur qilsa bo'ladigan narsa bo'lishi kerak. Yuqoridagi jumlada mushabbah meva, mushabbah bih shaytonlarning boshlari.

Abu Ubayda bu savolga shunday javob berdi: Shoir aytganidek:

أيقتنى و المشرفى مضاجعى و مسنونة زرق كائنات أعواز!

(Ma'nosi: U meni o'ldiradimi? Axir mening yonimdagи qilich uchining o'tkirligi devlarning oziq tishlaridek-ku).

Bu yerda ham mushabbah bih ma'lum bo'limgan narsa. Tashbihdan maqsad: mushabbah qo'rqinchli suratda bo'lgani uchun arablar yomon, hunuk suratni shayton yoki iblisga qiyoslab aytadilar, ya'ni bu yerda u «xuddi shaytonning basharasidek yoki iblisning boshi kabidir» ma'nosida kelgan. Shayton ham, iblis ham ular uchun yomonlik timsolidir. Shuning uchun arablar ularni hech

¹ حامد عوني. المنهاج الواضح للبلاغة، الجزء الأول. دار الكتاب العربي بمصر. 1953 م، ص. 5.

qachon ko‘rmagan bo‘lsalar-da, xunuk, qo‘rqinchli suratlarda tasavvur qiladilar. Yuqoridagi oyatning mazmuni «Uning mevalari xunuklikda xuddi shaytonlarning boshlari kabitir» deb tushuniladi¹.

Shundan so‘ng Abu Ubayda tez orada Qur’onda uchragan birinchi, ya’ni asl ma’nosidan boshqa ma’nolarda qo‘llangan so‘zlarni chuqur o‘rganib chiqadi va ularni «Majozu-l-Qur’on» nomli kitobiga jamlaydi.

Abu Ubayda Yunus ibn Habib shayx Sibavayhning shogirdi va Amiru-l-mu’minin Horunu-r-Rashidning ustozi bo‘lgan. Bir qancha olimlar uning izidan borib, istiora va kinoya haqida risolalar bitganlar. Lekin ular bayon ilmini maxsus ajratmaganlar. Bu hol abbosiylar davrining birinchi asrigacha davom etgan.

Balog‘atning tarkibiga kiruvchi ma’oniy ilmi haqida ayrim atoqli yozuvchilar va Horun ar-Rashidning vazirlaridan biri Ja’far ibn Yahyo, asli fors bo‘lgan shoir, adib va hakim Sahl ibn Horun kabi yozuvchi va notiqlar qisman gapirib o‘tgilanlar. Bu haqda birinchi bor mavjud ma’lumotlarni bir kitob holiga keltirgan kimsa yuqorida nomi zikr qilingan Abu Usmon al-Johiz (775-868)dir. Bu asarlar «Al-bayon va-t-tabyin», «I‘jazu-l-Qur’on» va b.

Keyinchalik Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) Quroni Karim tafsirlarida ushbu ilm takomiliga katta hissa qo‘shgan.

Abu Usmon al-Johizga yetuk olimlardan Abu Abbos al-Mubarrad (826-898), yozuvchilardan Qudama ibn Ja’far ergashdilar².

Badi’ ilmi borasida birinchi bor maxsus asar yozgan kishi abbosiylar halifasi olim Abdulloh ibn al-Mu’tazz ibn al-Mutavakkil al-Abbosiydir (861-908). Ungacha Bashshar ibn Burd (696-783), Muslim ibn al-Valid (747-823), Abu Tammam (788-845) va boshqa shoirlar o‘z she’rlarida badi’ turlarini qo‘llaganlar.

Ibn Mu’tazz badi’ ilmining o‘n yetti turini to‘pladi. Abdulloh ibn Mu’tazz haqida Sakkoki shunday deydi: «Bilgilki, badi’ning turlari ko‘p. Uni ixtiro qilgan birinchi kishi ibn Mu’tazzdir». Ibn Mu’tazz «al-Badi’» kitobining muqaddimasida e’tirof etishicha,

¹ «Унинг бутоқлари(даги мевалари хунукликда) худди шайтонларнинг бошларига ўшшар». Мансур Абдулазиз. Куръони Карим маъноларининг таржимаси. –Т.: ТИУ, 2001. –Б. 448.

² حامد عوني. المنهاج الواضح للبلاغة، الطبعة الخامسة، 1373هـ - 1953م، ص. 7.

«badi’» atamasini u birinchi bo‘lib qo‘llamagan, lekin uning san’atlarini ilk bora tadqiq qilgan va bu haqda kitob yaratgan.

Ibn Mu’tazz o‘z risolasining birinchi bobini istiora, ikkinchi bobini tajnis, uchinchi bobini mutobaqa, to‘rtinchi bobini «a‘jazu-l-kalam ‘ala ma taqaddumuha», beshinchi bobini «al-mazhabu-l-kalamiy»ga bag‘ishlaydi va ularni «fununu-l-badi’», ya’ni «badi’ san’atlar» deb ataydi. Bu boblardan so‘ng kitob 274 hijriy yilda yozilgani va uni birinchi bor Ali bin Horun bin Yahyo bin Abu Mansur Munajjim ko‘chirib yozgani zikr qilingan.

Keyinroq bu asarga Ibn Mu’tazz «mahosinu-l-kalom» deb atagan o‘n uchta san’at turini kiritgan. Bu san’atlar shunday nomlangan: iltifot, i’tiroz, ruju’, husnu-r-ruju’, ta’kidu-l-madh bimo yushbihu az-zamma, tajohulu-l-orif, hazl yurodu bihi al-jadd, husnu-t-tazmin, ta’riz, kinoya, al-ifrot fi-s-sifa, husnu-t-tashbih, i’notu-sh-sho’ir nafsa su fi-l-qavofi va husnu-l-ibtidot. Safiy Hilliy (750 h.) o‘zining «Sharhu-l-Kafiyati-l-badi’iyya» kitobida keltirishicha Qudama bin Ja’far (260-327 h.) yigirma tur san’atni jamlashga erishdi, shulardan yettitasi ibn Mu’tazznikiga mos keladi¹. Qolgan o‘n uch tur ibn Mu’tazzning o‘n yetti turi bilan birga o‘ttiz turni tashkil qiladi.

Keyinchalik Abu Hilol Askariy (395 h. v.e.) ularni o‘ttiz yettitaga, ibn Rashiq Qirvoniy (390-456 h.) oltmishtaga, Tifoshiy (651 h. v.e.) yetmishtaga yetkazdi. Badi’ san’atlar keng yoritilgan asarlardan biri Ibn Abu Isba’ning (585-654 h.) «at-Tahrir»i hisoblanadi, unda to‘qsonta san’at turi keltirilgan. Ibn Munqiz o‘zining «at-Taffi’ fi-l-badi’» kitobiga yana beshta turni kiritgan bo‘lsa, Safiyuddin Hilliy qirq beshta san’at qo‘shdi. Shu bilan arab adabiyotida badi’ san’atlar turi bir yuz qirqtaga yetkazildi.

2. Abdulqohir Jurjoniy va Abu Ya’qub Sakkokiy balog‘at ilmi asoschilari. Bayon, ma’oniy va badi’ ilmlari keyingi asrdagina boblar va fasllarga ajratildi. Bu ishga birinchi bo‘lib bel bog‘lagan kishi Balog‘at ilmi shayxi hisoblanmish imom Abdulqohir Jurjoniydir (471 h./1078 y. v.et.).

Jurjoniy o‘zidan oldingi fikrlarni ko‘p jihatdan

¹ عبد الله بن محمد بن المعتز العباسى: الكتاب البديع zaza@alwarraq.com

takomillashtirgan va o‘z davrida ma’lum bo‘lgan balog‘at masalalarini bir asarga jamlay olgan, ularni tasniflagan. Jurjoniy o‘zining bu faoliyati bilan balog‘at ilmining keyingi rivojiga munosib hissa qo‘shtigan. Jumladan, uning «Asroru-l-balogs‘a» asarida lafz va ma’no, tajnis, uning qismlari va turlari, istiora, tashbih va tamsil, istiora va tamsil orasidagi farq, tashbih va istiora orasidagi farq, majoz, aqliy majoz va lug‘aviy majozga oid masalalar ko‘rilgan.

Jurjoniying «Asroru-l-balogs‘a» asarida balog‘at ilmining tarkibi tugal shaklga keltirilmagan bo‘lsa-da, bu asar ungacha bo‘lgan ko‘pgina asarlardan farq qiladi.

Balog‘at ilmi Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy (1160-1229 m.) o‘zining «Miftuhu-l-ulum» asarini yaratgunga qadar shu holda saqlandi. Sakkokiy o‘zining bu asari bilan balog‘at ilmini to‘liq shakllantirdi. Uning o‘zi bu haqda shunday yozadi: «Men o‘z kitobimga tilshunoslik fanining, lug‘atshunoslikdan tashqari, zarur bo‘lgan sohalarini kiritdim. Ular quydagilar: arab tili sarfi-nahvi hamda ma’oniya va bayon ilmlaridir. Ma’oniya va bayon haqidagi ilmlarni egallash uchun nazm va nasrni tahlil eta bilish kerakligini tushundim, ayni vaqtida, shoir aruz va qofiya ilmlarini bilishga muhtoj ekanligiga ishonch hosil qildim. Shu sababdan mazkur masalalarni mukammal yoritishga jazm etdim»¹.

Sakkokiy o‘zigacha bayon etilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqdi va boblarni tartibga keltirdi. Undan keyingi olimlarning barchasi shu qoidalarga asoslandilar. Keyingi asr balog‘at olimlari ushbu ilmga aytarlik yangilik kiritmadilar. Ularning asarlariga sharh yozish va aytgan so‘zlarini takrorlash bilan kifoyalanib keldilar.

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, balog‘at ilmini tarkib va tartib jihatdan bir asarga jamlanib, ilmiy jihatdan yetuk darajaga kelishi, dastlab Jurjoniy, so‘ngra Sakkokiying benazir mehnatlari samarasidir.

Shuning uchun ham bu ilm mundarijasini Jurjoniying «Asroru-l-balogs‘a» («أسرار البلاغة») va Sakkokiying «Miftuhu-l-ulum» («العلوم مفتاح») asarlari orqali ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdır.

¹ Зиёвуддинова М. Юсуф ас-Саккокий ва унинг «Мифтоҳ ал-улум» асари // Шарқ филологиясининг тутун ва ечимлари. –Т.: ТошДШИ, 2005. 178-179 б.

Jurjoniy asarida balog‘at ilmining tarkibi tugal shaklga keltirilmagan bo‘lsa-da, ungacha bo‘lgan ko‘pgina asarlardan farq qiladi. «Asroru-l-balogs‘a» «lafz va ma’no» (اللفظ والمعنى) deb nomlangan bo‘lim bilan boshlanib, unda ma’oniya ilmi xususida qisqacha bahs yuritiladi. So‘ngra tajnis, tajnisning turlari, istiora, tashbih va tamsil haqida so‘z ketadi. Uning tarkibiga o‘nta fasl kiradi. Jumladan, tashbihning turlari va farqlari, tashbih va istiora orasidagi farq, haqiqat va majozning chegarasi, aqliy va lug‘aviy majoz, majozning turlari kabi masalalar.

«Asroru-l-balogs‘a» asarining qisqacha mundarijasi shulardan iborat bo‘lib, undan bu davrda balog‘at ilmi shakllanish jarayonida ekani, aniq va ravshan ilmiy tasnifga yetib kelinmagani ma’lum bo‘ladi.

Miftuhu-l-ulum. Balog‘at ilmi masalasida Abdulqohir Jurjoniydan so‘ng Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy o‘zining «Miftuhu-l-ulum» asarida o‘zigacha bayon etilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqdi va boblarni tartibga keltirdi.

Sakkokiy o‘z asarining «ma’oniya va bayon ilmlari haqidagi» qismida ungacha bo‘lgan asarlarda tarqoq holda bo‘lgan va balog‘atning asosini tashkil qiluvchi bo‘limlarni tartib bilan keltiradi va ularni «ilmu-l-ma’oniya», «ilmu-l-bayon» deb nomlaydi. Birinchi fasl ma’oniya ilmi beshta bobga ajratilgan va ular («Birinchi bob istak haqida»), («Ikkinci bob istak haqida»), («Uchinchi bob buyruq haqida»), («To‘rtinchi bob inkor haqida») va («Beshinchi bob undalma haqida») deb atalgan.

Ikkinci fasl bayon ilmi tarkibiga tashbih, majoz, istiora, kinoya masalalari kiritilgan.

So‘ngra Sakkokiy tilning latif va jozibali bo‘lishiga xizmat qiluvchi badiiy vositalar ma’noviy san’at turlari tiboq, muqobala, mushokala, maro’atu-n-nazir, muzovaja, laff va nashr, jam’, tafriq, taqsim, al-jam’ ma’a-t-tafriq, al-jam’ ma’a-t-taqsim, iyhom, tavjih, iltifot, lafziy san’atlardan tajnis, ishtiqaq, raddu-l-ajz ‘ala-s-sadr, qalb, saj’, tarsi’ turlari haqida bahs yuritadi.

Bu asardan keyin balog‘at ilmi haqida hech kim mustaqil asar yaratmadidi, olimlar Sakkokiying fikrlariga ergashdilar.

M.G. Kulievaning fikricha Sakkokiy balog'at ilmini «estetik tanqidiy aspekt» (kriticheskoe-esteticheskoye aspekt) dan «mantiqiy grammatik yo'nalihs» (logiko-grammaticeskoe napravlenie) ga olib o'tdi.

Jurjoniylar va Sakkokiy asarlarining qisqacha mundarijasidan ma'lum bo'ldiki, birinchi asar o'zidan oldingilarini ko'sp jihatdan takomillashtirgan va o'z davrida ma'lum bo'lgan balog'at masalalarini bir asarga jamlay olgan, ularni tasniflagan. Jurjoniylar o'zining bu faoliyati bilan balog'at ilmining keyingi rivojiga munosib hissa qo'shgan. «Asroru-l-balogs»dan keyin yaratilgan «Miftohu-l-ulum»da balog'at ilmi tarkib jihatdan to'ldirilgani, tasnifning chuqur ilmiy asosga egaligi bilan oldingilaridan tubdan farq qiladi va bu ilmning takomilga yetganidan darak beradi. Sakkokiyning bu asari hanuzgacha balog'at ilmining shoh asari bo'lib kelmoqda.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Balog'at ilmi qanday tarkibiy qismlardan iborat?
2. «Al-bayon va-t-tabyin» asari muallifi kim?
3. Bayon ilmi haqida birinchi bor Abu Ubayda Ma'mar ibn al-Musanniylar qaysi kitobida zikr etilgan?
4. Ma'oniy ilmi haqida qaysi olimlar gapirib o'tganlar?
5. Kim badi' ilmi borasida birinchi bor maxsus asar yozgan?
6. Jurjoniylar «Asroru-l-balogs» asari balog'at ilmining qaysi qismiga bag'ishlangan?
7. «Miftohu-l-ulum» asarining muallifi kim?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Insonning tabiatan go'zallikka intilishi.
2. Kalomda «fasohat» tushunchasi.
3. Abu Ya'qub Sakkokiyning «Miftohu-l-ulum» asari.

2-MAVZU. MA'ONIY ILMI. MA'ONIY ILMINING TARKIBI

2.1. «Ma'oniy» tushunchasi

Dars rejasি:

1. «Ma'oniy» tushunchasi.
2. Musnad.
3. Isnod.
4. Musnad ilayhning holatlari.
5. Musnadning holatlari.

Tayanch iboralar: ma'oniy ilmi, kalom, holat, so'zlovchi, tinglovchi.

1. «Ma'oniy» tushunchasi. Ma'oniy arab tilida balog'at ilmining bo'limlардан бир, бу ном عنى о'загидан yasalgan (ma'no, tushuncha, g'oya, voqelik) so'zining ko'plik shaklidir.

Ma'oniy ilmi to'qqiz bobga bo'lib o'r ganiladi:

1. Kalomning xabar va inshoga bo'linishi.
2. Insho haqiqati va uning qismlari.
3. Musnad ilayhining holatlari.
4. Musnadning holatlari.
5. Itloq va taqyid (Qayd etmaslik va qayd etish).
6. Fe'lga taalluqlilar (so'z, gap bo'lagi)ning holatlari.
7. Qasr haqida.
8. Fasl va vasl haqida.
9. Iyjoz, itnob va musovot haqida.

Unga shunday ta'rif beriladi:
هو أصول و قواعد، يعرف بها، كيف يطابق الكلام مقتضى الحال.¹

Ya'ni: ma'oniy ilmi kalomni vaziyat talab qilgan holatga moslashtirish usul va qoidalarini o'r ganadi. Bu ilmda حل مقتضى الحال usul va qoidalarini o'r ganadi. Bu ilmda حل مقتضى الحال tushunchalari farqlanadi:

so'zlovchi o'z kalomida biror maxsus narsani nazarda tutishi talab qilinadigan (asl ma'noga qo'shimcha tarzda) holat.

so'zlovchingan kalomida keltirilgan maxsus narsa.

حمد عوني. المنهاج الواضح للبلاغة. الجزء الثاني. دار الكتب العربي بمصر. 1953. ص. 5¹
29

o'sha maxsus narsaning qamrab olinishi¹.
 مسند الـيـه: يـكونـ الحـكمـ عـلـيـهـ اوـ شـخـصـاـ اوـ شـيـئـاـ يـقـومـ بـالـحـكـمـ وـ يـكـونـ فـيـ الـفـاعـلـ اوـ مـبـتـداـ اوـ ماـ يـقـومـ مـقـامـهـ.
 Masalan, Yusuf Sakkokiyning balog'at olimi ekanini bu haqda bilmagan kimsaga: **(إن يوسف السكاكى لعالم في اللغة)** (Haqiqatan, Yusuf Sakkokiyl balog'at olimidir) deb aytildi. Bu yerda so'zlovchi o'z fikrini ayni damda aynan shu tinglovchiga yetkazishda maxsus narsani e'tiborga olishi zarur bo'lgan holat tinglovchining bundan bexabarligi, uni bilmasligi. Bu hol (holat). Ta'kid yuklamasi shu holat uchun kerak bo'lgan maxsus narsadir va u asl ma'noga qo'shimcha tarzda qo'llanadi. Kalomning ta'kid shakli so'zlovchining kalomida keltirilgan maxsus narsa **(مقتضى الحال)**. Chunki misoldagi hol (holat) ta'kidni taqozo qilmoqda. Kalomning ta'kidni hisobga olib tuzilishi uning o'z ichiga maxsus narsani ham qamrab olganini **(مطابقة الكلام لمقتضى الحال)** ko'rsatadi.

So'zlovchi kalom tuzishda tinglovchining aytildigan narsadan xabardor yoki xabarsiz ekanidan tashqari uning boshqa, ya'ni zukkolik yoki tez fahmlay olmaslik kabi xislatlarini ham e'tiborga olishi lozim. Shunda u tinglovchining holatidan kelib chiqib o'z kalomini qisqa, ixcham (الإيجاز), bataysil (الإطناب) yoki o'rtacha shaklda tuzadi.

«Ma'oniy ilmida gaplar, asosan, so'zlovchining maqsadi va tinglovchining holatiga ko'ra tasnif qilinadi... So'zlovchining maqsadiga ko'ra gaplar ikki asosiy turga ajratiladi: xabariy: darak gaplar; inshoiy: buyruq, ta'qiq, so'roq, inkor va undov gaplar.

Har bir jumla «مسند إلـيـهـ» (musnad) va «مسـنـدـ إـلـيـهـ» (musnad ilayhi) deb atalgan ikki rukn (bo'lak)dan iborat.

«سنـدـ» o'zagidan yasalgan «مشـنـنـتـ» so'zining lug'aviy ma'nosi «تـأـيـانـ» bo'lib, istilohda fe'l, xabar yoki uning vazifasidagi narsaga nisbatan qo'llanadi.

Grammatik jihatdan gapning kesimiga to'g'ri keladi.

المسـنـدـ هوـ حـكـمـ وـ يـكـونـ فـيـ النـعـلـ اوـ الـخـبـرـ اوـ ماـ يـقـومـ مـقـامـهـ.

(Musnad hukmdir, u fe'lida, xabarda yoki ularning o'rnidagi narsalarda bo'ladi).

Musnad ilayhi fo'il, mutbado yoki uning vazifasidagi narsaga nisbatan qo'llanadi.

Grammatik jihatdan gapning egasiga to'g'ri keladi.

مسـنـدـ الـيـهـ: يـكونـ الحـكمـ عـلـيـهـ اوـ شـخـصـاـ اوـ شـيـئـاـ يـقـومـ بـالـحـكـمـ وـ يـكـونـ فـيـ الـفـاعـلـ اوـ مـبـتـداـ اوـ ماـ يـقـومـ مـقـامـهـ.

(Musnad ilayhi: hukm qilingan yoki hukm bilan boshqariladigan shaxs, narsa bo'ladi. U fo'ilda, mutbadoda yoki ularning o'rnidagi narsalarda bo'ladi.)

Ahmad Hoshimi shunday deydi:

2. Musnad «محـكـومـ بـهـ» (u tomonidan boshqariluvchi) yoki «محـكـومـ عـلـيـهـ» (u haqda xabar beruvchi) deb ataladi. Musnad ilayhi «محـكـومـ عـنـهـ» (unga hukm qilingan) va «مخـبـرـ عـنـهـ» (unga xabar berilgan) deb ataladi².

Musnad va musnad ilayhiga maf'ul, hol, tamyiz va boshqalar bog'lanib keladi.

Jumla ma'oniy olimlari nazdida teng emas. Ular asosiy va asosiy bo'limgan jumla bo'lishi mumkin. Birinchisi, mustaqil u boshqasi bilan boshqarilmaydi. Ikkinchisi, o'z holicha mustaqil emas, u boshqasining i'robi orqali boshqariladi. Boshqaruvchilar shart elementlari, inkor, tobe' so'zlar, foil, hol, tamyiz, kana va unga o'xshashlar, 'inna va unga o'xshashlar, zanna va unga o'xshashlar bo'ladi).

Musnad va musnad ilayhi orasidagi munosabat «isnād» (إسنـادـ) deb ataladi.

3. Isnod: musnad so'z musnad ilayhi bo'lgan boshqa so'z bilan birikadi, bu bilan ularning biri vositasida boshqasining zimmasidagi hukm ifodalananadi. Bu hukm ijobjiy yoki inkor bo'ladi. Masalan: الله واحد لا شريك له (Allah yagonadir, Uning sherigi yo'q)³.

Musnadning jumladagi o'rni (vazifasi) sakkizta⁴:

- mutbadoning xabari. Masalan: الله قادر (Allah qodirdir), xabar – قادر

- fe'l. Masalan: حضر الأمير (Amir keldi), fe'l.

- fe'lning ismlari. Masalan: هـيـهـاتـ، وـوـيـ، أـمـيـنـ (qanchalar yiroq! (m., biror narsaning amalga oshishi))

- mutbado. Masalan: [أـرـاغـبـ أـنـتـ عـنـ الـهـيـ ياـ إـبـرـاهـيمـ؟ Sen mening

¹أحمد هاشمي. جواهر في المعاني والبيان والدين. بيروت:لبنان. 2004. ص. 58

²أحمد هاشمي. المرجع السابق. ص. 60.

³أحمد هاشمي. المرجع السابق. ص. 61.

⁴حامد عوني. المرجع السابق. ص. 5-6؛ أحمد هاشمي. جواهر في المعاني والبيان والدين. بيروت:لبنان. 2004. ص. 56.

iloqlarimdan yuz o'giruvchimisan, ey, Ibrohim?! (MS 19/46)]. Mubtado راغب، ya'ni jumla shu so'z bilan boshlangan.

- axbāru-n-nawāsix¹, ya'ni kāna va unga o'xshashlar, 'inna va unga o'xshashlarning xabarlari. Masalan:

جميلاً (Bog' chiroli edi), xabar جميلاً (Haqiqatan, bog' chiroli), xabar جميلاً

- żanna va unga o'xshashlarning ikkinchi maf'uli. Masalan:

[Biz bog'ni ajoyib deb hisobladik (bildik)]. ألقينا الحقيقة بهية المنظر

Bunday fe'llarning ikkinchi maf'uli (بهية المنظر) jumla tarkibidagi ismiy jumlaga (الحقيقة بهية المنظر) nisbatan kesim vazifasida keladi.

- arā va unga o'xshashlarning uchinchi maf'uli. Masalan: أعلم (O'qituvchi o'quvchilariga ilmning foydali ekanini ma'lum qildi), uchinchi maf'ul نافعاً

- buyruq fe'li o'rnidagi masdar. Masalan: سعيًا في الخير jumlasi aslida (yaxshilikka intil!) shaklida bo'lib, buyruq fe'li tushib qolgan va uning vazifasi ham masdar mutlaqqa yuklatilgan.

Olimlar musnad ilayhining jumladagi o'rni (vazifasi) oltita ekanini ta'kidlaydilar. Bular²:

- mustaqil (tāmm) yoki yordamchi fe'lning (šibh) fo'il Masalan: فوادٌ (Otasi olim Fuad keldi), fo'il حضر فواد العالم أبوه

- 'asmā'u-n-nawāsix, ya'ni kāna va unga o'xshashlar, 'inna va unga o'xshashlarning ismlari. Masalan:

البستان جميلاً (Bog' chiroli edi), ism البستان جميلاً

البستان جميلاً (Haqiqatan, bog' chiroli), ism البستان جميلاً

- xabari bor mubtado. Masalan: العلم نافع (Ilm foydalidir), mubtado العلم

- żanna va unga o'xshashlarning birinchi maf'uli. Masalan: ظنٌ هذه المسألة سهلة (U bu masalani oson deb o'yldi), birinchi maf'ul المسألة

- arā va unga o'xshashlarning ikkinchi maf'uli. Masalan: أعلم

¹ Bu haqda qarang: Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. -М.: Изд-во Восточной литературы, 1963. -С. 586.

² أحمد هاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبيان والدين. بيروت-لبنان. 2004. ص. 61.

المعلم تلاميذة العلم نافعاً (O'qituvchi o'quvchilariga ilmning foydali ekanini ma'lum qildi), ikkinchi maf'ul العلم

- noib fo'il. Masalan: [Va kitob qo'yildi (MS18/49)], الكتب

Musnad va musnad ilayhi to'rt turga bo'linadi¹:

1. Ikkala rukn ham haqiqat bo'ladi.

2. Ikkala rukn ham hukm bo'ladi. Masalan: من النار («Allohdan boshqa iloh yo'q» (tavhidi) uni aytganni do'zaxdan asraydi.)

Bu jumlada ينحو, لا إله إلا الله ينحو uning xabari.

3. Musnad ilayhi hukm so'z, musnad haqiqat so'z bo'ladi. Masalan: شنمع بالمعنى خير من ثراه (o'zini ko'rgandan ko'ra xabarini eshitish yaxshiroq bo'lgan holatda «janjal sababchisi haqida eshitganing uni ko'rganingdan yaxshiroqdir» deyiladi.)

Bu ibora haqida Samim Halabiy (v.t. 756 h./1355 m.) shunday deydi:

شمع بالمعنى خير من ثراه» قالوا: تقديره: «أَنْ تسمِعَ فَلَمَّا حَدَّفَ «أَنْ» رفع الفعل، وهو في تأويل المصدر لأجل الحرف المقدر.²

(«Janjal sababchisi haqida eshitganing uni ko'rganingdan yaxshiroqdir» jumlasidagi شكله shaklidadir, شمع so'zi aslida yuklamasi tushib qolsa, fe'l raf' holatida bo'lib qoladi, u aslida mavjud bo'lgan yuklama sababli masdar kabitdir», deyidilar.) شمع على شكله شمع («janjal sababchisi haqida eshitish uni ko'rishdan yaxshiroqdir») deb ta'vil qilish mumkin.

4. Aksincha musnad ilayhi haqiqat so'z, musnad hukm so'z bo'ladi. Masalan: الأمير قرب قومة (Amir yetib kelishiga oz qoldi).

Bu jumlani الأمير قرب قومة deb ta'vil qilish mumkin.

4. **Musnad ilayhining holatlari.** Musnad ilayhi xabari bor bo'lgan mubtado, fo'il, uning noibi, 'asmā'u-n-nawāsix, ya'ni kāna va unga o'xshashlar, 'inna va unga o'xshashlarning ismlari.

Musnad ilayhining holatlari zikr qilingan, hafz qilingan (tushib qolgan), aniq yoki noaniq, oldin yoki keyin kelish va b.

Shulardan zikr qilingan musnad ilayhi haqida:

¹ أحمد هاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبيان والبيان والدين. بيروت-لبنان. 2004. ص. 61.

² http://www.shamela.ws:

Kalomda ma'noga ega bo'lgan har bir so'z zikr qilishga, albatta, loyiq. Chunki o'sha so'zlar orqali ma'no ifodalanadi. Shuning uchun agar musnad ilayhining hazf qilinishi taqozo qilinmasa, uni zikr qilish zarur, bular quyidagilar:

1. Tinglovchi uchun ta'kidni kuchaytirish va aniqlik maqsadida, masalan: [أَوْلَئِكَ عَلَى هُنَّا مِنْ رَبِّهِمْ وَأَوْلَئِكَ هُمُ الظَّالِمُونَ] (Ana o'shalar Rabbilaridan bo'lgan hidoyatdadirlar va ana o'shalar, o'shalargina najot topguvchilardir (MS 2/5)], «أَوْلَئِكَ هُمُ الظَّالِمُونَ» jumlesi orqali musnad ilayh taqvodorlarga nisbatan qo'llangan ko'rsatish olmoshi takror zikr qilingan. Bu zikrdan maqsad «o'shalar»ga hidoyat yetganini izohlash va yana «o'shalar» «najot topguvchilar» ekanligini bildirishdir.

2. Qarinada ishonchning kamligi, zaifligi yoki tinglovchining yaxshi fahmlay olmasligi, masalan: سعد فغم الزعيم (Sa'd qanday yaxshi rahnamo) deb ilgari Sa'd (musnad ilayhi) haqida gap ketgan bo'lib, tinglovchini u bilan tanishtirishda davom etish yoki Sa'dning sha'nini ko'tarish maqsadida aytildi.

3. Muxotob (murojaat qilinayotgan)ga raddiya (qarshi javob) bo'lsa, masalan: اللہ ثالث ثلاثة (Alloh yagonadir) deb (Alloh uchlikning uchinchisi) degan kishiga rad javob tarzida aytildi. Jumlada «Alloh» musnad ilayhidir.

4. Talazzuz (huzurlanish). Masalan: اللہ ربی، اللہ حسبي (Alloh Rabbimdir, Alloh kifoyadir); حبیتی ھی بدر (Sevgilim to'lin oydir).

Bulardan tashqari musnad ilayhi tinglovchiga ma'noni birma-bir tushuntirish maqsadida (التسجيل على السامع), taajjub (تعجب), ta'zim (الإهانة) ma'nolarida ham zikr qilinadi. Masalan:

نعم امير المؤمنين؟ (O'g'lim o'g'irladimi?) savoliga dona-dona qilib (Ha, Zayd o'g'irladi) deb; (Mo'minlar amiri keldimi?) savoliga izzat-hurmat bilan (Mo'minlar amiri keldi) deb; (O'g'ri tushdimi?) savoliga tahqirlab (O'g'ri tushdi) deb javob berish kabilar.

Musnad ilayhi muxtasar qilish, keraksiz deb hisoblash va ehtiyojkorlik holatlarida tushirib qoldiriladi va u ikki qismga bo'linadi:

1. I'rob orqali bilinadigan mahzuf, masalan: أهلا و سهلا (Xush kelibsiz), bu so'zlarning nasb holatida ekani hazf qilingan so'z ularning nasb qiluvchisi ekanidan dalolat beradi. Bu jumla جنت أهلا و نزلت مكانا سهلا (hurmat qilib kelding va yengil (mahzun bo'limgan) joyga qadam bosding) tarzida bo'lishi mumkin. Bunday hazf balog'atli hisoblanmaydi¹.

2. I'rob orqali bilinmaydigan mahzuf, u ma'noga diqqat bilan e'tibor qilib aniqlanadi, masalan: يعطي و يمنع (beradi va mahrum qiladi), ya'ni يشاء و يمنع من يشاء (Alloh kimga xohlasa beradi, kimni xohlasa mahrum qiladi]. «Bunday hazfda balog'at nafosati, uning uslublarining jozibasi namoyon bo'ladi. Bu hazfni zikr qilishning imkon yo'q, agar u oshkor qilinsa, nafislik zavol topadi, go'zallik barbod bo'ladi»². Shuning uchun imom Abdulqohir Jurjoniy «Dalailu-l-i'joz»ning hazf bobida shunday deydi: «bu bob maslak (yo'l)arning nafisi, ma'nolarning latifi, sehrga teng keladigan ishlarning eng ajoyibidir. Sen unda zikr tarkining zikrdan afzal, ifodadagi jimlikning ifodadan ziyoda ekanini ko'rasan; nutq qilinmagan narsaning qanday nutq qilishi, bayon qilinmagan narsaning qanday bayon qilishining guvohi bo'lasan; go'yo uni bilmasang bildiradi, yashirsang oshkor bo'ladi»³. Shuning uchun bu hazf balog'atdan hisoblanadi va u kishiga estetik zavq beradi.

Qarina dalolat qiladigan hazf quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: musnad ilayhiga dalolat qiladigan qarinalar orqali uni oshkor qilish (Zayd ketdi), زيد اتى و ذهب (Zayd kelib-ketdi) emas; ishni muxotob bo'limganlardan yashirish (Nima qildi?) savoliga javob: جاء (keldi)]; fursatni boy berishdan cho'chish هذا غزال (mana ovda ovchining e'tiborini tez qaratish uchun unga kiyik)ning o'miga (kiyik!) deyish]; noxushlik yoki kasallik كف أنت؟ (Qandaysan?) deb so'ralganda uning (kasal) deyishi]; saj', (Qandaysan?) deb طاب ثم أب (Zayd tuzaldi va qaytdi)]; qofiya va vaznni saqlash (غزال!) زيد طاب ثم أب (Zayd tuzaldi va qaytdi)]; عالم الغيب والشهادة الكبير المعلم (U musnad ilayhining haqiqatda borligi) zot g'oyibni ham, shohidni ham bilguvchidir. U buyukdir, yuksakdir

¹ احمد هاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبداع. بيروت-لبنان. 2004. ص. 130.
² www.alshirazi.com

أحمد هاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبداع. بيروت-لبنان. 2004. ص. 131.

³ عبد القاهر الجرجاني. دلائل الإعجاز في علم المعاني. بيروت - لبنان. دار المعرفة. 2001. ص. 106.

(MS 13/9)]; sabr-bardoshga chaqirish [فضير جميل (chiroyli sabr)] va b.

Olimlar tomonidan musnad ilayhi aniq holatda keladigan o'rinalar ham ko'rsatib o'tilgan. Bular: uning atoqli ot [محمد رسول الله (Muhammad Allohning elchisidir)]; ko'rsatish olmoshi (oldimga mana bu keldi)]; nisbiy olmosh [جاءني هذا (الذين يزورونك أكرهم) (Seni ziyorat qiladiganlarni hurmat qil)]; izofa bo'lib kelishi [ابن الجبان (ibn Jabbon (qo'rroq) keldi)]; bilan qo'llanishi [الأنسان حيوان (inson gapiradigan tirik mavjudotdir)]; undov so'zlar bilan kelishi (agar nutq yo'naltirilganning ismi, unvonini bilmasa ya' ral (Hoy, kishi) deb murojaat qilishi]¹.

Musnad ilayhi noaniq holatda keladigan o'rinalar, uning jumla boshida kelish sabablari ham bayon qilingan.

5. Musnadning holatlari. Musnad xabar, fe'l, fe'l nomi, bosh kelishikdag'i xabardon xoli bo'lgan mutbado-vasf, axbāru-n-nawāsix (kāna va unga o'xshashlar, 'inna va unga o'xshashlarning xabarlari), fe'lning o'mida keluvchi masdar bilan ifodalanadi.

Musnadning holatlari: zikr qilingan, hazf qilingan (tushib qolgan), aniq yoki noaniq, oldin yoki keyin kelish va b.²

Musnad bir necha hollarda zikr qilinadi, masalan³:

1. Qarinada dalolat ta'vilining zaifligi. Agar biror so'z yoki ibora tushib qolsa, uning hazf qilingani o'z-o'zidan anglashilmaydi, masalan:

(Halî mustaqim (to'g'ri), rizqim tayin), agar misoldagi musnad ميسور so'zi hazf qilinsa, zikr qilinganlari unga dalolat qilmaydi.

2. Tinglovchingning yaxshi fahmlay olmasligi, masalan: أصلُهَا ثَابِتٌ [Uning asli sobit turadi. Shoxlari esa, osmonda. (SM 14/24)], agar misoldagi imusnad – so'zi so'zi hazf qilinsa, anglab olishi zaif bo'lgan tinglovchi buni o'zi tushunib ololmaydi.

3. Muxotob (murojaat qilinayotgan)ga rad javob bo'lsa, masalan: [Sen: «Ularni ilk marta yo'qdan bor qilgan zot tiriltirur...», deb ayt (MS 36/79)] javobi من يخلي العظام

[«Suyaklarni kim tiriltiradi? Holbuki, ular titilib ketgan-ku?!» (MS 36/78)] savoliga berilgan.

Musnad ko'p hollarda tushib qoladi:

1. Qarina musnadga dalolat qilsa:

- zikr qilingan bo'lsa, masalan: Agar جائني سألهُم من خلقهم ليقولن الله (sen ulardan o'zlarini kim yaratganini so'rasang, «Alloh» derlar (MS 43/87)], ya'ni «yaratgan» so'zi tushib qoladi.

- taqdiri (aslida)da bo'lsa, masalan: يسبح له فيها بالغدو والأصال رجل [Ularda Unga kishilar ertayu kech tasbih ayturlar (MS 24/36)], ya'ni (kim Unga kishilar tasbih ayturlar) javobi من يسبحه؟ يسبحون رجل tasbih aytur) savoliga berilgan.

2. Suiste'mollikdan saqlanish, masalan: أن الله بريء من المشركين [Albatta, Alloh va Uning Rasulining mushriklar bilan oralari ochiqidir (MS 9/3)], ya'ni رسوله بريء منهم أيضا bo'lsa, jumla to'liq bo'lar edi.

3. Kalomni cho'zish uchun maqom (belgilangan o'lcham)ning torlik qilishi, masalan, she'rda:

نحن بما عندنا وأنت بما عندك راضٍ والرأي مختلف

(Biz o'z oldimizdag'i, sen o'z oldingdag'i narsalardan rozimiz va fikr turlicha.) Aslida (Biz o'z oldimizdag'i narsalardan rozimiz) bo'lishi kerak edi.

4. Arablarning iste'molida bo'lib kelgan narsalarga ergashish. Masalan: لَوْلَا أَنْتَ لَكُنْ مُؤْمِنٌ [Siz bo'limganingizda, albatta, biz mo'min bo'lar edik (MS 34/31)], ya'ni لو لا أنت موجودون

Demak, musnad ilayhi jumlaning ruknlari (gap bo'laklari, qismlari) deb ataladi, ya'ni ular gapning bosh bo'laklari hisoblangan kesim va ega vazifasida keladigan so'zlardir, ular o'zaro predikativ munosabatda bo'ladi. Gapda boshqa so'zlar, ya'ni ikkinchi darajali bo'laklar vazifasidagi so'zlar esa ularga noprifikativ bog'lanadi.

Shuningdek, ma'oniy ilmida musnadning aniq holatlari (tinglovchi oldida ish hukmingin ifodalanishi, musnad ilayhiga nisbatan qasi¹ bo'lishi); musnadning noaniq holatlari (noaniq holatdagi musnad ilayhidan keyin kelishi, taxqirlashda); musnadning oldin yoki keyin kelishi holatlari ko'rsatib berilgan.

¹ Misollar olindi: www.alshirazi.com/compilaions/lals/balagah/part1/4.htm.

² احمد هاشمي. جواهر في المعنى والبيان والدين. بيروت:لبنان. 2004. ص. 160.

³ احمد هاشمي. المرجع السالق. ص. 161-160

¹ Qasr – bir narsani boshqa narsaga xoslashtirish, ya'ni tegishli qilish.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ma'oniy ilmi ta'rifini izohlang.
2. «Holat taqozosiga moslik» tushunchasiga izoh bering.
3. Ma'oniy ilmi qanday tarkibiy qismlardan iborat?
4. Musnad va musnad ilayh tushunchalarini izohlang.

2.2. Xabar va insho

Dars rejasi:

1. Xabar.
2. Insho.

Tayanch iboralar: xabar, hukm, ibtidoiy, talabiy, insho, iltimos, taajjub, qasam.

1. Xabar. Ma'oniy ilmida «xabar» atamasi «ma'lumot» ma'nosida qo'llanadi va «u rost yoki yolg'on ma'lumotni bildirgan kalom bo'lib, bu so'zlovchining rost yoki yolg'on nutqida o'z aksini topadi, berilgan ma'lumot voqelikka mos kelish yoki kelmasligi bilan baholanadi»¹. Bu ta'rifning ma'nosini quyidagi misol orqali yoritiladi: (Ilm foydalidir) deyilsa, xabar bo'ladi, chunki u voqelikda mavjud bo'lgan ilmning foydali ekanini bildiryapti va bu rost xabardir. Agar haqiqatda ilm foydasiz bo'lganida, berilgan ma'lumot yolg'on xabar bo'lar edi. Mazkur jumla orqali ilmning sifati foydali ekan tasdiqlangan va haqiqatan ham ilmning bu sifati jumla orqali talaffuz qilinadimi-yo'qmi, voqelikda mavjuddir.

Xabarning rost bo'lishi uchun voqelik va xabardan anglashilgan ma'lumotning o'zaro mutanosib bo'lishi maqsad qilib olinadi, uning yolg'on bo'lishida esa nomutanosiblik maqsad qilinadi.

Xabar ikki holatda yetkaziladi²:

- agar tinglovchi jumlada ifodalangan hukm (qaror)ni bilmasa, ya'ni undan xabardor bo'lmasa, bu فاندة الخبر – (fā'idatu-l-xabar). Masalan: الدين معاملة (din muomaladir);

¹ احمد هاشمي. جواهر في المعاني و البيان والدين. بيروت-لبنان. 2004. ص. 63.
² احمد هاشمي. المرجع السابق. ص. 64.

- yetkaziladigan xabarni so'zlovchi ham, tinglovchi ham bilsa, أنت نجحت في القيادة لازمة الفاندة (Sen imtihonni muvaffaqiyatli topshirding).

Bulardan tashqari xabar qarinalarning ifodalanishi va kalomning shakliga ko'ra bir nechta maqsadni bildiradi, quyida ayrimlari keltirilgan:

- 1) rahm-shafqat istash, masalan: إِنَّ فَقِيرًا إِلَى عَفْرَبِي . men Rabbimning kechirishiga muhtojman.
- 2) amalga oshirish kerak bo'lgan narsaga yo'naltirish, masalan: فَلَيْسَ سَوَاءَ عَالَمٌ وَجَهَوْلٌ Olim va ilmsiz teng emas.
- 3) ojizlik va rozilik (xushu')ni izhor qilish, masalan: رَبُّ إِثْيَى وَهُنَّ الْغَنْظُمُ مُنْتَى mo'rtlashdi (MA 19/4).
- 4) mahbubining biror ishidan hasrat qilish, masalan: إِنَّ رَبَّ إِثْيَى وَضَعَتْهَا أَنْتَ [Ey, Rabbim, men qiz tug'dim (Imronning xotini o'zi kutganidek o'g'il emas, qiz (Maryamni) ko'rgan edi (MA 3/36)].
- 5) kelgan (qabul bo'lgan, paydo bo'lgan) narsadan quvonish, ketgan narsani his qilish, masalan: حَاجَةُ الْحَقِّ وَزَهْقُ الْبَطَاطِنِ Haqiqat keldi, yolg'on ketdi.
- 6) tanbih berish, masalan: الشَّمْسُ طَالِعَةٌ Quyosh chiqyapti!
- 7) narsalar, darajalar orasidagi farq (tafovut)ni zikr qilish, masalan: لَيْسَتِي كَسْلَانُ وَنَشِيطٌ Dangasa va tirishqoq teng emas.
- 8) ehtiyojkorlik, masalan: أَبْغَضُ الْحَلَالَ إِلَى اللَّهِ الطَّلاقُ. Alloh eng yomon ko'rgan haloldir.

(Hadis)

- 9) faxrlanish, masalan: إِنَّ اللَّهَ أَصْطَفَانِي مِنْ قَرِيبٍ. Alloh meni Qurayshdan tanlab oldi.

(Hadis)

- 10) madh qilish va b., masalan: فَبَنَكَ شَمْسُ وَالْمَلَوْكُ كَوَاكِبٌ إِذَا طَلَعَتْ لَمْ يَدْ مِنْهُ كَوَكِبٌ Sen quyoshsan, podshohlar yulduzlar

Agar u (quyosh) chiqsa, yulduzlarning birortasi ko'rinnmaydi.

Olimlar so'zlovchi xabarni tinglovchiga sifatli qilib yetkazishi

xusususida shunday deydarlar: agar so'zlashdan maqsad xabarni aniq ifodalash bo'lsa, so'zlovchi va tinglovchi munosabati xuddi tabib va bemor munosabati kabi bo'lishi kerak, ya'ni uning holatini tashxislashi va unga munosabatini bildirishi lozim.

Kalomning haqqi borasida esa u kerakli miqdorda bo'lishi, ya'ni foydasiz bo'lib qolmasligi uchun ko'payib ketmasligi yoki maqsad ifodalanmaydigan darajada kam bo'lmasligi zarurligi ta'kidlanadi. Bu (al-ifṣāḥū wa-l-bayān) deyiladi¹. Bunday xabar nutq (til) orqali tinglovching holatidan kelib chiqib, bir necha xil usulda ifodalanadi. Olimlar xabar haqida uning ibtidoiy, talabiy yoki inkoriy bo'lishiga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaganlar:

1. Agar tinglovchi xabar qilinayotgan ma'lumotga shubha qilmasa yoki uni inkor qiladigan holatda bo'lmasa, ta'kidning hojati yo'q. Masalan:

الْمَلَكُ وَالْبَشَّرُ زِيَّةُ الْخَيَاةِ الْدُّنْيَا [Mol-mulk, farzandlar dunyo hayotining ziynatidir (MA18/46)].

Xabarning bu turi «ibtidā'iy» (boslang'ich, sodda) deyiladi va u tinglovchi xabarning madluli, ya'ni dalil bo'lувчи (denotat yoki referent)ni bilmagan holatlarda qo'llanadi. Shunda tinglovchi o'zi bexabar bo'lgan madlul haqida xabar topadi va bu narsa uning zehnidan o'rinn oladi.

2. Agar tinglovchi xabardan shubhalanayotgan, uning haqiqatini bilishga vosita izlayotgan bo'lsa, bu holda unga kalomning hukmini kuchaytirib, ta'kid bilan yetkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu shu xabarga zid bo'lgan xabarni yo'qotish uchun qilinadi. Xabarning bu turi طلبی - «talabiy» deyiladi. U tinglovchi xabar madluli rostligiga ishonch hosil qilishga intilib, ikkilanayotgan holatida qo'llanadi. Masalan: إنَّ الْأَمِيرَ مُنْتَصِرٌ (Haqiqatdan ham amir g'olibdir).

3. Tinglovchi yetkazilayotgan xabarning aksiga ishongani uchun uni inkor qiladigan holatda bo'lsa, inkorning kuchli yoki zaifligini e'tiborga olib, bir-ikki yoki undan ko'p ta'kid kerak bo'ladi. Xabarning bu turi إنْكَارِي «deb ataladi va u tinglovchi xabarni inkor qilish holatida bo'lganda qo'llanadi.

أحمد هاشمي. جواهر في المعاني و البيان و النبئ. بيروت-لبنان. 2004. ص. 67.

Masalan: إنَّ أَخَّاكَ قَادَمْ إِنَّهُ لَقَادَمْ وَإِنَّهُ لَقَادَمْ (Haqiqatan, akang keldi Darhaqiqat, u keldi Xudo haqqi, u keldi).

«Ta'kid talab qilinadigan kalomlarda yuklamalari; qasam yuklamalari; ta'kidni bildiruvchi ikki ن; jumla boshida keladigan ل qo'llanadi.¹ «Bulardan tashqari yana «tanbeh yuklamalari, قد استفعلن dagi qo'shimcha va takror harflar (tovushlar), shart uchun qo'llanadigan أَمَّا ham ta'kidni ifodalaydi»².

Xabar ismiyi va fe'liy jumlalarga bo'linadi.

1. Ismiy jumla mutbado va xabardan tarkib topadi. U biror narsaning aynan shu narsaga mansubligini ifodalaydi. Bunda uning yangilanib borishi yoki davomiyligi e'tiborga olinmaydi. Masalan: الأرض متحركة [Er harakatda (harakatlanuvchi)dir].

2. Fe'liy jumla fe'l va foildan yoki fe'l va noib foildan tashkil topadi. U muayyan zamonda bo'lib o'tayotgan hodisani qisqacha ifodalashga xizmat qiladi. Chunki fe'l o'zining morfologik ko'rinishlari orqali uch zamondan biriga dalolat qiladi. Masalan: اشرت الشمس و قد ولى الظلام (Quyosh chiqdi va zulmat chekindi); (عيش البخيل عيشة القراء و يحاسب في الآخرة حساب الأغبياء) (Baxil faqirlar hayotini yashaydi, oxiratda boylar kabi hisob qilinadi).

2. Insho. إنشاء so'zining lug'aviy ma'nosi: ijod. Istilohda: rost yoki yolg'on hukmi berilmaydigan kalom³. Masalan: (kechir), اغفر (rahm qil) kabilarda ularni aytgan kimsaga nisbatan «rost aytdi» yoki «yolg'on aytdi», deb bo'lmaydi.

إنشاء غير (إنشاء طبلي) (talabli) va talabsiz (طبلي) turlarga bo'linadi.

Talabsiz insho haqida shunday deyiladi:

الإنشاء غير الطبلي، هو: ما لا يستدعي مطلوباً وقت الطلب، أي: حصول الطلب غير مرتبط بالطلب.⁴

Ta'rifdan ma'lum bo'ladiki, talabsiz inshoda talab qilingan narsaning biror vaqtida amalga oshishi nazarda tutilmaydi, ya'ni talabning bajarilishi talabga bog'lanmaydi.

Uning iltimos, taajjub, maqtov va yomon deb bilish, qasam va kelishuv (bitim) ma'nolarini beruvchi siyg'alari mavjud⁵.

صالح ساسه. المندج في الإعراب والقواعد والبلاغة والعروض. دار الراند للطباعة والنشر. ص. 1328
أحمد هاشمي. جواهر في المعاني و البيان و النبئ. بيروت-لبنان. 2004. ص. 69.

³أحمد هاشمي. العلوم البلاغية. المراجع السابقة. ص. 84.
⁴http://mahmoudqahtan.com/
⁵أحمد هاشمي. المرجع السابق. 2004. ص. 84.

Iltimos (الرجاء), o'tinch ma'nosi uchun عسى، حرى، اخْلُونَق (mumkin bo'lsa, qani edi, koshki) so'zлari qo'llanadi, masalan: عسى أَنْ يَأْتِي بالفَتْح (qani edi, Allah menga g'alaba ato qilsa).

Taajjub (التعجب) ikki morfologik shakl orqali ifodalanadi: أَفْعَلَهُ، مَسَالَةً، أَفْعِلَ بِهِ، مَسَالَةً:

[O'lik ekaningizda sizni tiriltirgan Alloho ni qanday inkor etasiz?! (MA 2/28)].

[Ular Bizga keladigan kunda juda (aniq) ko'radijan va eshitadigan bo'lib qolurlar (MA 19/38)].

Maqtov va qarg'ash, yomon deb bilish (المدح و النم) ma'nosi quyidagicha ifodalanadi:

- o'rniga qarab mos ravishda نعم (qanday yaxshi, qanday ajoyib) so'zi bilan sevinish, qanoat hosil qilish holatlarda yoki nochorlikda, yomon holatlarda بَشَّ (qanday yomon) so'zi bilan qo'llanadi, masalan: بَشَ قُولًا الْكَذِبِ (Qanday yaxshi odamsan!), (Yolg'on gaphirish qanday yomon!)¹;

- حَدَّا (qanday yaxshi, qanday ajoyib!) yoki aksincha يَحْدَدا (yaxshi emas!) so'zлari, masalan: حَدَّا الْعِلْمُ وَ لَا حَدَّا الْجَهَلُ (Ilm qanday yaxshi, ilmsizlik qanchalar yomon);

- yaxshi va yomon deb bilishni ifodalaydigan فَعَلَ (vaznidagi uch o'zak harfli fe'llar orqali, jumladan, طَابَ (yaxshi bo'lmoq), خَيْثَ (yomon bo'lmoq, qahrli bo'lmoq) fe'llari ham ishlatalidi, masalan: طَابَ عَلَيْ نَفْسِهِ (Ali o'zi yaxshi) yoki (Babr asli yomon).

Qasam (القسم) تَقْسِيمٌ va لَّ (yordamida ifodalanadi, masalan: لِعَمْرِكَ مَا فَعَلْتَ كَذَا)

Kelishuv (bitim) (العقود) u oldi-sotti, bitim, sug'urta, kafillik, vakolat, qarzga oid barcha so'zлari orqali ifodalanishi mumkin, fe'llar ko'pincha o'tgan zamon shaklidagi bo'ladi, masalan: بَعْثَ سِيَارَتِي (mashinamni sotdim), (uy sotib oldim), وَهَبْثَ مَالًا (narsa sovg'a qildim, bag'ishladim), اعْتَقْتَ (ozod qildim). Ba'zan o'tgan zamon shaklidagi fe'siz qo'llanadi, masalan: أَنَا بَاعْتَ (men sotuvchiman), عَدَى حِلْجَهِ اللَّهِ تَعَالَى (qulim Allah taolo nazdida ozoddir).

Talabiy inshoga berilgan ta'rif quyidagicha:

¹ Talabsiz insho uchun misollar olindi: <http://mahmoudqahtan.com> /علوم البلاغة-البلاغة/ إنشاء-غير-الطلبي

طلبي: هو ما يستدعي مطلوباً غير حاصل وقت الطلب.¹

Ya'ni: talabiy inshoda talab qilingan narsaning talab vaqtidan qat'iy nazar amalga oshishi nazarda tutiladi.

Uning buyruq, inkor, so'roq, istak va undov kabi beshta siyg'asi bor².

1. **Buyruq** (الأمر), tinglovchidan ish-harakatni amalga oshirish majburan talab etiladi. To'rtta siyg'asi mavjud. Bular: buyruq holatidagi fe'l, buyruq «lämmi bilan kelgan jazm holatidagi (sukunlangan) hozirgi zamon shaklidagi fe'l, buyruq fe'lining ismi, buyruq fe'li o'rnida kelgan masdar³. Oxirgi turga misol: سعيا في سبيل الخير (yaxshilikka intil!).

Buyruq siyg'asi orqali matn mazmunidan kelib chiqib qo'shimcha ma'nolar ham ifodalanishi mumkin. Duo, iltimos, irshod, tahdid, ojizlik, imkon berish, tenglashtirish, hurmat, minnaddorlik, tahqirlash, davom, istak-xohish, e'tibor, ruxsat, yaratish, xabar, tarbiya, taajjub ma'nolari shular jumlasiga kiradi⁴. Masalan, duo ma'nosida: رَبَّ أَوْزَغَنِي أَنْ أَشْكُرَ بِنَعْمَتِكَ [Ey, Rabbim, ne'matlaringga shukr etishimga muvaffaq etgin (MA 27/19)], iltimos ma'nosida: أَعْطَنِي الْقَلْمَانِيَّ أَلَّا يَخْرُجَ [qalamni berib yubor, birodar], tenglashtirish ma'nosida: فَبَصِرُوا أَوْ لَا تَبْصِرُوا [Chidaysizlarmi, chidamaysizlarmi baribir (MS 52/16)].

2. **Inkor** (النهي), biror narsadan voz kechish (biror narsani bajarmaslik) majburan talab qilinadi. Uning siyg'asi bitta: inkorni ifodalovchi يَ بَلَّ (bilan kelgan hozirgi zamon fe'li. Bu siyg'a matnga ko'ra o'z ma'nosidan kelib chiqib, duo, iltimos, irshod, davom, oqibat (natija) bayoni, afsus, istak-xohish, tahdid, karohat, tanbeh, tahqir kabi ma'nolarni ham bildiradi⁵. Masalan, duo ma'nosida: رَبَّنَا [Ey Rabbimiz, agar unutsak yoki xato qilsak, bizni koyima! Robb (MA 2/286)], oqibat (natija) bayoni: لَا تَخْسِنَ الْذِينَ قَبَلُوكُمْ فِي سَبِيلِ اللَّهِ أَمْوَاتًا [Allohnning yo'lida qatl bo'lganlarni o'liklar deb hisoblamanglar. Balki ular tirik (MS 3/169)].

3. **So'roq** (الاستفهام), ilgari ma'lum bo'limgan narsani bilish

¹ <http://mahmoudqahtan.com/category/> /لِلْبَلَاغَةِ عَلَيْهَا/

² 85. أَحْمَدُ هَشْمِيٌّ. جَوَاهِرُ فِي الْمَعْنَى وَالْبَيْانِ وَالْبَيْعِ بِبِرْوَتِلَبَانِ. 2004. ص.

³ 87-86. أَحْمَدُ هَشْمِيٌّ. الْمَرْجَعُ السَّابِقُ. 2004. ص.

⁴ 88-87. أَحْمَدُ هَشْمِيٌّ. الْمَرْجَعُ السَّابِقُ. ص.

⁵ 93-92. أَحْمَدُ هَشْمِيٌّ. الْمَرْجَعُ السَّابِقُ. ص.

talabidir. U quyidagi so'roq so'z (vosita)lardan biri bilan keladi:
أ، هل، ما، متى، أين، كيف، أين، أنى، كم، أي.

So'rovning talabiga ko'ra uch qismga bo'linadi:

A) Tasdiqlash yoki tasvirlash talab qilinadi, (so'roq yuklamasi) orqali murojaat qilinadi. Masalan: أعلى مسافر أم سعيد؟ (Ali musofirmi yoki Sa'id?) Savol beruvchi ulardan biri safar qilganini biladi, lekin aynan kim ekanini aniqlab olmoqchi. Shuning uchun javob ham aqil qilib, masalan, «Sa'id», deb aytildi.

B) Faqat tasdiqlash talab qilinadi, (so'roq yuklamasi) orqali murojaat qilinadi. Masalan: هل العنقاء موجودة؟ (Anqo (qush) mavjudmi?)

V) Faqat tasvirlash talab qilinadi, كم، أي (so'roq olmoshlari) orqali murojaat qilinadi. Masalan: متى زرت (Anqo (qush) استاذك؟)

4. *Istak* (الثمن)، biror istalgan narsani talab qilish ma'nosini anglatadi. Uning amalga oshishiha ko'ra «amalga oshishi mumkin bo'Imagan» va «mumkin bo'lgan» (ممکن) turlari bor². Masalan:

ألا لَيْتَ الشَّبَابَ يَعُودُ يوْمًا فَأَخِيرُهُ بِمَا فَعَلَ الْمُثِيبُ³

(O, qani endi yoshlik bir kun qaytib kelsayu, unga keksalik nimalar qilganini aytib bersam.)

Yoki: (Qani endi yulduzlar menga yaqin kelsa... ulardan so'zleri sizga manzur bo'ladigan madh marjonlari tizar edim).

Bu misollarda yoshlik va yulduzlar istalayotgan narsalar. Lekin yoshlikning qachondir qaytib kelishi yoki yulduzlarning pastga tushishi mumkin bo'Imagan hodisalar bo'lgani uchun bu xohishlar amalga oshishi mumkin bo'Imagan istak turiga kiradi.

Quyidagi misolda boshqa turdag'i istak bildirilgan: يا لَيْتَ لَنَا مِثْلًا [أوتى فارُونَ] [Qani endi bizga ham Qorunga berilgan narsadan bo'lsa edi (MS 28/79)]. Istalayotgan narsalar Qorunga berilgan dunyo matohlari bu istakka erishish mumkin bo'lgani uchun u amalga oshishi mumkin bo'lgan istak hisoblanadi.

¹ احمد هاشمي. جواهر في المعاني و النبيان و البديع. بيروت-لبنان. 2004. ص. 95.

² احمد هاشمي. المرجع السابق. ص. 113.

³ محمد بن صالح بن محمد العثيمين. شرح رياض الصالحين

⁴ محمد متولى الشعراوى. تفسير الشعراوى

هل، Istak vositalari to'rtta, bulardan asl vosita hisoblanadi. لَيْتَ asl vosita hisoblanadi.

فَهُنَّ لَنَا مِنْ شَفَعَاءَ فَيَقُولُونَ لَنَا

[Endi bizga shafoat qiluvchilar bormi (MS 7/53)]

[Qani endi ortga qaytsagu mo'minlardan bo'lsak (MS 26/102)]

Bu vositalar istakda qo'llangani uchun javobda fe'l hozirgi zamon nasb holatida bo'ladı.

5. *Undov* (الذاء), so'zlovchining «chaqirayapman» ma'nosni o'mnida keluvchi yuklamalar orqali tinglovchini yaqinlashtirish taliibi, u sakkizta vosita yordamida ifodalanadi:

Ular qo'llanish sifatiga ko'ra yaqinga, uzoqqa nisbatan qo'llanuvchi ikki turga bo'linadi. ألا يأرقنا يا مولا (Ey, Mavloim (Allohim)). Bu yerdagi undovi murojaat qilinuvchi makon jihatdan uzoq ekanini bildirganidek, uning ulug' martabali Zot ekaniga ham ishora qiladi.

yuklamasi faqat marsiyalarda, motam kayfiyatini ifodalashda qo'llanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. «Xabar» atamasiga izoh bering.
2. Xabarning qanday turlari mavjud?
3. «Insho» atama sifatida qanday ma'noga ega?
4. Inshoning turlarini aniqlang.

2.3. Qasr, fasl va vasi

Dars rejasи:

1. Qasr.
2. Fasl va vasi.

Tayanch iboralar: qasr, sifat-mavsuf, mavsuf-sifat, qalb, ifrod, ta'yin, vasi, fasl.

1. **Qasr.** Ma'oniy ilmida o'rganiladigan usullardan biri «qasr» deb ataladi¹.

قصر so'zi «chegaralash, qisqartirish, kaltalatish, chek (chevara)» va «hibs» kabi lug'aviy ma'nolarga ega. Uning istilohiy ma'nosini bir

¹ حامد عوني. المنهاج الواضح للبلاغة. الجزء الثاني. دار الكتاب العربي: بمصر. 1953. ص. 108-89.

narsani boshqa bir narsaga xoslashtirish, ya'ni tegishli qilish¹. Masalan: ما يفوز إلا المُجْد (Faqat g'ayrat qilgandan boshqa(si) g'alabaga erishmaydi (Faqat g'ayrat qilgangina g'alabaga erishadi) jumlasida g'alaba boshqa kimsaga emas, faqat g'ayrat qilganga tegishli bo'lishi ifodalangan, ya'ni bir narsa (g'alaba) boshqa narsa (g'ayrat qilgan)-ga xos bo'lgan. Bu qasr bo'lib, unda birinchi narsa, ya'ni xoslik (g'alaba) maqsur, ikkinchi narsa, ya'ni xoslik egasi (g'ayrat qilgan) maqsur alayh deb nomlanuvchi tarkibiy qismlar ishtirot etadi.

Qasr bir necha jihatdan o'rganiladi: 1) mutakallim, ya'ni so'zlovchining maqsadiga ko'ra; 2) maqsur, ya'ni xoslikning holatiga ko'ra; 3) muxotob, ya'ni tinglovchining holatiga ko'ra; 4) qasrda xoslashtirish yo'llariga ko'ra².

1. Qasr mutakallim, ya'ni so'zlovchining maqsadiga ko'ra haqiqiy va izofiy deb ataluvchi turlarga bo'linadi³. Masalan: ما شاعر إلا قواد (Odamlar orasida Fuaddan boshqa shoir yo'q).

Keltirilgan misolda so'zlovchi shoirlilik xususiyatini faqat Fuadga xos deb bilmoqda. Lekin vogelikdagi holat ikki xil bo'lishi mumkin: birinchisi, haqiqatan, odamlar orasida boshqa shoir yo'q, u holda bu xoslash haqiqatga mos keladi va u haqiqiy qasr deyiladi. Ikkinchisi, haqiqatda boshqa shoirlar bor, lekin ular shoirlikda Fuadning darajasida emas, bu iddio'iy haqiqiy qasr deb nomlanadi. Bu ta'bir vogelikka mos kelmaydi, lekin u so'zlovchining ta'kidi, ya'ni iddi'osi va go'yo Fuaddan boshqa shoirlar yo'q, deb faraz qilishidir. Bunday hollarda, ya'ni aslida bor, lekin yo'q deb hisoblangan narsalarga nisbatan ular فِي حُكْمِ الْمَعْدُومِ (yo'qlik hukmida) deyiladi⁴. Iddio'iy haqiqiy qasrga misol tariqasida quyidagi bayt ham keltiriladi:

لا سيف إلا ذو الفقار و لا فقى إلا على (Zulfaqordan boshqa qilich, Aliydan boshqa yigit yo'q). Baytdagi ikkala qasr haqiqiy iddio'iy, ularda ma'lum bir vaziyatda zulfaqordan boshqa qilichlar va Aliydan boshqa yigitlar yo'q deb faraz qilingan.

Qasrning boshqa turi izofiy qasrdir. Unda maqsur maqsur

¹أحمد محمد الحجار. الإفصاح عن ماضية الإضاح من مباحث البيان. دار الاتحاد العربي للطباعة. القاهرة. ص. 5. 1973

²على جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعانى. البیدع. القاهرة. 1999. ص. 217.

³حامد عونى. المرجع السابق. ص. 90؛ على جارم، مصطفى أمين. المرجع السابق. ص. 219.

⁴حامد عونى. المرجع السابق. ص. 90.

alayhga xos qilinganda, boshqa bir muayyan narsaga nisbat qilinadi. Nisbat qilinayotgan narsada o'sha xususiyat bo'lmaydi. Masalan: ما شاعر إلا فواد (Faqat Fuad shoir, masalan, Aliy emas). Maqsad shoirlilik xususiyatini Aliyga tegishli qilmay, faqat Fuadga xos qilishdir. Bunday qasrda muayyan bir narsa qo'shilgani uchun u izofiy deyiladi.

2. Qasr maqsur, ya'ni xoslikning holatiga ko'ra ikki xil bo'ladi¹: **sifat-mavsuf** (sifat-sifatlanuvchi), **mavsuf-sifat** (sifatlanuvchi-sifat). Masalan: ما شاعر إلا محمد (Faqat Muhammad shoir, boshqalar emas). Bu misolda shoirlilik sifati bilan aynan Muhammad vaf qilinyapti, ya'ni shoirlilik sifat, Muhammad mavsuf (sifatlanuvchi). Bunday hollarda arabcha jumlada, avval sifat, so'ngra mavsuf keladi va aytilgan sifat faqat ko'rsatilgan sifatlanuvchiga xos ekanini bildiradi.

Mana bu misolda esa, avval mavsuf Muhammad, so'ngra sifat shoirlilik kelgan: ما محمد إلا شاعر (Muhammad faqat shoir, ya'ni unga boshqa sifat xos emas). Qasrning bu kabi mavsuf-sifat holatida bo'lishi ko'rsatilgan sifatlanuvchi faqat aytilgan sifatgagina ega ekanini anglatadi.

3. Qasrning muxotob, ya'ni tinglovchining holatiga ko'ra **qalb**, **ifrod** va **ta'yin**² deb ataluvchi turlari bo'ladi va bular faqat izofiy qasrga xos xususiyatlar hisoblanadi.

«Qalb» (قلب) so'zi «o'zgartirish, almashtirish» ma'nolariga ega. Qalb holati so'zlovchi ta'kidlagan fikrning aksiga ishongan kimsada ro'y beradi, masalan, لا جواد إلا على (Faqat Aliy himmatlidir) deyilganda tinglovchi Aliyni emas, Ahmadni himmatli deb bilar edi yoki على إلا جواد (Aliy faqat himmatlidir) deyilganda u Aliyni faqat jasur deb ishonar edi, so'zlovchining ma'lumotini olgach, o'z hukmini uning hukmiga almashtiradi.

«Ifrod» (إِفْرَادٌ) so'zi «ajratib olish, yakkalash» demakdir. Ifrod tinglovchi bir necha narsani bir narsaga tegishli deb hisoblaganda sodir bo'ladi, masalan, ما محمد إلا شاعر (Muhammad faqat shoir) fikriga qarshi Muhammadni shoirdan tashqari yozuvchi ham deb biladi yoki ما شاعر إلا محمد (Faqat Muhammad shoir) deganda,

¹حامد عونى. المنهاج الواضح للبلاغة. الجزء الثاني. دار الكتاب العربي بمصر. 1953. ص. 92.

²حامد عونى. المرجع السابق. ص. 93.

Muhammadan boshqani ham shoir deb biladi, lekin so'zlovchining ma'lumotiga mos ravishda ulardan birini ajratib oladi.

«Ta'yin»¹ so'zi «aniqlash, tayinlash» ma'nolarini bildiradi. Ta'yin tinglovchi maqsur yoki maqsur alayh uchun ikki narsadan birini tanlay olmay qolganda sodir bo'ladi. Masalan, إِذْ خَلَدَ مَا ذُكِرَ (Xoliddan aqlligi yo'q) deganda, tinglovchi Xolid va Bakrning qay biri aqlli ekani borasida ikkilanib turgan bo'lsa, yoki (Xolid faqat yozuvchi) deganda, uning yozuvchi yoki shoirligi xususida aniq qarorga kela olmayotgan bo'lsa, so'zlovchining xabari sababli ulardan birini ta'yin qiladi.

Xulosa shuki, qasr balog'at ilmining ma'oniy bo'limiga kiritilgan. U maqsur va maqsur alayh deb atalgan tarkibiy qismlardan iborat. Qasrdan so'zlovchining maqsadi, xoslikning holati, tinglovchining holati va xoslashtirish yo'llari e'tiborga olinadi va ular o'z navbatida turlarga bo'lib o'rganiladi.

2. Fasl va vasl. Ketma-ket kelgan ikki jumlaning ikkinchisi avvalgisiga ba'zan ma'no jihatdan bog'langan (mavsl), ba'zan bog'lanmagan (mafsul) holatda bo'lishi mumkin. Fasl va vasl balig' usullardan hisoblanadi. Jumlalarning o'rnnini bilish, lozim bo'lganda bog'lovchilarni qo'yish yoki keraksiz o'rinda qo'ymaslik balig' jumla tuzishning shartlariga kiradi².

Fasl va vaslning balog'at doirasidagi ta'riflari shunday:

الوصل: عطف جملة على أخرى بالواو.

Vasl bir jumlanı boshqasiga orgali bog'lash.

الفصل: الإتيان بالجملة الثانية بدون العطف.

Fasl ikkinchi gapni bog'lovchisiz keltirish.

Vaslga misol: يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا اتَّقُوا اللَّهَ وَكُوئُنُوا مَعَ الصَّادِقِينَ [Ey iymon keltirganlar, Allohga taqvo qilinglar va sodiqlar ila birga bo'linglar (MS 9/119)].

Faslga misol: ادْفُعْ بِالْيَتَمَةِ وَلَا تَشْتُقْيِ الْحَسَنَةَ وَلَا السَّيِّئَةَ [Yaxshilik bilan yomonlik barobar bo'lmash. Sen yaxshilik bo'lgan narsa ila daf qil (MS 41/34)].

Ma'oniy olimlari vaslga faqat «va» bog'lovchisini unda «mutloq birlgilik va sheriklik» ma'nolari bor bo'lgani uchun kirtiganlar².

¹ Bu faslga asos bo'lgan manba: أحمد هاشمي، جواهر في المعاني والبيان والبيع. بيروت-لبنان. 2004 ص. 224-215

² على حرام، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعاني. البيع. القاهرة. 1999. ص. 228

Vasl usulida ikki jumla, orgali ham shakl, ham ma'no jihatdan bog'lab, birlashtiriladi. Bunda ikki jumla ma'nosiga ko'ra o'zaro mos bo'lishi (masalan, يكتب يقرأ yoki zid bo'lishi) يكتب يضحك (yekki - يضحك) mumkin.¹ Ba'zi olimlar bu holatning birinchisini haqiqiy, ikkinchisini zehniy jamlanish deb ataganlar.²

Fasl usulida ikki jumlaning har biri shakl va ma'no jihatdan yaxlit bo'lgani yoki bir-biriga aloqasi bo'Imagani sababli bog'lanmaydi.

Vasl usulini qo'llashning uchta o'rni bor:

1. Xabar va insho jumlalar lafz va ma'no yoki faqat ma'no jihatdan mos kelishi, ularni ayiradigan sabab bo'imasligi kerak, ular orasidagi ma'no bog'lanishi to'liq bo'lishi lozim. Masalan, har ikkalasi ham xabar bo'lgan jumla:

[Albatta, yaxshilar jannatadir. إنَّ الْأَنْبَارَ لَفِي نَعِيمٍ وَإِنَّ الْجَنَّارَ لَفِي جَنَاحٍ]

Va albatta, fojirlar jahannamadir (MS 82/13-14)], xabar-ta'kid jumlalar.

Har ikkalasi ham insho bo'lgan jumla:

[Va Allohga ibodat qilinglar va Unga hech narsani shirk keltirmanglar (MS 4/36)], buyruq jumlalar.

Biri xabar, boshqasi insho bo'lgan jumla:

[إِنِّي أَشْهُدُ اللَّهَ وَأَشْهُدُو أَنِّي بَرِيءٌ مِمَّا تُشَرِّكُونَ] Albatta, men Allohnin guvoh qilaman va siz ham guvoh bo'lingki, men sherik keltirayotganidan pokman (MS 11/54)], xabar-ta'kid va insho buyruq jumla.

2. Xabar va insho jumlalar ixtilofli bo'lib, maqsad qilinmagan tasavvurni hosil qilsa, ana shu noto'g'ri tasavvurni yo'qotish kerak bo'ladi. Masalan: inkor javob berilganda, هل بريء على من المرض؟ (Ali kasaldan tuzaldimi,) savoliga ash'ash [Yo'q, Allohnning shifosi (bo'lsin)] javobi o'zidan keyin kelgan duodan ajratilmasa, tinglovchida noto'g'ri tasavvur hosil qiladi, ya'ni «va» so'zi qo'llanmasa «bo'lsin» ma'nosи «bo'lmashin» tarzida qabul qilinishi ehtimoli bor. Shuning uchun bunday hollarda vasl zarur bo'ladi.

3. Birinchi jumla biror sintaktik vazifani bajarishi (محل من)، ikkinchi jumla ham shu vazifada unga monesiz sherik (الاعراب)، ikkinchi jumla ham shu vazifada unga monesiz sherik

¹ أحمد هاشمي، جواهر في المعاني والبيان والبيع. بيروت-لبنان. 2004

² http://www.alshirazi.com/compilations/lals/balagh/part1/8.htm

bo'lishi lozim. Masalan: (Ali o'qiydi va amalga oshiradi), bu jumlada يقول على بقول على (unten raf' holatida turgan xabari, shuningdek, jumlesi ham mubtadoga nisbatan raf' holatida turgan ikkinchi xabar va u shu jihat bilan بقول يقول على jumlesi bilan vazifadosh hisoblanadi, shuning uchun unga «va» orqali bog'langan.

Fasl usuli beshta o'rinda qo'llanadi¹:

1. (kamālu-l-ittiṣāl). Ikki jumla ma'no jihatdan xuddi bir qolipa shakllangandek, o'xhash bo'ladi, bir-biriga to'liq mos bo'ladi; ikkinchisi birinchisining bayoni bo'ladi; ikkinchisi birinchisini ta'kidlab keladi. Abuttoyyib she'riyatidan olingan quyidagi misralarda ikkinchi jumla birinchisini ta'kidlab kelyapti, ular ma'no jihatdan teng²:

وَمَا الْهُرُّ إِلَّا مِنْ رُوَاحٍ قَصَادِيٍّ إِذَا قَلَّ شِعْرًا أَصْبَحَ الْهُرُّ مُشَبِّدًا

(Dahr qasidalarim rivoyatchisidan boshqa narsa emas, agar she'r aytsam, dahr qo'shiqchiga aylanadi).

2. (kamālu-l-inqīṭā'). To'liq ixtilosli jumlalar. Ixtilos xabar va insho orqali, lafz va ma'no jihatdan yoki faqat ma'no jihatdan bo'ladi. Abul Alodan misol³:

النَّاسُ لِلنَّاسِ مِنْ بَدْوٍ وَحَاضِرٍ بَعْضٌ لَبَعْضٍ وَإِنْ لَمْ يَشْعُرُوا حَذَّمٌ

(Agar xizmat qiluvchilar bir-birlarini his qilmayotgan bo'lsalar, sahroyu shaharlardagi insonlar insonlar uchundir, ya'ni shoir, odamlar bir-birlarini qo'llab yashashlari kerak, har kim o'z holicha emas, demoqchi).

3. (šibha kamāli-l-ittiṣāl). Ikkinchi jumla birinchisi qattiq bog'langan bo'ladi. Masalan: وَمَا أَبْرَىٰ نَفْسِيٍّ إِنَّ النَّفْسَ لِأَمَارَةٍ بِالسُّوءِ [Va o'z nafsimni oqlamayman. Albatta, nafs... yomonlikka ko'p undovchidir⁴ (MS 12/53)].

4. (šibha kamāli-l-inqīṭā'). Birinchi va ikkinchi jumlalar orasida ularga mone'lik qiladigan uchinchi jumla bo'ladi.

¹ احمد هاشمي، جواهر في المعانى والبيان والدين، بيروت-لبنان، 2004. ص. 224.

² على جارم، مصطفى أمين، البلاغة الواضحة، البيان، المعانى، الدين، القاهرة، 1999. ص. 227.

³ على جارم، مصطفى أمين، المرجع السابق، ص. 227.

⁴ Мухаммад Содик Мухаммад Йосуф. Куръони Карим маънолари таржимаси.
http://www.quron.uz/tarjima/surah.php?surah_id=12

Agar u bilan birinchisi orasiga bog'lovchi qo'yilsa, ma'no o'zgarishga uchraydi. Masalan:

وَإِذَا خَلَوْا إِلَىٰ شَيَاطِينِهِمْ قَالُوا إِنَّا مَعْنَىٰ مُسْتَهْزِئُونَ، اللَّهُ يَسْتَهْزِئُ بِهِمْ وَيَقْذِفُهُمْ [shaytonlari bilan holi qolganda esa, biz sizlar bilanmiz, faqat istehzo qilyapmiz xolos, deydilar. Allah ularni istehzo qiladi va tug'yonlarida dovdirashlariga qo'yib beradi (MS 2/14-15 oyat)]. Bu misolda jumlalardan yoki «**قَالُوا**» «**اللَّهُ يَسْتَهْزِئُ بِهِمْ**» «**أَنَا مَعْكُنٌ**» bog'lovchi bilan bog'lashga olmaydi.

5. (at-tawassuṭ bayna kamālayni ma'a qiyāmi-l-māni'). Jumlalar orasida moslik va bog'lanish bo'ladi. Lekin bog'lovchi bilan bog'lashga monelik bo'ladi.

[U zot: «Ey Nuh, albatta u (o'g'il) ahlingdan emas. Albatta, u yaxshi amal emasdир (MS 11/46)].

Demak, vasl va fasl qo'shma gaplarga nisbatan qo'llanadigan usullardir. Vaslning shakllanishida teng bog'lovchi «va» qo'llanadi. U jumlalar ma'no jihatdan to'liq bog'langanda, xabar va insho jumlalar ixtilosli bo'lganda, birinchi jumla ikkinchi jumлага sintaktik jihatdan vazifadosh bo'lganda qo'llanadi va jumlalarning shakl va ma'no jihatdan bog'lanishiga xizmat qiladi. Faslda jumlalarni biror leksik vosita orqali bog'lash mumkin emas. U ma'no jihatdan yaxlit yoki bir-biriga moslik va bog'langan jumlalar, ixtilosli jumlalar, keyingisi oldingisiga mustahkam bog'langan jumlalarga nisbatan qo'llanadi. Vasl va fasl ma'noni ketma-ket kelgan jumalar orqali maqsadga mos ravishda ifodalashda katta ahamiyatga ega.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. «Qasr»ning istilohiy ma'nosini aytинг.
2. Qasr mutakallim, ya'ni so'zlovchining maqsadiga ko'ra qanday turlari bor?
3. Qasrning muxotob, ya'ni tinglovchining holatiga ko'ra turlarini aniqlang.
4. Vasl usuli qanday o'rnlarda qo'llanadi?
5. Fasl usulining qanday qo'llanish o'rnlari mavjud?

2.4. Iyjoz

Dars rejasi:

1. Iyjoz va uning turlari.
2. Iyjozning qo'llanish o'rnlari.
3. Iyjozning qo'llanish sabablar.

Tayanch iboralar: kalom, iyjoz usuli, harf, sifat ism, musnad, jumla.

Balog'at olimlari biror ma'noni nutq orqali ifodalashda uni to'g'ri ta'bir qilish uchun uchta yo'ldan biri tanlanadi, deydar: المساواة (al-musawat). Ta'bir ma'no miqdoricha bo'ladi, ya'ni lafz miqdori shu ma'noning asliga teng keladi. (الإطناب) (al-itnab). Ma'noni ifodalash uchun ta'birning miqdori ma'noning miqdoridan ortiq bo'ladi. Bunda agar ta'bir ifoda uchun zarur bo'lgan miqdordan oshib ketsa, u aybga aylanadi. (الإيجاز) (al-iyjaz). Ko'p ma'no oz ta'bir bilan ifodalanadi.

1. Iyjoz va uning turlari. so'zining lug'aviy ma'nosini «qisqalik, ixchamlik, mo'jazlik». Istilohdagi ma'nosiga quyidagicha ta'rif beriladi:

الإيجاز: هو وضع المعاني الكثيرة في ألفاظ أقل منها، وافية بالعرض المقصود، مع الإبارة والإفصاح.¹

(Ko'p ma'noning kam so'zlar bilan, maqsadga mos ravishda, ochiq-oydin aytlishi. Masalan: أَلَا لِهُ الْخَلْقُ وَالْأَمْرُ [Ogoh bo'ling, yaratish va amr qilish uning O'ziga xosdir (MS 7/54)] yoki إنما إنما الأعماُن بالنُّيات (Haqiqatan, amallar niyatlar bilan) kabi qisqa oyat va hadislar o'zida keng ma'noni mujassam qilgan.

Ifoda qisqa bo'lib, ta'bir maqsadni ifodalamasa «ixlol», «o'rinsiz (yomon) hazf» deyiladi.

Iyjoz ikki qismga bo'linadi. Bular:

1. Qisqartirish evaziga amalga oshirilgan iyjoz, u balog'at iyjozi (إيجاز البلاغة) deb ham ataladi.
2. Tushirib qoldirish evaziga amalga oshirilgan iyjoz (إيجاز حذف).²

¹ 242. احمد هاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبيان والبعد. بيروت-لبنان. 2004. ص. 242

² 242. احمد هاشمي. المرجع السابق. ص. 246-242

Iyjazu-l-qisar yoki iyjazu-l-balaga hazf qilmagan holda kam so'zlar bilan ifodalangan ko'p ma'noni o'z ichiga oladi. Masalan: يـ جـمـاعـةـ لـمـ إـخـتـافـ (Kim ajralsa, jamoasiz qoladi)¹, keng ma'no oz so'zlar orqali ifodalangan.

Iyjazu hазf biror ibora tushib qoladi, bu hazf mahzuf (tushib qolgan narsa) borligida anglatgan narsani fahmlab olishga xalal bermaydigan bo'lishi kerak. Ahmad Hoshimiying ko'rsatishicha quyidagilar mahzuf bo'la oladi²:

1. Harf. Masalan: «Shirk keltiruvchi bo'limgan» dedi (MC 19/120) oyatidagi يـكـ مـاـسـالـانـ يـكـ so'zi aslida shaklidadir.

2. Mudof ism. Masalan: وَجَاهُهُوَا فِي اللَّهِ حَقٌّ جَهَادٌ [Va Alloh (yo'lida) haq jihod qilingiz (MS 22/78)]. في سبيل الله.

3. Mudof ilayh ism. Masalan: وَأَعْذَنَا مُوسَى تَلَاثَيْنِ لَيْلَةً وَأَتَمَّنَاهَا بِعَشْرِ [Va Muso bilan o'ttiz kechaga va'dalashdik. Keyin esa, uni o'n (kecha) bilan tugal qildik. (MS 7/142)]. عشر ليال.

4. Mavsuf ism. Masalan: كـمـ تـأـبـ وـعـمـ صـالـحـاـ [Kim tavba qilib, solih amal qilsa (MS 25/71)] عملاً صالحًا jumlasida (solih amalni) e'tiborga olingan.

5. Sifat ism. Masalan: فَزَانَهُمْ رِجْسًا إِلَى رِجْسِهِمْ [iflosliklari ustiga ifloslik ziyoda qildi (MS 9/125)], ya'ni (iflosliklari ustiga ifloslik qo'shib) ma'nosida tushunish kerak.

6. Shart. Masalan: فَأَتَبْعَوْنِي يُخْبِئُكُمُ اللَّهُ Menga ergashing. Alloh sizga muhabbat qiladi (MS 3/31)], ya'ni (agar menga ergashsangiz) tarzida tushuniladi.

7. Shartning javobi. Masalan: لـرـأـيـتـ أـمـراـ فـطـيـعاـ [Do'zax ustida to'xtatilganlarida...ko'rsang edi (MS 6/27)], ya'ni (dahshatli ishni ko'rар eding) javobi hazf qilingan.

8. Musnad. Masalan: وَلَئِنْ سَلَّهُمْ مـنْ خـلـقـ السـمـاـوـاتـ وـالـأـرـضـ لـيـقـولـ اللـهـ [Agar ulardan: «Osmonlaru yerni kim yaratgan?» deb so'rasang,

¹ Ходжаева Р. Мумтоз араб адабиёти жанрлари тизими ва типологияси. –Т., 2015. -Б. 28.

² احمد هاشمي. المرجع السابق. ص. 246-242

albatta, «Alloh», derlar. (MS 31/25) خلقهن الله [ularni Alloh yaratgan] tarzida tushuniladi.

9. Musnad ilayh. Masalan: كُلَّا إِذَا بَلَغْتَ التَّرَاقِيَّ [Yo‘q! Jon halqumga kelganda. (MS 75/26)], بلغت fe’lining egasi, ya’ni musnad ilayh (jon) so‘zi nazarda tutiladi.

10. Muta’allaq. Masalan: لَا يَسْأَلُ عَمَّا يَفْعَلُ وَهُمْ يَسْأَلُونَ [U qilgan narsasidan so‘ralmas. Holbuki, ular so‘ralurlar. (MS 21/23)] Jumla oxirida عما يفعلون (qilgan narsalari haqida) hazf qilingan.

11. Jumla. Masalan: كَانَ النَّاسُ أَمْةً وَاحِدَةً فَبَعَثَ اللَّهُ النَّبِيِّنَ [Odamlar bir millat edilar. Bas, Alloh Nabiylarni yubordi (MS 2/213) فاختفوا،] (ular kelisha olmadilar. Bas, Alloh...) nazarda tutilgan.

12. Jumlalar. Masalan: [Meni yuboring... فارسلوني إلى يوسف لاستعبره] (MS 12/45-46) «Yusuf, ey rostgo‘y zot...» [Meni Yusufning oldiga tushni ta‘bir qilib berishi uchun yuboringlar. U (yigit)ni u (Yusuf)ning oldiga yubordilar, u (yigit) bordi va unga (Yusufga) dedi: «Yusuf...»] jumlalari hazf qilingan.

2. **Iyozning qo‘llanish o‘rinlari.** Balog‘at olimlari iyozni quyidagi o‘rinlarda qo‘llanishini ta‘kidlaydilar:

1. Davlat rahbarlari (shohlar)ning viloyat hokimlari va xizmatchilariga nomalari. Ayniqsa urush, kulfat va krizis vaqtlarida.

2. Sultonlikning buyruq va qarorlari.

3. Sultonlarning soliq borasidagi talablari.

4. Tahdidlar.

5. Berilgan ne‘matlarga shukr.

6. Mehrtalab va norozilik holatlarida.

7. Go‘zal nazar va keng inoyat (e’tibor) so‘rash.

8. Uzr so‘rash, gunoh va shunga o‘xshashlar tuhmatidan xoli bo‘lish.

9. Yoru do‘stlar orasidagi munosabatlari.

10. Bir ishora kifoya qiladigan zukko kishilar bilan suhbatda.

11. Maqsad gapirilayotgan kishidan boshqalardan sir tutilsa va b.¹

عبد الرحمن حسن جبنكة الميداني. البلاغة العربية أنسها وعلومها وفنونها. 1996. بيروت. ص. 473
http://www.shamela.ws/

3. **Iyozning qo‘llanish sabablari.** Iyozning qo‘llanish sabablari ko‘p. Ixchamlikka erishish, yodlashni yengillashtirish, tez fahmlash, vaziyatni boshqalardan yashirish, kam so‘z bilan ko‘p ma‘no hosil qilish kabilar shular jumlasidandir.

Demak, iyoz hamdardlik, shikoyat, uzr, ta‘ziya, ta‘na, va‘da, tahdid, tanbeh, ne‘matga shukr ma‘nolarini ifodalashda, soliqlar, urush vaqtida podshohlarning hokimlar, amirlar va podshohlik nohiyalariga xabarlarini yozishda qulay usul hisoblanib kelgan. Grammatik jihatdan gapning biror bo‘lagini tushirib qoldirish orqali hosil qilinadi. Tushib qoladigan, ya’ni hazf bo‘ladigan bo‘lak harf (tovush), so‘z, birikma yoki qo‘shma gaplarda gap bo‘lishi mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Kalomning iyoz, itnob, musovot usullari balog‘at ilmining qaysi bo‘limida o‘rnagiladi?

2. Iyozning ta‘rifini ayting.

3. Iyozning qo‘llanish sabablarini aniqlang.

2.5. Itnob

Dars rejasি:

1. Itnob va uning turlari.

2. Itnobning qo‘llanish o‘rinlari.

3. Itnobning qo‘llanish sabablari.

Tayanch iboralar: kalom, itnob usuli, takrir, iyg‘ol.

1. **Itnob va uning turlari.** Olimlar itnobga shunday ta‘rif beradilar:

الإطناب: زيادة النّفظ على المعنى لفائدة. أو هو تأكيد المعنى بعبارة زائدة لفائدة تقويته و توكيدته.¹

Itnob ma‘noni ifodalash uchun lafzni ko‘paytirishdir. Yoki kuchaytiruv va ta‘kidni ifodalash uchun ma‘noni qo‘shimcha iboralar orqali yetkazishdir. Masalan: رب إني و هن العظيم مثني وأشتعل [Ey Rabbim, darhaqiqat, mening suyaklarim mo‘rtlashdi, keksalikdan boshim (sochim) oqardi (MS 19/4)], ya’ni كبرت هاشمي. جواهر في المعانى و البيان و الندب. بيروت-لبنان. 2004. ص. 246

(ulg‘aydim, qaridim) ma’nosida.

Itnob quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Umumdan so‘ng maxsusni zikr qilish. Masalan: حافظوا على الصّلوات والصلوة الوُسْطَى [Namozlarni va o‘rta namozni muhofaza eting. (MS 2/238)], umuman namoz haqida gapirilib, keyin aynan bir namoz, o‘rta namoz (ast namozi) maxsus zikr qilindi.

2. Maxsusdan keyin umumni zikr qilish. Masalan: رب اغفِر لِي وَلِوَالدِّي وَلِمَنْ تَخْلَى بَيْتِي مُؤْمِنًا وَلِلْمُؤْمِنِينَ وَالْمُؤْمَنَاتِ [Rabbim, meni, otanonamni, uyimga mo‘min holda kirgan kishilarni va barcha mo‘minlaru mo‘minalarni mag‘firat etgin (MS 71/28-oyat)], avval maxsus birliklar zikr qilindi, so‘ngra e’tibor ularni umumlashtiruvchi «وَلِلْمُؤْمِنِينَ وَالْمُؤْمَنَاتِ» umumga qaratildi.

3. Mubohdan so‘ng izoh berish. Bunda ma’no tinglovchining zehniga o‘rnashishi uchun birinchi marta ibhom (aniq bo‘limgan) yo‘li bilan, ikkinchi marta tafsil va izoh (tafsilotlari bilan yoritish) yo‘li orqali zikr qilinadi¹. Masalan: وَقَصَّنَا إِلَيْهِ ذَلِكَ الْأَمْرُ أَنْ دَأْبَرَ هُؤُلَاءِ [Va unga ushbu amrni vahiy qildik: «Albatta, anavilarning orqasi subh chog‘i kesilajakdir» (MS 15/66)], misolda «amr» avval zikr qilindi, so‘ngra ularning aynan qanday «amr» ekani tafsiloti bilan aniqlashtirildi.

4. «ip yigirish» ma’nosiga ega. Bu haqda Atoulloh Husayniy shunday deydi: «Tavshi’ lug‘atta savalg‘an paxtani o‘ramoqtur va atash vajhi uldurkim, o‘ralgani sabablig‘ savalg‘an paxta sochilib ketmakin saqlang‘ani kabi ikkilang‘an lafz ham eshitkuchining xotirida yuz bermagi mumkin bo‘lg‘an turli ehtimollardin tafsir tufayli saqlanur»².

Tavshi’da ikkilikda kelgan ismning tafsiri kalom oxirida bir-biriga bog‘langan ikki ism bilan keltiriladi³. Masalan: عليهِم بالشَّفَائِنِ (Sizning (davoingiz) ikki shifo orqali: asal va Qur‘on).

Shuningdek, tavsi’da yana «ko‘plikda kelgan ismning tafsiri

¹ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадиийу-саноий. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. –Т.: Г.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 170.

² Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Ўша манба. –Б. 170.

³ احمد هاشمی. جواهر فی المعانی و البیان و البیان و البیان. بیروت-لبنان. 2004. ص. 249.

kalom oxirida bir-biriga bog‘langan ko‘p ismlar bilan keltiriladi¹. (إن في فلان ثلاثة حصائل حمية الكرم والشجاعة والحمل: Haqqiqatan, falonchida maqtovlis hislatlar bor sahiylik, shijoat va mehribonlik).

5. (Takrir). Bir narsani ikki yoki undan ortiq marta takrorlash. Bu quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- (ma‘noni ta‘kidlash va mustahkamlash), masalan: كُلًا سُوفَ تَعْلَمُونَ * ثُمَّ كُلًا سُوفَ تَعْلَمُونَ [Yo‘q! Sizlar tezda bilasizlar. Yana yo‘q! Sizlar tezda bilasizlar (MS 102/3-4)].

- (tülü-l-faşl), ajratib olingen bo‘lakning ravon bog‘lanishini ta‘minlash, masalan: يَا أَبَتِ إِنِّي رَأَيْتُ أَحَدَ عَشَرَ كُوكَبًا وَالشَّمْسَنَ وَالْمَوْمَنَاتِ [Ey otajonim, men o‘n bitta yulduzni ham vaqfer Räitetüm li Sajđidin quyosh va oyni ko‘rdim, ularning menga sajda qilayotganlarini ko‘rdim (MS 12/4)], «رَأَيْتُ» «رَأَيْتَ»

- (qasdu-l-‘istī‘āb), ya’ni «borini qamrab olmoq» masalan: قرأت الكتاب ببابا وبابا: (Kitobni bobma-bob o‘qidim), ya’ni uni «so‘zma-so‘z anglab oldim» ma’nosida.

- (ziyādatu-t-targīb fi-l-‘afw), avf qilishga rag‘batni kuchaytirish, masalan: إِنَّ مِنْ أَرْوَاحِكُمْ وَأَوْلَادِكُمْ عَذْوَلَةً فَأَخْذُرُوهُمْ [Albatta, justlaringizdan va bolalaringizdan sizga dushman bor, bas, ulardan hazir bo‘ling. Va agar afv etsangiz, ko‘ngilga olmasangiz va ayclarini kechirsangiz, bas, albatta, Alloh kechiruvchi va rahmdil zotdir (MS 64/14)].

- (tarġīb), xitob qiluvchining o‘z nasihatini unga moyil bo‘lib qabul qilishga rag‘batlantirish, masalan: وَقَالَ الَّذِي آمَنَ يَا قَوْمَ يَا قَوْمَ إِنَّمَا هَذِهِ الْحَيَاةُ الدُّنْيَا مَتَاعٌ وَإِنَّ الْآخِرَةَ هِيَ ذَارُ الْقَرَارِ * اتَّبِعُونَ أَهْدِكُمْ سَبِيلَ الرَّشَادِ [Ilymon keltirgan kishi: «Ey qavmim, menga ergashinglar, sizni to‘g‘ri yo‘lga hidoyat qilaman. Ey qavmim, bu dunyo hayoti vaqtinchalik bir matoh, xolos. (MS 40/38-39)], يَا قَوْمَ ning tarkrolanishida ularning qalbida moyillik tug‘dirish bor.

- (muxotobning sha’nini ko‘tarish), masalan: إِنَّ الْكَرِيمَ أَبْنَ الْكَرِيمِ يُوسُفَ بْنَ إِبْرَاهِيمَ (Yusuf alayhissalomga nisbatan aytilgan).

- (tardīd). Kalomda lafz takrorlanganda, uni birinchi marta taalluqli bo‘lgan narsadan boshqasiga taalluqli bo‘lgan holda takrorlash, masalan: السُّخِيُّ قَرِيبٌ مِنَ اللَّهِ، قَرِيبٌ مِنَ النَّاسِ، قَرِيبٌ مِنَ الْجَنَّةِ. وَ

(الخبل بعيد من الله، بعيد من الناس، بعيد من الجنة.) Saxy Allohgaya yaqin, odamlarga yaqin, jannatga yaqin. Baxil Allohdan yiroq, odamlardan yiroq, jannatdan yiroq.)

- (al-irshad). Eng munosib yo'l bilan ko'rsatma berish, masalan: [أولى لك فائزٍ ثم أولى لك فائِلٍ] [Holingga voy bo'lsin sening, voy bo'lsin! Yana holingga voy bo'lsin sening, voy bo'lsin!] (MS 75/34-35)]

6. (al-i'tirād). Bu haqda Atoulloh Husayniy Sakkokiyning fikrini keltiradi: «ul andin iboratturkim, kalomg'a bir nimani kiriturlarkim, maqsaddag'i ma'no onsiz tugal bo'lur.» Yana u Taftazoniydan shunday deydi: «bu qavl ani anglaturkim, kiritma bir kalom davomida bo'lmosg'i mumkindur va ma'no jihatidin birbirig'a bog'liq ikki kalom orasida ham kelmagi mumkindur. Kalomg'a kiritilg'an nima bir jumla bo'lmosg'i mumkindurkim, anda turlanishga o'rın bo'limg'ay va jumladin o'zgasi ham bo'limg'i mumkindur¹. Bu kiritmalar quyidagi ma'nolarga ega bo'lishi mumkin:

- الدوّاع - (duo), masalan: (Men Alloh seni asrasin kasalman). Kiritma «حفظك الله مريض» gapning o'rtasida kelgan mustaqil gapdan iborat.

- (ilmning fazilatini ko'rsatish). Masalan:

وَاغْلُمْ فِيْلَمَ الْمَرْءَ يَنْفَعُهُ أَنْ سَوْفَ يَأْتِيَ كُلُّ مَا فَدَرَأَ

(Bilginki, arning ilmi manfaat beradi, belgilangan barcha narsalar kelganda). Kiritma «أن سَوْفَ يَأْتِيَ كُلُّ مَا فَدَرَأَ» gapning oxirida kelgan mustaqil gapdan iborat.

- (at-tanzih), ya'ni poklash masalan, [بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ] Ular qizlarni Allohniki qilishadi. U (bundan) pokdir. Ularga esa, ko'ngillari tusagani (emish) (MS 16/57)], bu yerda kiritma «سبحانه» [U (bundan) pokdir] gapi.

- (za'idah ta'kid). [وَصَيَّّنَ الْإِنْسَانَ بِوَالدِّينِ حَمَلَةً أَمَّةً وَهُنَّا] (ta'kid) Biz insonga ota-onasi haqida tavsiya qildik: onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan ko'tardi; uni suttan ajratish ikki yil ichidadir: «Menga va ota-onaga shukr qilgin. Va qaytish faqat Mengadir» (MS 31/14)]. Kiritma

¹ Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ-с-саноий. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 164.

«حَمَلَةً أَمَّةً وَهُنَّا عَلَى وَهْنٍ وَفَصَالَةً فِيْعَامِنْ» gapning o'rtasida kelgan mustaqil gapdan iborat.

- (al-isti'ṭāf). Muhabbatda hamdard izlash, masalan:

وَخُوفِقَ قَلْبُ نُورَأَيْتَ لَهُبِّهِ يَا جَنْتِي لَرَأَيْتَ فِيْجَهَنَّمَا

(Yurak urishi bilan qasamki, agar uning otashiga qarasang, ey jannatim, jahannamni ko'rasan). Kiritma ya gapning o'rtasida kelgan undalma.

- (tahwīl), ya'ni qo'rqtish, masalan: [لَنْ «أَلْبَاتَا، اغْلُمْ فِيْلَمَ عَظِيمٌ»] [Albatta, agar bilsangiz, bu ulug' qasamdir (MS 56/76)]. Kiritma يَا قَوْمَ اتَّبَعُوا الْمَرْسَلِينَ * اتَّبَعُوا مِنْ لَا يَسْأَلُوكُمْ أَجْزَاءً وَهُنْ مُهَدَّدُونَ gapı.

7. (iyğāl). (أوغل). (Iyğāl) (chuqur ketmoq, chuqurga olib bormoq) fe'lining masdari. Iyg'olning istilohiy ma'nosii haqida Atoulloh Husayniy: «Alloma deptur: ul andin iboratturkim, bayt yoki nasr bo'lagining maqtaida aning oldidagi mubolag'ani orttirish yoki mubolag'ani tugallash uchun o'zga bir vasfni keltiruriar²», deydi. Masalan: يَا قَوْمَ اتَّبَعُوا الْمَرْسَلِينَ * اتَّبَعُوا مِنْ لَا يَسْأَلُوكُمْ أَجْزَاءً وَهُنْ مُهَدَّدُونَ [Ey qavmim, yuborilgan Payg'ambarlarga ergashing! Sizdan ajr-haq so'ramaydigan, o'zlar hidoyatda bo'lgan shaxslarga ergashing! (MS 36/20-21)], bu misolda iyğ'ol (o'zlar hidoyatda bo'lganlar).

8. تذليل (Tazyīl). so'zining lug'aviy ma'nosii «tugatmoq, to'ldirmoq, oxiriga qo'shmoq, xotima so'z aytmoq». Istilohda jumladan keyin kelib, uni ta'kidlash ma'nosiga ega bo'lgan boshqa bir mustaqil jumлага aytildi.

Tazyil ikki turli bo'ladi:

a) mustaqil ma'noga ega bo'lgan, masal berilgan tarzda beriladi³, masalan: [ذَلِكَ جَزِئَاهُمْ بِمَا كَفَرُواْ وَهُنَّ نَجَازِي إِلَّا الْكُفُورُ] Ularni noshukrlilik qilganlari uchun ana shundoq jazoladik. Biz faqat o'ta noshukrlargagina jazo berurmiz (MS 34/17);

b) mustaqil ma'noga ega bo'limgan, masal keltirilgan tarzda keltirilmaydi, masalan: [أَفَلَمْ يَرَوْا مِنْ قَبْلِكُمْ الْخَلَدُونَ مِنْ أَهْلِ فَهْمٍ الْخَلَدُونَ] Agar [Sendan oldin ham biror basharga abadiylikni qilganimiz yo'q. Agar sen مِنْ فَهْمٍ «أَفَلَمْ يَرَوْا مِنْ قَبْلِكُمْ الْخَلَدُونَ?] ular abadiy qolar ekanlarmi? (MS 21/34)]

¹ أحمد هاشمي. جواهر في المعاني والبيان والدبيع. بيروت-لبنان. 2004. ص. 251.

² Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ-с-саноий. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 156.

³ أحمد هاشمي. المرجع السابق. ص. 252.

«الْخَلْفُونَ» (Agar sen o'lsang, ular abadiy qolar ekanlarmi?) jumlesi tazyildir.

9. احتراس (Ixtilâs). (ehtiyot bo'lmoq, ogoh bo'lmoq, saqlanmoq) fe'lining masdaridir. U «تكميل» (takmil) deb ham ataladi. Ularning istilohiy ma'nosi: ifoda etilgan tasavvur maqsadga xilof bo'lgan kalomda ikkilanishni yo'q qiladigan bir narsa zikr qilinadi, u kalom o'rtasida ham keladi. Masalan:

سقى ديارك غير مفسدتها صوب الربيع وديمة تهمي

(Bulut sharros quyib, bahor yomg'iri yurtlaringni, vayron qilmay, sug'ordi), misoldagisi iborasi ixtirosdir.

10. تتميم (Tatmîm). (Tatmîm). so'zimma تَمَمْ (tugatmoq, yakunlamoq; qo'shimcha qilmoq, to'ldirmoq) fe'lining masdari. Atoulloh Husayniy tatnim haqida aytadi: ««Talxis» sohibi... deptur: ul andin iboratturkim, ifoda maqsadqa xilof bo'limg'an kalomda nukta uchun ortiqcha bir nimani keltirurlar... «ortiqcha»din murod uldirkam, ul kalomning asosiy bo'lagi bo'lmas va mustaqil jumla ham bo'lmas»¹.

Tatmimiga yana shunday ta'rif beriladi: u «maf'ul, hol, tamyiz, jar-majrur kabi ikkinchi darajali bo'laklar qo'shish. Ular ma'noga husn bag'ishlaydi, agar olib tashlansa, kalom to'mtoq bo'lib qoladi»².

Masalan:

وَيُطْعِمُونَ الطَّعَامَ عَلَى حَبَّهِ مِنْكُنَا وَبَيْتِنَا وَأَسِيرًا * إِنَّمَا نُطْعِمُكُمْ لِوَجْهِ اللَّهِ لَا تُرِيدُونَ [O'zları taomni yaxshi ko'rib tursalar ham, uni miskin, yetim va asirga berarlar. «Albatta, Biz sizlarni faqat Allohning roziligi uchun ovqatlantiramiz. Buning evaziga sizlardan mukofot yoki tashukkur xohlamasiz (MS 76/8-9)], (yaxshi ko'rib tursalar ham) iborasi mubolag'a uchun tatimidir.

2. Itnobning qo'llanish o'rirlari. Adiblar va olimlar itnob usulini qo'llash quyidagi holatlarda o'rinali deb hisoblaydilar:

1. Intellektual masalalarga oid muammolarda ishontirishga, tushunish qiyin bo'lgan fanlarning nozik masalalarini o'rgatishda.

¹ Атоуллох Хусайнин. Бадойиу-с-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. -Т.: F.Улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. -Б. 162-163.

² احمد هاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبيان والدين. بيروت-لبنان. 2004. ص. 254-253.

2. Rag'bat va tanbeh va'zlarida, maqtov aytish, tanbeh berish, masal, qissalar aytishda.

3. Tashabbuskorlikka chaqiruvchi xutbalarda, muhabbat, nafrat, mammuniyat tuyg'ularini uyg'otishda, g'azabni qo'zg'ashda qo'llanishi o'rinali bo'ladi, chunki bular his-tuyg'ularga ta'sir qilib, ularni uyg'otishi uchun keng va mufassal bayonni talab qiladi.

4. Tarixni yozish va voqeа-hodisalarни qayd etishda.

5. Xusumatli taraflar orasida ularni yarashtirish, kelishmov-chilikni bartaraf qilish uchun sullh tuzishga chaqiruvchi xutbalarda.

6. Oshiqlarning tuyg'ulari va zavqu shavqlarini ifodalashda.

7. Dardu alam tuyg'ularini ifodalashda.

8. Oldi-sotti, kredit kabilarda shartnomalar yozishda¹.

3. Itnobning qo'llanish sababları. Itnobning qo'llanish sababları ko'p:

- ma'noni mustahkamlash;

- maqsadni yoritish;

- ta'kid;

- shubhani yo'qotish va boshqalar.

Shulardan kelib chiqib itnob qabilalar o'rtasida sulh tuzish, hamdu sano qilish, ayblash, hajv qilish, va'z-nasihat qilish, ommaviy ishlarga ko'rsatma berish, xutba o'qish, salomlashish, hokimlarning davlat rahbarlariga o'z boshqaruvalaridagi hodisalar haqidagi xabarlarida qo'llanib kelmoqda deyish mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Itnobning qanday turlari mavjud?

2. Itnob qanday o'rinalarda qo'llanadi?

3. Itnobning qo'llanish sabablarini aniqlang.

عبد الرحمن حسن جبنكة الميداني. البلاغة العربية أنسها وعلومها وفنونها. بيروت. 1996
¹ http://www.shamela.ws
1/474-1/473

2.6. Musovot

Dars rejası:

1. Musovot va uning turlari.
2. Musovotning qo'llanish o'rnlari.

Tayanch iboralar: kalom, musovot usuli, shartnomalar, qaror, farmon.

1. Musovot va uning turlari. Ma'nuning unga mos miqdordagi iboralar bilan ifodalanishi. Masalan: ﷺ (o'zingiz uchun qilgan yaxshiliklarni Allohning huzurida topasiz (MS 2/110)], bunday jumlalarni qisqartirib ham, ko'paytirib ham bo'lmaydi, aks holda ma'noga zarar bo'ladi.

Sakkokiy musovot uchun ta'rif keltirmagan. Ayrim olimlarning fikricha olim musovotni oddiy doiralarga xos bo'lgani uchun alohida fazilati bor deb hisoblamagan, maqtamagan ham, ayblamagan ham¹:

Lekin boshqa olimlar «musovot balig'ligi kabi balig'lik bo'lmaydi» deb, musovotga ham ijyozi va itnob kabi alohida e'tibor beradilar va uning fazilatlarini ta'kidlab: «ma'no va kalom miqdori teng bo'lgan kalom asl kalom, musovotda so'z ayta oluvchilar kam uchraydi», deydilar. Bunday kishilarning quyidagi sifatlarni eslatib o'tadilar:

1. Aytayotgan narsalarini nazorat qilishda tug'ma qobiliyat mavjud. 2. So'z boyligi ko'p. 3. So'z va ifoda usullarini to'g'ri tanlash qobiliyati. 4. Xato va kamchiliklarsiz so'zlashni nazorat qilishni bilish. 5. Uzoq muddatli ta'lim va tajriba, tanqidiy nazar, nazorat va takomillashib borish².

2. Musovotning qo'llanish o'rnlari. Olimlar musovotning quyidagi o'rnlarda qo'llanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar:

1. Jurnalist matnlari.

2. Yuridik va qonunchilik materiallar matnlari.

3. Davlatlararo shartnomalar qoidalari matnlari.

4. Qaror va farmonlar matnlari.

5. Diniy hukm bayonotlari va muayyan shar'iy talablar.

6. Huquq va majburiyatlar bayonnomalari va b.¹

Demak, bu usulni qo'llash bilim, malaka va ko'nikma talab qiladi, u o'z o'rnidagi qo'llansa, ko'zlangan ma'noni to'g'ri yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Musovotga qanday ta'rif berilgan?
2. Musovot qanday o'rnlarda qo'llanadi?
3. Musovotda so'z ayta oluvchilar qanday sifatlarga ega bo'ladilar?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Musnad va musnad ilayhining xususiyatlarini aniqlang.
2. «Musnad ilayhi» mavzusi bo'yicha taqdimot tayyorlang.

¹ الصعيدي، عبد المتعال، بغية الإيضاح للتخيص السفاح في علوم البلاغة، الناشر: مكتبة الأدب 2005. ص. 1/166

<http://www.shamela.ws>

² عبد الرحمن حسن حبنكة الميداني، البلاغة العربية أنسها وعلومها وفنونها، بيروت، 1996. ص. 1/475
<http://www.shamela.ws>

¹ عبد الرحمن حسن حبنكة الميداني، البلاغة العربية أنسها وعلومها وفنونها، بيروت، 1996. ص. 1/473
<http://www.shamela.ws>

3-MAVZU. BAYON ILMI

3.1. «Bayon» tushunchasi. Bayon ilmining tarkibi

Dars rejasi:

1. Bayon tushunchasi.
2. Bayon ilmining tarkibiy qismlari.

Tayanch so'zlar: bayon, ma'no, lays, sabab, zirg'om, dalolat, ifoda.

1. Bayon tushunchasi. Ya'ni: «**بيان**» so'zining lug'aviy ma'nosi «kashf qilish, yaratish, yoritish, izohlash»dir. Istilohda: istalgan bir·ma'noni turli yo'llar orqali yoritib berish uchun kerak bo'ladigan usul va qoidalar tushuniladi¹.

Yoki Homid Avniy keltirgan boshqa ta'rif: «**Bir ma'noni anglatadigan kalmani turli gaplarda turli lafzlar bilan ifodalash orqali shu ma'noni yanada kengroq, aniqroq, ma'niliroq qilib keltirish usullarini o'rGANADIGAN ilm ilmi bayon deyiladi**»². Maqsad qilingan ma'no bayon orqali ifodalanganda eshituvchiga chiroli suratda yetkaziladi.

Ta'riflarda keltirilgan «bir ma'no» shuki, ma'no holat taqozosiga ko'ra butun kalom orqali ifodalananadi. Agar, masalan, اسد (asad), ya'ni sher ma'nosidagi so'z لیث (lays), سبع (sab'), ضرغام (zirg'om) kabi ma'nodoshlari orqali ifoda etilsa, bu bayon darajasida bo'lmaydi, chunki mutarodif (sinonim) so'zlar lug'at (leksika)da o'rganiladi, bayon ilmida emas³.

2. Bayon ilmining tarkibiy qismlari. Bayonning tarkibigi tashbih, majoz, istiora, kinoya kiradi. Bayon ilmini ko'p olimlar tashbih, majoz (al-majozu-l-ma'noviy, al-majozu-l-lug'aviy, uning

¹ احمد هاشمي. جواهر في المعاني و البين و البدع. بيروت-لبنان. 2004. ص. 2269-270.

² Шарифов З. Балогат фанидан маъruzalар матнни. -Т.; Мовароуннахр. 2002. -Б. 23.

³ احمد محمد الحجار. الإقحاح عما تضمنه الإضاح من مباحث البيان. دار الاتحاد العربي للطباعة. القاهرة. 1973.

tarkibida isti'ora) va kinoya¹; ayrimlari tashbih, isti'ora, majoz mursal va kinoya² tarzida tasniflaydilar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

- 1.«Bayon» tushunchasiga izoh bering.
- 2.«Bayon ilmi» deganda nimani tushunasiz?
- 3.«Bayon ilmi»ning tarkibiy qismlari nimadan iborat?
4. «Bayon ilmi»ning ma'noni ifodalashdagi o'rni qanday?

3.2. Dalolat

Dars rejasi:

1. «Dalolat» tushunchasi.
2. Dalolatning turlari

Tayanch iboralar: dalolat, lafziy, g'ayrilafziy, mutobiqiyya, tazminiyya, iltizomiyya.

Balog'atning bayon bo'limi dalolat haqidagi babs bilan boshlanadi.

Bayon ilmida dalolatga quyidagicha tavsif beriladi: Dalolat bir narsaning boshqa narsani bildirishi. Birinchisi madlul, ikkinchisi doll, xuddi «Muhammad» lafzining ma'nosi biror kimsani, ya'ni «zot»ni bildirgani (yoki «zot»ga dalolat qilgani) kabi. Lafz dolldir, zot (lafz egasi) madluldir (lafz bildirgan narsa va tushunchaning o'zi)³.

Balog'at olimlari dalolatni dollning e'tiboriga ko'ra ikki qismga bo'ladilar. Birinchisi lafziy dalolat, ikkinchisi g'ayri-lafziy (lafziy bo'limgan) dalolat. Agar so'z o'zi bildirgan narsa va tushunchaga dalolat qilsa, lafziy bo'ladi. Masalan: «inson» so'zi nutqqa ega bo'lgan jonzotni, «sher» so'zi yirtqich jonzotni anglatgani kabi.

ابو يعقوب يوسف السكاكى. مفتاح العلوم. مطبعة مصطفى النبئي الحلبي. أولاده بمصر. 1937. ص. 157-200.
أحمد محمد الحجار. الإقحاح عما تضمنه الإضاح من مباحث البيان. دار الاتحاد العربي للطباعة. القاهرة. 1973. ص. 234.

حامد عوني. المنهج الواضح للبلاغة. الجزء الأول. المعانى، البدع. بيروت. 1999. ص. 18-130.
صالح سليم. المنجد في الإعراب و القواعد و البلاغة و العروض. دار الكتاب العربي بمصر. 1953. م. ص. 55-197.

² حامد عوني. المنهج الواضح للبلاغة. الجزء الأول. دار الرائد للطباعة و النشر. ص. 333-357.
³ حامد عوني. المرجع السابق. ص. 46.

Agar doll so'z bilan ifodalanmasa, g'ayrilafziy dalolat bo'ladi. Masalan: tutun alangani, yonoqning qizarishi hijolat chekkanni anglatgani yoki yo'l harakati belgilari ma'lum ma'noni bildirgani kabi. G'ayrilafziy dalolatning bayon ilmiga aloqasi yo'q. Chunki unda lafz ishtirok etmaydi. Ma'no ishoralar, belgilar orqali tushuniladi.

Birinchisi (lafziy dalolat) uch xil bo'ladi. Bular vaz'iy, tabi'iy va aqliy lafziy dalolatlar. Uning vaz'iy turida «inson» lafzi gapiruvchi jonzotga dalolat qilgani kabi bir so'zning aynan shu narsa uchun tayinlangani tushuniladi.

Tabi'iy dalolatda lafzlar tabiatdan olingen bo'lib, bu «oh» so'zi bemorning og'riqni sezganini bildirgani kabitidir.

Aqliy dalolatning asosi aqlidir. Bunda ovoz uning egasi hayotligini bildirgani kabi madlul aql orqali idrok qilinadi. Masalan, agar devor ortidan bir odamning tovushini eshitsang, shu tovush o'sha kishining tirikligiga dalildir. Bu yerda doll orqali madlulni faqat aql vositasida bilish mumkin.

Lafziy dalolatning tabi'iy va aqliy turlari bayon ilmiga kiritilmaydi.

Bayon ilmida dalolatning vaz'iy turi mutobiqiyya, tazminiyya va iltizomiyya deb nomlanuvchi uchta guruhga ajratiladi. Bulardan mutobiqiyya turi haqida shunday deyiladi:

Mutobiqiyya so'zning biror tushuncha yoki narsani to'liq (ligicha, yaxlitligicha, to'la) bildirishi. Misol tariqasida «inson» so'zining gapiruvchi hayvonni bildirishi keltiriladi. Mutobiqiyya deb atalishiga sabab lafz va narsa yoki tushunchaning bir-biriga mosligi, tengligi uchundir. Masalan, yuqoridaq misolda so'zlovchi «inson» so'zini ham hayvon, ham notiq bo'lgan zotga dalolat qilish uchun qo'llagan.

Balog'atchilar tazminiylafziy dalolatga shunday ta'rif beradilar: Tazminiyyada so'z (biror tushuncha yoki narsaning bir jihatini bildiradi) o'z ma'nosining bir qismini bildiradi. Masalan, «inson» so'zi uning yoki faqat hayvonlik jihatiga, yoki faqat gapira oluvchilik qobiliyatiga dalolat qiladi. Tazminiyya deb atalishiga sabab bildirilgan ma'no shu so'zning zaminida bor bo'lgani uchundir.

Iltizomiyya lafziy dalolatning ta'rifi bunday:

Iltizomiyyada so'z orqali (biror narsa yoki tushunchaga) ma'no yuklatiladi. Masalan, «sher» so'zining shijoatga dalolat qilishi kabi. Lekin shijoat sherning o'z ma'nosi ham, ma'nosining bir qismi ham emas. Balki uning ma'nosiga chetdan yuklatilgan. Iltizomiyya deb atalishiga sabab ma'noning biror tushuncha yoki narsaning zaminida mavjud bo'lmay, tashqaridan kiritilgani (ga ishora)dir.

Demak, balog'at olimlari bayon ilmida avvalo dalolat haqida tushuncha berib, uning turlarini keltirib o'tganlar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. «Dalolat» tushunchasiga qanday tavsif berilgan?
2. Lafziy dalolatning qaysi turlari bayon ilmiga kiritilgan?
3. Tazminiy va iltizomiylafziy dalolatning o'zaro farq qiluvchi jihatni nimadan iborat

3.3. Tashbih, uning turlari

Dars rejasit:

1. Tashbih to'g'risida ma'lumot.
2. Tashbihning ruknlarga ko'ra turlari.

Tayanch iboralar: tashbih, rukn, mushabbah, mushabbah bihi, martaba.

Bayon ilmiga tashbih, majoz va kinoya kiradi.

Ma'lumki, tashbih birinchi bor bayon ilmi zikr etilgan «Majoz al-Qur'on» kitobining yaratilishiga sabab bo'lgan¹.

Arab balog'atida tashbihga berilgan dastlabki ta'riflardan biri Abu Abdulloh Xorazmiy tomonidan «Mafotihu-l-'ulum» asarida quyidagicha keltiriladi:

التشبيه: تمثيل الشيء بالشيء.

Ya'ni: Tashbih bir narsani boshqasiga o'xshatish².

Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy tashbih haqidagi nazariy fikrlarni

¹ حامد عوني، المنهج الواضح للبلاغة، الجزء الأول، دار الكتاب العربي بمصر، 1953 م، ص. 6-7.

² Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг «Мафотих ал-Улум» асарида поэтика. (Аруз, кофия, балийят илми истилоҳлари тарихига оид). –Т., 2001. –Б.47.

rivojlantiradi va uning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda kengroq va aniqroq ta'rif beradi:

Tashbih bir jihatdan mushtarak bo'lib, boshqa jihatdan farq qiluvchi ikki taraf mushabbah va mushabbah bihni talab qiladi. Ular haqiqatda umumiylikka ega bo'lib, sifatida farq qilishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Sakkociy birinchi holatga (ikki inson) misolini keltiradi, ular sifat jihatdan bo'yining baland-pastligi bilan farq qiladilar, lekin haqiqatda inson ekanliklari ularni umumlashtiradi. Ikkinci holatga bir xil sifatlari طوبیلان (ikki baland bo'yili)ni misol keltiradi, ularning biri inson, boshqasi ot bo'lishi mumkin, ya'ni ular umumiy sifatga ega, lekin haqiqatda boshqa-boshqa narsalar.

Arab balog'atiga bag'ishlangan asarlarda tashbihga keng o'rinn berilgan bo'lib, u bir necha jihatlariga ko'ra tasniflangan. Olimlar tomonidan uning al-mushabbah, al-mushabbah bih, odatu-t-tashbih, vajhu-t-tashbih kabi to'rtta rukni, at-tashbihu-l-mursal, at-tashbihu-l-mu'akkad, at-tashbihu-l-mujmal, at-tashbihu-l-mufassal, at-tashbihu-l-balig' kabi qismlari, tashbihu-t-tamsil, at-tashbihu-d-dimniy, at-tashbihu-l-maqlub va boshqa turlari ko'rsatilgan.

Birinchi tasnif uning tarkib qismlari, ya'ni ruknlari asosidadir. Tashbihning ruknlari to'rtta, ya'ni mushabbah o'xhatiluvchi, mushabbah bih o'xshovchi, vajhu-sh-shibh o'xhash jihatni va odotu-t-tashbih o'xhatish vositasi (yoki bu qism «kalimatu-t-tashbih» «o'xhatish so'zi» deb ham nomlanadi) bo'lib, bu borada hozirgacha arab va ajam olimlari orasida ixtilof bo'limgan.

Abu Yoqub Yusuf Sakkociy tashbihni uning to'rt jihatni, ya'ni o'xshovchi va o'xhatiluvchi (ikki taraf, ya'ni طرفان), o'xhash jihatni (الشّيْه وَجْه), o'xhatish vositasi (اداء) va tashbihning maqsadlari asosida o'rganadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, tashbihning ayrim xususiyatlari bo'yicha tasniflar, ularning turlari va nomlanishi arab balog'atining rivojlanishi jarayonida o'zgarib borgan.

Jumladan, o'xshovchi va o'xhatiluvchining xususiyatlariga ko'ra hissiy va aqliy, mufrad va murakkab, malfuf (o'ralgan), mafruq (ajratilgan), tasviya (tenglashtirilgan), jam' (to'plangan) turlarga ajratiladi. O'xhash jihatiga ko'ra haqiqiy va hayoliy; mufrad, murakkab, muta'addid; hissiy va aqliy; tamsiliy va

g'ayritamsiliy; mufassal va mujmal; qarib mutbazar va g'arib ba'id qismlarga bo'lingan. O'xhatish vositasiga ko'ra mursal, muakkad va tashbihning maqsadlariga ko'ra maqbul va mardud qismlari mavjud¹.

Sakkociy tashbihning ruknlari ishtirokiga ko'ra sakkiz turini زيد الأسد في الشجاعة (Zayd jasurlikda sher kabitir) misolida ko'rsatib o'tadi². Bular: 1) barcha ruknlar ishtirok etadi; 2) mushabbah ishtirok etmaydi, ya'ni زيد أسد في الشجاعة (Jasurlikda sher kabitir); 3) odatu-t-tashbih ishtirok etmaydi, ya'ni زيد أسد في الشجاعة (Zayd jasurlikda sherdar). 4) mushabbah va odatu-t-tashbih ishtirok etmaydi, ya'ni زيد أسد في الشجاعة (Jasurlikda sherdar); 5) vajhu-sh-shibh ishtirok etmaydi, ya'ni زيد الأسد (Zayd sher kabitir); 6) mushabbah va vajhu-sh-shibh ishtirok etmaydi, ya'ni زيد الأسد (Sher kabitir); 7) odatu-t-tashbih va vajhu-sh-shibh ishtirok etmaydi, ya'ni زيد الأسد (Zayd sherdar); 8) faqat mushabbah bihdan iborat bo'ladi, ya'ni الأسد (Sher). Bu turni ko'p olimlar istiora deb ataydilar.

Olimlar tashbihni martabalariga ko'ra uch guruhga ajratganlar³. Tashbihning kuchli yoki zaifligida ruknlarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

1. Oliy martaba. Bunday tashbih yuqoridagi tasnifning uchinchi turida zikr qilingan زيد أسد (Zayd sherdar) kabi o'xhatish vositasi va o'xshash jihatining tushib qolishidan hosil bo'ladi.

2. O'rta martaba. Unda tashbihning yoki o'xshash jihatni, yoki o'xhatish vositasi tushib qoladi, زيد الأسد (Zayd sher kabitir) yoki زيد أسد في الشجاعة (Zayd jasurlikda sherdar) kabi. Yuqoridagi tasnifning ikkinchi va beshinchi turlariga mos keladi.

3. Quyi martaba. Bunday tashbihda oliy martabadagi tashbihning aksicha o'xhatish vositasi va o'xshash jihatlari tushib qolmaydi, ya'ni tashbihning barcha ruknlari ishtirok etadi. Yuqoridagi tasnifning birinchi turlariga mos keladi.

¹ حامد عوني. المنهج الواضح للبلاغة. دار الكتب العربي بمصر. 1953 م. ص 94-56.
Шарифов З. Араб тили. Балогат фанидан маърузалар матни. –Т.: Шоакбар. 2002. –Б. 30-52.

² Qarang: Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг «Мафотих ал-улум» асарида поэтика. (Аруз, кофия, бадиият илми истилоҳлари тарихига оид). –Т., 2001. –Б. 48-49.

³ حامد عوني. المرجع السابق. ص. 111-110.

Tashbihning ruknlar ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan boshqa turdag'i tasnifi mavjud¹:

التشبيه المرسل 1. (mursal tashbih) hoh lafzan, hoh taqdiran o'xshatish vositasi ishtirok etgan tashbih. Masalan, quyidagi misolda o'xshatish vositasi كَ:

(Go-zallik va shukuhda jannatdek bog'ga bordik.) زرنا حديقة كانها الفردوس في الجمال والبهاء

التشبيه الموكد 2. (muakkad tashbih) hoh lafzan, hoh taqdiran o'xsha-tish vositasi tark etilgan tashbih. Masalan:

لجواد في السرعة برق خاطف (Ot tezlikda chaqin chaqmoqdir), bu yerda (chaqin chaqmoq) birikmasiga bog'lanib kelishi kerak bo'lgan o'xshatish vositasi qo'llanmagan.

التشبيه المجمل 3. (mujmal tashbih) o'xhash jihatiji tushib qolgan tashbih. Masalan: (Ilm nur kabitir). Ushbu misolda ilm qaysi jihatiji bilan nurga o'xhatilgani zikr qilinmagan.

التشبيه المفصل 4. (mufassal tashbih) o'xhash jihatiji ishtirok etgan tashbih. Masalan: (القاظه كالعسل في الحلاوة) (So'zleri shirinlikda asaldek) misolida shirinligiga ko'ra o'xhash ekani ko'rsatilgan.

التشبيه البليغ 5. (balig' tashbih) o'xshatish vositasi va o'xhash jihatiji tushib qolgan tashbih. Masalan: (Zayd ased: زيد أسد) so'zi bilan bog'lanib kelishi kerak bo'lgan o'xshatish vositasi va o'xshatish jihatiji qo'llanmagan. Bu tur avvalgi tasnidagi oliy martaba, ya'ni eng yaxshi tashbihga to'g'ri keladi.

التشبيه المطلق (mutlaq tashbih). Bu borada Atoulloh Husayniy ham Vatvotning ma'lumotlariga tayanadi va mutlaq tashbihiga shunday ta'rif beradi: «Ani tashbih-i sarih ham derlar va ul kalomda bir

¹ على جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة، البيان، المعاني، البديع، القاهرة، 1999. ص. 25-23.

nimani bir nimaga o'xshashliqqa dalolat qilg'uvchi lafz vositasi¹ bilan o'xshatishdir. Husayniy bu o'xshatish shart, tasviyat (tenglashtirish), aks, izmor (berkitish) va tafzil (yuqori qo'yish)siz bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi va arab tilidagi o'xshatish vositalari kabi so'zlar ekanini eslatadi. Misol tariqasida quyidagi oyatlarni keltiradi: [Kufr keltirganlarning amallari sahrodag'i sarobga o'xshaydir. Chanqoq odam uni suv deb hisoblaydi. Qachonki, uning oldiga kelsa, hech narsani topmas (MS 24/39)]; [Rabbilariga kufr keltirganlarning amallarining misoli, xuddi bo'ronli kunda shamol uchirib ketgan kulga o'xshaydi (MS 14/18)].

أصحابي كالنجوم بأيديهم اهتدتْ اهتدتْ Nabaviy kalomdan misollar: (Sahobalarim yulduzlar kabitir, qay biriga ergashsang to'g'ri yo'ldan borasan); ... (Insonlar taroq tishlari kabi tengdirlar).

Bu misollardagi مثل ك (kabi, misli) so'zları o'xshatish vositasidir. Tashbihning bu turi arablarda at-tashbihu-l-mursal nomi bilan ham ataladi.

التشبيه الكاذبة (kinoyali tashbih). Kinoyatli tashbihning ta'rifi bunday: «so'zlaguchi o'z ko'nglida bir nimani bir nimaga tashbih qilur va kalomda tashbih odotin keltirmas va mushabbahni mushabbah bih lafzi bila ta'bir etar², ya'ni tashbihda o'xshatish vositasi va o'xshovchi zikr qilinmaydi. Masalan:

فامطرت لولوا من نرجس سقت وردا و عضت على العذاب بالبرد

(Nargisdan dur yog'ilib, atirgul uzra tushganda, u do'llar bilan unnobni ezib turardi)³. Bu baytda o'xshatish vositasi va o'xshovchilar ko'z, yonoq, yosh, tish va barmoq so'z bilan ifodalanmagan.

التشبيه المشروط (mashrut tashbih). Vatvot mashrut tashbihni «bir

¹ Атоуллох Хусайнин. Бадойиъу-с-саноин. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. –Т.: Г.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 212.

² Атоуллох Хусайнин. Ўша манба. –Б. 213.

³ Qarang. Сайдумаров М. Харирий макомалари. –Т.: Комуслар бош таҳририяти. 1996. –Б. 70.

narsani boshqa narsaga biror shartga asosan o'xshatadilar»¹ deb ta'riflaydi. Bu tashbihda «bunday bo'lса, unday bo'ladi» qabilida shart qo'yildi. Misol: هو كالبدر في ارتفاع قدره و كالبحر في اتساع صدره، لو أن البحر لا يتغير ماؤه و البدر لا ينتصض ضياؤه. (Agar dengiz o'z suvini o'zgartirmasa hamda oy ziyosini kamaytirmsa, uning qadri oy kabi yuksak, qalbi dengiz kabi keng). Misolda mushabbahning mushabbah bihga o'xhashshi uchun dengiz o'z suvini o'zgartirmasligi va oy ziyosini kamaytirmsligi shart qilib qo'yilgan.

Yana bir misol:

عزمأه مثل النجم ثوابقاً لو لم يكن للثنيات أقول²

(Agar so'nmasa, uning istaklari porloq yulduzlar kabidir.) Bu baytda o'xhashlik bo'lishi uchun yulduzlarning so'nmasligi shart qilib qo'yilgan.

تشبيه التسوية (tasviyat tashbih). Tasviyyat tashbih deb ataluvchi tashbihda «ikki narsa bir narsaga o'xhatiladi va uning mashhur yo'li shuki, unda bir narsa o'zidin va boshqa narsa maqsad qilingandan olinadi va ikkisi bir narsaga o'xhatiladi». Misol: صدغ الحبيب وحالي كلاهما كالليلي وشغره في صفاء وأسمعي كاللالي³

(Yorning zulfiyu mening holim misli tun, uning tishlariyu mening yoshlarim misli dur), bu baytda ikki o'xhatiluvchi zulf va hol tunga, tishlar va ko'z yoshlar durga o'xhatiladi.

Tashbihning bu turi arablarda juda mashhur bo'lib, boshqalardan farqli tomoni shuki, unda mushabbahlar soni chegaralanmaydi.

تشبيه العكس (aks tashbih). Aks tashbih haqida Atoulloh Husayniy shunday deydi: «Uni tashbih-i ma'kus ham derlar va bir nimani bir nimaga o'xhaturlar dag'i aksin qilib va ikkinchisin birinchisiga o'xhaturlar»⁴. Misol:

الراح مثل الماء في كأساتها و الماء الراح في الغران⁵

رشيد الدين وطواط. حدانق السحر في دقائق الشعر. ترجمة إبراهيم أمين الشواربي، المركز القومي للترجمة، ١ القاهره، ط ٢، ٢٠٠٩ م. ص. ١٣٢.

² رشيد الدين وطواط. المرجع السابق. ص. ١٤٤.

³ رشيد الدين وطواط. المرجع السابق. ص. ١٤٢.

⁴ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноийӣ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. –Т.: Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 216.

⁵ رشيد الدين وطواط. المرجع السابق. ص. ١٤٦.

(Sharob qadahdagи suv misol, suv ariqdagi sharob misol).

Bu baytning birinchi sartidagi mushabbah (sharob) va mushabbah bih (suv) ikkinchi satrda o'zaro o'rin almashdi va tashbih-i aksni hosil qildi.

Husayniy o'z asarida Rashid-i Vatvotning tashbihning yaxshirog'i va ma'qulrog'i aks qilingan tashbih degan fikrini eslatib o'radi. U bunga misol tariqasida zulfni tunga va tunni zulfga, hilolni ot taqasiga va ot taqasini hilolga qilingan tashbihlarni keltiradi.

Uning ta'kidlashicha, o'xhatiluvchi va o'xshovchingning o'xhash jihatи orasidagi tafovut haddan ortiq bo'lmasligi kerak. Chunki bunday tashbih bir jihatdan ma'qul bo'lса-da, uning aksi ma'qul bo'lmasligi mumkin.

تشبيه الاضمار (izmor tashbih). Tashbih-i izmorning ta'rifi: «...tashbihi muzmar ham derlar va andin iboratturkim, so'zlaguchi kalomda bir nimani yashirin tarzda tashbih qilur, aning kalomining zohir ma'nosi ul tashbihidin aning maqsudi ul emas, o'zga nimadek bo'lur, ammo haqiqatta aning maqsudi o'shul tashbih bo'lur»¹. Misol:

إن كان وجهك شفعاً فما لجسمي بذوب²

(Sening yuzing sham' bo'lganda, mening jismim erib bitsa ne ajab)

Vatvot: «bu she'rda maqsad taajjub bo'lib ko'rinsa-da, haqiqatda yuzni sham'ga o'xhatishdir», deydi.

تشبيه التفضيل (tafzil tashbih). Tafzil tashbihda so'zlaguchi bir narsani boshqa narsaga tashbih qiladi va undan qaytib, mushabbahni mushabbah bihdan afzal deb biladi. Misol:

حسبت جماله بدرًا مضينا و أين البدر من ذاك الجمال³

(Uning jamolini oy deb o'ylagan edim, oyda u jamol qani?!)

Keltirilgan baytda shoир husnni oyga o'xhatdi, so'ngra o'xhatiluvchini o'xshovchidan go'zallikda ustun qo'ydi.

Husayniy tashbih istiora kabi oz so'z orqali ko'p ma'no ifodalanishiga ko'ra iyoz bobiga mansub ekanini ta'kidlaydi.

¹ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноийӣ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. –Т.: Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 216.

² رشيد الدين وطواط. حدانق السحر في دقائق الشعر. ترجمة إبراهيم أمين الشواربي، تقديم أحمد الخولي، المركز

القومي للترجمة، القاهرة، ط ٢، ٢٠٠٩ م. ص. ١٤٨.

³ رشيد الدين وطواط. المرجع السابق. ص. ١٤٧. ١٤٨

Vatvotning fikricha, tashbih u qadar go'zal ifodalanmagan bo'lsa ham, o'xshatiluvchi va o'xshovchi vogelikda bor bo'lishi kerak. Bu borada u vogelikda yo'q, faqat hayolu tasavvurda bor bo'lgan narsalarni tashbih qiluvchi ayrim shoirlarning ishlarini qoralaydi. Bunday tashbihga vogelikda mavjud bo'lmagan ikki narsa yashnagan ko'mirni oltin mavjli mushkin dengiziga o'xshatilganini misol tariqasida keltiradi¹.

Demak, tashbih eng ko'p qo'llaniladigan san'at turlaridan hisoblanadi. Tashbihning xususiyatlari ko'ra tasniflari, turlari va nomlari balog'at ilmining rivojlanishi davomida ma'lum darajada o'zgarib borgan.

O'xshovchi va o'xshatiluvchining xususiyatlari ko'ra hissiy va aqliy, mufrad va murakkab, malfuf, mafruq, tasviya, jam' turlarga ajratiladi. O'xshash jihatiga ko'ra haqiqiy va hayoliy; mufrad, murakkab, muta'addid; hissiy va aqliy; tamsiliy va g'ayritamsiliy; mufassal va mujmal; qarib mubtazal va g'arib ba'id qismlarga bo'lingan. O'xshatish vositasiga ko'ra mursal, muakkad va tashbihning maqsadlariga ko'ra maqbul va mardud qismlari mavjud.

Tashbihning ruknlari ishtirokiga ko'ra sakkiz turi, martabalariga ko'ra uch turi, ma'nosiga ko'ra yetti turi ishlangan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Abu Yoqub Sakkokiy tashbihga qanday ta'rif beradi?
2. Tashbihning ruknlarga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering.

3.4. Majoz va uning turlari. Istiora

Dars rejasi:

1. Majoz va uning turlari.
2. Istiora.

Tayanch iboralar: majoz, haqiqat, sabab, zamon, makon, masdar, istiora.

¹ رشيد الدين وطواط. حدائق السحر في دقائق الشعر. ترجمة إبراهيم أمين الشواربي، تقديم أحمد الخلوي، المركز القومي للترجمة القاهرة، ط 2، 2009 م ص. 138-139.

Balog'at ilmining bayon bo'limida majoz to'g'risida aqliy majoz, majozu-l-mufrad haqida ma'lumot beriladi. Keyingi bosqichda lug'aviy majozga kiruvchi istiora, tasrihiy istiora va uning turlari, fe'lida istiora, yasama so'zlarda (مشتقات) istiora, harflarda istiora, istioraning murashshah, mujarrad va mutlaq turlari, makniy istiora haqida bahs yuritiladi, so'ngra al-majozu-l-mursal, al-majozu-l-murakkab va tamsiliy istiora mavzulari yoritiladi.

Jumladan, haqiqat va majoz haqida shunday deyiladi:

إن اللفظ المستعمل نوعان: نوع لا يتصرف فيه عند استعمال أي تصرف، بل يبقى على أصل وضعه، ويسمى عندهم «حقيقة». نوع يتصرف فيه عند استعماله، ويسمى عندهم «مجازاً».¹

Bu ta'rifda haqiqat va majoz o'rtasidagi farq ko'rsatilgan. Ya'ni: lafz ikki turda qo'llanadi. Biri iste'molda o'zgarmaydi, balki o'zining va'ziy asosida (lafz aslida nimaga atalgan bo'lsa, o'sha narsaning o'zini ifodalaydi) qoladi. U haqiqat deb nomlanadi. Ikkinchisi, iste'molda o'zgaradi. U majoz deb ataladi.

Majozning ta'riflaridan biri:

Asl ma'nosidan ko'chib, o'ziga mos keladigan boshqa narsaning ma'nosini bildirish uchun qo'llanadigan lafz majoz deb ataladi². Sodda qilib aytganda, «iste'molda ma'nosи o'zgaradigan lafzlar majoz deyiladi»³. Masalan: «الأسد» (sher) lafzining shijoatli kishiga nisbatan qo'ilanishi.

Shuningdek Lubad nimaga yo'liqkan bo'lsa, u ham shunga yo'liqadi (ya'ni o'limga). Shunga o'xshash iboralarni arablar عبارة مجازية, ya'ni «majoziy ibora», deb ataydilar. Yana bir misol: طال الأبد على لبد Lubadga nisbatan abadiylik cho'zildi⁴.

¹ حامد عوني. المنهج الواضح للبلاغة، الجزء الأول. دار الكتاب العربي بحصـر. 1953 م. ص. 115.

² «Мажоз» атамаси ҳақида qarang: Куронбеков А. Тасаввубуф адабиёти лингвопоэтикаси. –Т.: Akademnashr. 2011. –Б. 267-272.

³ أحمد هاشمي جواهر في المعنى والبيان والبعد. بيروت:طبـان. 2004. ص. 318.

⁴ Шарифов З. Араб тили. Балофат фанидан маъruzalар матни. –Т.: Шоакбар. 2002. –Б. 69.

¹ Ходжаева Р. Мумтоз араб адабиёти жанрлари тизими ва типологияси. –Т., 2015. –Б. 27.

Majoz ma'noni ifodalashda eng yaxshi bayon usullaridan hisoblanadi.

Majoz ikki qismga bo'linadi: aqliy majoz va lug'aviy majoz.

Balog'at olimlari aqliy majoz haqida shunday deydilar:

«Aqliy majoz arab tili uslublaridan biri bo'lib, u tilning boyligi, haqiqat chegarasidan hayolga o'tish qudratidir. Abdulqohir Jurjoniy u haqda aytadi: «majozning bu turi balog'at xazinalarining xazinasi, atoqli shoirlar, buyuk yozuvchilarning ijodlari va ne'matlari bo'lib, ularning bayon yo'lida keng quloch yoyishlari uchun manbadir»¹.

Aqliy majoz lug'aviy emas, chunki lug'aviy majozda lafz o'zi uchun belgilanmagan narsaga xizmat qiladi va o'zi uchun belgilanmagan narsa nazarda tutiladi. Aqliy majozda esa lafz o'zi uchun belgilangan narsaga qo'llanadi.

Aqliy majoz bu ish-harakatni gapda grammatik jihatdan ega bo'lib kelgan, biroq ma'nosiga ko'ra shu fe'lning haqiqiy egasi bo'limgan so'zga emas, balki shu so'zga aloqador bo'lib, haqiqiy egasini ifodalaydigan so'zga aqlan bog'lashdir. Bu jarayonda haqiqiy eganing ma'nosi, ma'nosi bilan birga grammatik funksiyasi boshqa so'zga ko'chadi.

Majoziy isnod fe'lning sababi, zamoni, makoni, masdariga yoki o'zaro o'zakdosh bo'lgan fo'ilning maf'ulga, maf'ulning fo'ilga isnodi bo'lishi mumkin.

Masalan [وقال فرعون يا هامان ابن لي صرخا لغلي أبلغ الأسباب: Fir'avn dedi: «Ey Homon, menga bir baland qasr bino qil, shoyad sabablarga yetsam» (MS 40/36)]. Misolda يا هامان ابن لي صرخا (bino qil) fe'li o'z ma'nosida qo'llangan, ham shunday. Lekin qasr qurish Homonga majozan biriktirilgan, chunki Homon bino qurilishi sababchisi bo'la oladi, quruvchisi emas, uni quruvchilar qurishi aql orqali bilinadi, shuning uchun bu majoz aqliy deyiladi.

¹ كتاب البلاغة الميسرة

http://www.almaaref.org/books/contentsimages/books/allougha_alarabeya/albalagha_alm oyasara/page/lesson14.htm

Bu kabi aqliy majozning qarinasi¹ aqldir va bu isnoddagi majoz, chunki Homon bir o'zi bino quradi deb hayol qilindi, ya'ni fe'lga qilingan isnod uning haqiqiy bajaruvchisi emas.

Aqliy majozda isnodda bo'ladigan farqdan kelib chiqib aloqalar² turlicha bo'ladi. Bular:

fe'lning sababga majoziy isnodi. Bu turda yuqorida keltirilgan misoldagi kabi fe'lning fo'ili haqiqiy emas. Lekin shu ish-harakat uning bo'yrug'isiz amalga oshmaydi, ya'ni u ish-harakatning amalga oshishida sababchi hisoblanadi. Shuning uchun fe'l haqiqiy bo'limgan fo'ilga bog'lanadi va grammatik jihatdan fe'lning egasi bo'ladi. Bu aqliy majozdag'i sababiy aloqadir.

علاقة الزمانية fe'lning zamonga majoziy isnodi. Misol:

سُبْدِي لَكَ الْأَيَّامُ مَا كُنْتَ جَاهِلًا وَبِأَيَّامٍ مِّنْ لَمْ تَرَوْدَ

(Sen bilmagan ajib kunlar endi bo'lar namoyon, xuzuringga kelar kimsa xushxabar-la begumon).

ال أيام (ko'rinish, namoyon bo'lish)ning isnodi (kunlar). Aslida (kunlar) namoyon bo'lmaydi. U namoyon bo'lish vaqt, shoир aslida «kunlarning voqealari namoyon bo'ladi» demoqchi, bu bilan «الإِنْذَارُ» «الإِنْذَارُ» ga isnod bo'lgan (tayangan). Bu ham aqliy majoz. Shu bilan birga kun zamon (vaqt)ning bir bo'lagi va namoyonlik ro'y beradigan vaqt. Isnod qilinayotgan narsa zamonga taalluqli bo'lgani uchun bu majozning aloqasi «zamoniya» deb ataladi.

fe'lning makonga majoziy isnodi. Fe'lning fo'ili haqiqiy bo'lmaydi, ya'ni majoziy bo'ladi. Ish-harakat amalga oshadigan joyga uning fo'ili sifatida qaraladi va grammatik jihatdan ish-harakat amalga oshadigan joy nomi fe'lning egasi bo'ladi. Masalan, جرى النهر (daryo oqdi), aslida daryo emas, undagi suv oqishi ma'lum, shuning uchun ta'bir haqiqatga mos kelishi uchun uning ifodasi جرى الماء في النهر (Daryoda suv oqdi) bo'lishi kerak. Lekin suv oqadigan joyga majozan ish-harakatni amalga oshiruvchi deb qaraladi. Shunda bu ma'no ta'birining grammatik ifodasida ish-harakat amalga oshadigan joy nomi gap egasi bo'ladi.

¹ Bu yerda «qarina» – kalomda oriziy (majoziy) ma'noni haqiqiy ma'no deb tushunishga monelik qiliadigan so'z.

² Aloqa – asl va majoziy ma'nolar o'rta sidagi bog'liqlik.

علاقة المصدرية fe'lning masdarga majoziy isnodi. Bu turda fe'lning fo'ili haqiqiy bo'lmay, majozan masdar bo'ladi. جَهْدُهُمْ جَهْدُهُمْ جَهْدُهُمْ جَهْدُهُمْ agar ma'no to'liq ta'bir qilinsa (G'ayrat qiluvchi g'ayratona g'ayrat qildi, ya'ni «astoydil g'ayrat qildi» ma'nosida) tarzida ifodalaniishi kerak. Ko'riniib turibdiki, haqiqiy fo'il الجَهْدُ كَوْرِينِيْبُ تُرِيْبُدِيْكِيْ حَقْيَقَيْ يَفْعَلُ ماًجَوْزِيْيَهُ شُنُونَ شُنُونَ شُنُونَ شُنُونَ fo'il tushib qolgan, natijada ish-harakatni bajarish majozan masdarga yuklatilgan. Shuning uchun fe'l masdarga majoziy isnod qilingan (tayangan bo'ladi).

علاقة المفعولية ismi fo'ilning maf'ulga isnodi. أولئك نمكّن لهم حرّماً أمّا (Biz ularga omonlik haramini makon qilib bermadikmi?! (MS 28/57). (حرّم) (amonlik, tinchlik beruvchi) bo'la olmaydi, yashash (tiriklik)ga nisbatan (tinch) sifati berilgan. Haram (حرّم) (امّن) (مأمور) yashash joyidir, ismi fo'il maf'ulga tayangan. Bu aqliy majozning aloqasi maf'uldir.

Majozga bag'ishlangan dastlabki asar Qur'on majazi haqida bo'lgan. Bu Abu Ubayda Ma'mar ibn al-Musannanining (v.t. 210/825) «Majozu-l-Qur'on» asari bo'lib, undan so'ng ko'plab asarlar yozildi. Ularning eng mashhurlari quyidagilar: Ash-Sharif ar-Roziyning (v.t. 406/1015) «Tafsiru-l-Bayon fi Majazi-l-Qur'on»; Abdul Aziz ibn Abd as-Saloming (v.t. 660/1262) «Al-ishora ila-l-iyoz fi badi' anvoi'l-majoz»; Jalolu-d-din as-Suyutiyning (v.t. 911/1505) «Majozu-l-Fursan ila Majazi-l-Qur'on»².

O'rta asrlar adabiyotida majoz ko'p qo'llangan. Jumladan, «nayza» tik, kelishgan ma'nosida, «qora arqonlar» temir zanjirlar, «daraxtni tiniq suv bilan sug'orish» yaxshi tarbiya, «bir juft bodom» ko'zlar¹.

2. Istiora. Arab balog'atida istiora bayon ilmida o'rganiluvchi

¹ Arab tilida kalomda fe'l bilan birga shu fe'l masdari (harakat nomi)ning qo'llanishi fe'l ma'nosini kuchaytiruvchi usullardan biri hisoblanadi. Bu o'z navbatida badiiy matnlarda ishtiqoq san'atini hosil qiladi. Jumlaning so'zma-so'z tarjimasasi: «ularning g'ayrati g'ayratlashdi», lekin bu usul o'zbek tiliga xos emas.

² Али-Заде А.А. Маджаз. Исламский энциклопедический словарь. — М.: Айсар, 2007. (<http://dic.academic.ru/dic.nsf/islam/471/%D0%9C%D0%B0%D0%9B%D0%9A%D0%90%D0%9B%D0%9F>)

¹ Мухтаров Т.А., Саттиев Л.И., Шамусаров Ш.Г. Очерки средневековой арабской прозы. — Т.: Фан, -С. 212.

majozning tarkibida keladi. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi «qarzga olingan» va unga istiloh sifatida quyidagicha ta'riflar berilgan, Jurjoniy va Sakkokiy:

هي أن تذكر أحد طرف في التشبيه و تزيد به الطرف الآخر مدعيا دخول المشبه في جنس المشبه به دالا على ذلك باتباعك للمشبه ما يخص المشبه به¹

(Tashbihning ikki tarafi (mushabbah va mushabbah bihi)dan biri zikr qilinadi, boshqa tarafi nazarda tutiladi. Bunda mushabbah bihi (o'xshovchi)ga xos bo'lgan narsani mushabbah (o'xhatiluvchi)ga tegishli qilish orgali mushabbah mushabbah bihining jinsi (turi)ga kirishi da'vo qilinadi).

Solih Sosa:

الاستعارة: هي تشبيه بلغ حذف أحد طرفيه²

(Istiora balig³ tashbih taraflaridan birining tushib qolishidir). Ali Jorim, Mustafo Amin:

الاستعارة من المجاز اللغوي، وهي تشبيه خذف أحد طرفيه، فعلاقتها المشابهة دائمة.³

(Istiora lug'aviy majozdir, u ikki tarafidan biri tushirilgan tashbih, doim mushabbahga (ma'no jihatdan) bog'lanib turadi).

Atoulloh Husayniy: «Istiora majozning bir nav'idur. Majozning turli nav'lari bordur. Jumladan istiora uldurkim, yasoq va iroda etilgan ma'no orasindag'i aloqa o'xhashliqtur: sher lafziyu yuraklig kishi ma'nosidag'idek»⁴.

تَكَادُ تَمَيِّزُ مِنَ الْعَيْنِ كُلُّمَا أَلْقَى فِيهَا فُرْجٌ سَأَلَهُمْ حَرَثَتْهَا الْمُلْكُمْ تَذَرِّرُ

(U g'azabdan yorilib ketay deydi. Har qachon unga yangi guruh tashlanganda uning xizmatkorlari: «Sizlarga ogohlantiruvchi kelmaganmidi?» deb so'raydi (MS 67/8).

فَأَمْطَرْتُ لَؤْلَؤًا مِنْ نَرْجِسٍ فَسَقَتْ وَرْدًا وَ عَضَتْ عَلَى الْعَنَابِيِّ بِالْبَرِّ¹

(Nargisdan dur yog'ilib, atirgul uzra tushganda, u do'llar bilan

¹ أبو يعقوب يوسف السكري. مفتاح العلوم. مطبعة سلطاني النبي الحلي وأولاده بمصر. 1937. ص. 184.

² صالح ساسه. المتاجد في الإعراب والقواعد والبلاغة والعروض. دار الران للطباعة والنشر. ص. 345.

³ على جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعاني. البيع. القاهرة. 1999. ص. 77.

⁴ Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. -Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981. -Б. 219.

¹ Сайдумаров М. Ҳарирӣ мақомалари. -Т.: Комуслар бош таҳририяти. 1996. -Б. 70.

unnobni ezib turardi). Bu baytda o‘xshatish vositasi va o‘xshovchilar ko‘z, yonoq, yosh, tish va barmoq so‘z bilan ifodalanmagani uchun istiora bo‘la oladi.

Istioraning ruknlari uchta: المستعار منه (al-musta‘ar minhu), ذات المستعار (zātu-l-mušabbah bihi), المتشبه به (al-musta‘ar).¹

«Tuzilishiga ko‘ra bir so‘z yoki iboradan tashkil topgan istiora «sodda istiora», birikmali istioralar «murakkab istiora» sanaladi.

Istioralar tarkibiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi. O‘xhatilgan narsa yoki tushuncha, ya’ni mushabbah tushirilgan istioralar «istiorai musarraxa», o‘xshovchi, ya’ni mushabbihun bihi tushirilgani esa «istiorai makniya» deb ataladi».²

Istiora yoki boshqa she’riy san’atlarning lutf (san’at turi S.R.) bilan kelishi murakkab hollardan hisoblanadi va u shoirdan yuksak mahorat talab qiladi».³

«Istiora tashbihga yaqin bo‘lib, undan o‘zining ifodalanish usuli va ma’nosining kengligi bilan farqlanadi.

Istioraning yana asliyya, taba’iyya turlari ham bor.

Ifodalanishiga ko‘ra otlardan tashkil topgan istioralar «istiorai asliya», fe’llardan tuzilganlari esa «istiorai fe’liya» deyiladi.⁴ Istiorai fe’liyaga misol:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ «يَئْنَ رِبُّنَا تَبَارَكَ وَتَعَالَى كُلُّ لِلَّهِ إِلَى السَّمَاءِ الْأَنْعَمْ حَيْثُ يَقْعُدُ ثُلَّتُ الْأَنْوَافِ الْأَخْرُ فَيَقُولُ مَنْ يَدْعُونِي فَأَسْتَجِبْ لَهُ وَمَنْ يَسْأَلِنِي فَأَعْطِيهِ وَمَنْ يَسْتَغْفِرُنِي فَأَغْفِرْ لَهُ».

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Rabbimiz taborak va taolo har tun kechaning oxirgi uchdan biri qolgan paytda dunyo osmoniga tushadi va: «Kim menga duo qiladi, uni ijobat qilaman, kim menden so‘raydi, unga ato qilaman, kim mendan mag‘firat so‘raydi, uni mag‘firat qilaman, deydi» dedilar.

Bu istioradir. Ya’ni «dunyo osmoniga tushadi» so‘zleri ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lib, «kechaning uchdan biri qolgan vaqtida,

duo qiluvchilarning duolari shak-shubhasiz qabul qilinadi» ma’nosи iroda qilingan.¹

Atoulloh Husayniy istioraning fazilati haqida shunday deydi: «Istiora, balki umuman majoz yiroq bo‘lmay tab’qa ma’qulu maqbul bo‘lsa, so‘zning mukammal ziynatidur va fasohatu balog‘at arbobi qoshinda haqiqattin yaxshiroqtur»².

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Majozning ta’rifi qanday?
2. Majozning qismlari haqida ma’lumot bering.
3. Majozning qanday turlarini bilasiz?
4. Istioraning ruknlarini aniqlang.

3.5. Kinoya va uning turlari

Dars rejasি:

1. Kinoyaning mohiyati.
2. Kinoyaning turlari.

Tayanch iboralar: kinoya, mukanna, belgi, sifatlash, mavsuf.

1. Kinoyaning mohiyati. Bayon ilmida kinoya haqida uning ta’rifi va turlari tavsifланади. کنایه «kināyat(un)» so‘zi arabcha «يَسْأَلُونَ» کనی «kana» fe’lining (ma’nolari: 1. laqab qo‘ymoq, nom bermoq; 2. ishora bilan bildirmoq; shama qilmoq) harakat nomi (masdaridir. Ma’nosи belgi, ishora.

Kinoyaning istilohdagи ma’nosи haqida arab olimlari shunday deydilar, Ibn Manzur:³

الْكَنَاءُ أَنْ تَكَلَّمَ بِشَيْءٍ وَتَرِيدَ خَيْرَهُ وَكُنَّى عَنِ الْأَمْرِ بِغَيْرِهِ يَكْنِي كَنَاءً عَنِ إِذَا تَكَلَّمَ بِغَيْرِهِ مَا يَسْتَدِلُ عَلَيْهِ.

(Biror narsani gapirib, boshqasini nazarda tutsang kinoya. Ish, holatga o‘zidan boshqa nom beriladi. Kinoya qilish o‘shanga dalolat qiladigan boshqa (narsa)ni gapirishni bildiradi).

¹ http://islom.uz/content/view/3343/191/#_ftn7

² Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноийъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. –Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 219.

³ ابن منظور. لسان العرب <http://www.shamela.ws>

¹ حامد عوني. المنهج الواضح للبلاغة. الجزء الأول. دار الكتاب العربي بمصر. 1953. م. ص. 127.

² Хўжаев М. Чустий лирикасида истиора. Шарқшунослик. №2. 2001. –Б 3-5.

³ Хўжаев М. Ўша манба. –Б 3-5.

⁴ Хўжаев М. Ўша манба. –Б 3-5.

الكنية: أن تتكلّم بشيء وأنت ثرید به غيره¹: [bir narsani gapirib, boshqasini nazarda tutsang kinoya (bo'ladi)].
 Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy:² الكنية هي ترك التصریح بذكر الشيء على ما ذكر ما يلزمه لينتقل من المتكلّر على المتروك.
 (Kerak bo'lgan narsa ochiq-oydin ifodalanmaydi, balki boshqa biror narsani aytish orqali bildiriladi, kerakli ma'no aytilgan lafzdan aytilmaganga ko'chishi kerak).
 Jaloliddin Muhammad bin Abdurrahmon Qazviniy³: الكنية لفظ أربد به لازم معناه مع جواز إراده معناه حينذاك...
 (Kinoya kerakli mo'jiz...).

(Kinoya kerakli ma'nosini ifodalash mumkin bo'lgan so'z.)
 Atoulloh Husayniyning ta'rifi quyidagicha: ani ba'zida irdof ham derlar va ul andin iboratturkим, bir ma'noni anga lozimu tobi' ma'no uchun yasalg'an lafz bila ul tarzda ta'bir qilurlarkim, agar ul lafzning o'z yasog'in iroda qilsalar ham ravo bo'lur⁴.
 Buni arab olimlari طویل النجاد misol orqali izohlaydilar⁵:
 Ya'ni: «falonchi, uzun, qilichbog» «so'zlari qo'llangan jumlanı tushunish mumkin. Bulardan birinchisi jumlaning haqiqiy ma'nosini, ikkinchisi uning boshqa ma'nosini ifodalaydi. Har ikkala holatda ham jumla ma'noga ega va u to'g'ri hisoblanadi, lekin u kinoyada qo'llanganda ikkinchi ma'noga ishora qilinadi.
 Kinoyada aytigelan lafz «mukanna 'anhу» yoki «makniy 'anhу», nazarda tutilgani «mukanna bihi» yoki «makniy bihi» deb nomланади.

2. Kinoyaning turlari. Olimlar kinoyani sifat, mavsuf va nisbat turlarga ajratadilar.

¹ محمد بن محمد بن عبد الرزاق الحسيني، أبو القيس، الملقب بمرتضى، الزبيدي. تاج العروس من جواهر القلمون <http://www.shameela.ws>

أبو يعقوب يوسف السكاكى. مفتاح العلوم. مطبعة مصطفى النباتى الطبى وأولاده بمصر. 1937.

العنوان: جلال الدين أبو عبد الله محمد بن سعد الدين بن عمر القزويني. الإيضاح في علوم الديانة. دار بيروت، 1998.

⁴ Атоуллох Хусайний. Бадойиъ-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: F.Гуломномидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 221.

¹ أبو يعقوب يوسف السكاكى. المرجع السابق؛ عبد الرحمن حسن حبنة الميدانى. البلاغة العربية: أسلوب ورسالة. 1996. بيروت.

Ba'zan kinoya sifatlash orqali bo'lib, mavsuf (sifatlanuvchi) nazarda tutiladi, masalan, (so^zma-so^z: falonchi qo'li toza) misolida sifatlanuvchining aybsiz, halol ekani unga berilgan sifati orqali ifodalananmoqda va bu ibora «falonchi halol odam» ma'nosini anglatadi. Shuningdek, islom tarixida as-Siddiq, ya'ni «rostgo'y» sifati Abubakr (r.a.)ga, al-Foruq, ya'ni «donishmand» sifati Umar (r.a.)ga berilgani ma'lum¹ va ular ko'p hollarda o'z ismlari o'rniغا yuqoridagi sifat-so'zlar bilan atalganlar. Demak, bir kishiga berilgan sifat uning egasi, ya'ni sifatlanuvchiga ishora qiladi.

فَمَسَاهُمْ وَبِسْطُهُمْ حَرِيرٌ وَصَبَحُهُمْ وَبِنَطْهُمْ ثِرَابٌ²
 (Kech kirganda ipakka yotdilar, tongda ularni tuproqqa qordilar.)

«gilamlari ipak»dan jumlesi orqali ular hujumga uchrashlaridan oldin izzat-ikromda boʻlganliklariga ishora qilinsa, «gilamlari tuproq»dan jumlesi vositasida ular hujumdagi magʼlubiyatdan soʻng nochor ahvolda qolganlari ifodalanadi. Ikki holatda ham kinoya sifatlash bilan amalga oshirilgan³.

Kinoyaning mavsuf turida sifatlanuvchi orqali sifatga ishora qilinadi, masalan, «Dar al-salam» deganda Bog'dod, طيبة «Toyyiba» deganda Madinai munavvara tushuniladi. هو حارس على (so'zma-so'z: U moli ustida qo'riqchi) iborasi mol to'plab, undan foydalanmaydigan baxilga nisbatan aytiladi yoki shu ma'noda (so'zma-so'z: qo'li qisilgan) iborasi ham ishlataladi⁴ va bu kinoyalarda sifatlanuvchi orqali uning sifati ifodalangan.

Nisbat bilan ifodalangan kinoyada bir ish boshqasiga nisbat qilib yoki sifatlanuvchining sifatiga nisbatan aytildi. Masalan, العز (so'zma-so'z: izzat-ikrom uning uyida) iborasida «izzat-ikrom» uyga emas, shaxsga nisbatan aytilgan. Yoki النساء عين هذا

¹ <http://www.shamela.ws>: علي بن نايف الشعوبي، الخلاصة في علوم الملاعة:
² أبو الحسن علي بن أحمد بن محمد بن علي الواهبي، النسياوي، الشافعي، شرح <http://www.shamela.ws>

³ عبد الرحمن حسن جبتكة العيداني، *البلاغة العربية أساساً على مبدأ وظيفتها*، <http://www.shamela.ws>

³ بـ مجلس مسن جلسه العيداني، التلاعع العربيه اسيها وعلومها وقوتها، بيروت، 1996، ص. 1473-1474.

⁴ لي بن نايف الشحود. السرجع السابق.

الرجل (so'zna-so'z: bu kishining ko'zi to'la zakovat) iborasi kishining aqli, ziyrak ekaniga ishora qiladi¹. Bu yerda sifatlanuvchi «kishi»ga uning sifati «zakovatlik» nisbat qilingan.

Kinoya mukanna bihi va mukanna ‘anhu orasidagi vosita kamko‘pligiga ko‘ra qariba (yaqin) va ba‘ida (uzoq) turlarga bo‘linadi.

Qariba kinoyada mukanna bihi va mukanna ‘anhu orasidagi vosita kam bo‘ladi. Bu kinoya ochiq bo‘lib, unda maqsadni anglash oson. Masalan:

فَلَانْ ثُوَيْه طَوِيل، وَقَنْسُوْتَه كَبِيرَة، وَحَذَّارَه يَقْسِع لَقْدَمِينَ.

(Falonchining kiyimi uzun, bosh kiyimi katta va poyafzali keng) iborasi «u baland bo‘yli, katta boshli, katta oyoqli» yoki «uning bo‘yi baland, boshi va oyog‘i katta», ya’ni «yirik jussali» ma’nosini anglatadi.

Ba‘ida kinoya odatda ko‘plab masallarda bu kinoyaning yashirin turi uchraydi, u chuqur fikrlash orqali anglanadi, bu kinoyada mukanna bihini mukanna ‘anhuga bog‘laydigan vositalar ko‘p bo‘ladi. Uning ochiq kinoya turi ham mavjud. Masalan, فَرَاغ العَيْن («berilish», «ko‘z» so‘zlarining birikmasi) iborasi bilan hasad kinoya qilinadi. Ma'lumki, chiroqli narsani ko‘rgan kishi uni yoqtirib qolishi, yoqtirib qolgach unga erishishni xohlashi, xohish tufayli hasad qilishi mumkin. Bu misolda hasadga olib keluvchi vosita bir qancha. Lekin فَرَاغ العَيْن iborasining «hasad»ga kinoya tarzida ishlatalishi uni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni yashirmaydi².

Sakkokiy kinoyani ta‘riz, talvih, ramz va imo (yoki ishora) turlarga ajratadi¹.

Agar keltirilgan kalom aytilgandan boshqa narsaga dalolat qilsa va bu narsa vaziyat orqali bilib olinsa, ta‘riz bo‘ladi. Masalan:

¹ على بن نايف الشعوذ. الخلاصة في علوم البلاغة: <http://www.shamela.ws>

² عبد الرحمن حسن جبنكة الميداني. البلاغة العربية أساسها وعلومها وفنونها: <http://www.shamela.ws>

أبو يعقوب يوسف الساكتي. مفتاح العلوم. مطبعة مصطفى النباتي الطهي وأولاده بصر. 1937. Quarang: 3.

عبد الرحمن حسن جبنكة الميداني. المرجع السابق.

المسلمون من سليم المسلمين من لسانه وبيده

(Muslim musulmonlarga tili va qo‘li bilan yaxshilik qiluvchidir) orgali islam yomonning sifatini inkor qilishi nazarda tutilgan.

Mukanna bihi va mukanna ‘anhu orasidagi vositalari ko‘p bo‘lgan kinoya talvih deb atalgan. «Talvih»ning lug‘aviy ma’nosi kimadir uzoqdan ishora qilish. Masalan, فَلَان كثِير الرَّمَاد (falonchining kuli ko‘p) iborasi mehmondo‘st kishiga nisbatan ishlataladi. Kulning ko‘p bo‘lishi ko‘p olov yoqilishiga, olovning ko‘p yoqilishi ko‘p yemak pishirishga, bu esa eyuvchilarining ko‘pligiga, biror badaviy kimsa huzurida yeyuvchilarining ko‘p bo‘lishi uning mehmonlarni samimiy kutib olishiga va, nihoyat, o‘sha kimsaning sahiy mehmondo‘st ekaniga dalil bo‘ladi². Ko‘rinib turganidek, biror kishining kuli ko‘pligiga ishora qilish bilan uning mehmondo‘stligini anglash bir qancha vosita orqali amalgalama oshdi.

Kinoyaning ramz turida mukanna bihi va mukanna ‘anhu orasidagi vositalar kam bo‘ladi, bunda kinoya yashirin bo‘lishi kerak. Masalan, «tentaklik» tushunchasining عَرِيض الْفَقَا («keng ensa») yoki عَرِيض الْوَسَاد («keng yostiq») iboralari orqali ifodalananishi. Bu ibora «ensasi keng kishi, odatda, kaltafahim bo‘ladi va ensa keng bo‘lgach, uxlaganda keng yostiqqa ehtiyoj sezadi» degan tasavvurga asoslangan³. «Ramz»ning lug‘aviy ma’nosi o‘ziga yaqin turgan narsaga yashirin tarzda ishora qilishdir⁴.

Imo yoki ishora kinoyaning mukanna bihi va mukanna ‘anhu orasidagi vositalar ko‘p ham, yashirin ham bo‘lmaydigan turi¹. Masalan, Abu Tamimam Abu Sa‘idning saxiyiligiga ochiq-oydin, yashirmay ishora qiladi:

أَبْيَنْ فَمَا يَرْزُنْ سَيِّدَ كَرِيمٍ وَحَسْبُكَ أَنْ يَرْزُنْ أَبَا سَعِيدٍ

(Sahovatlari kishi (Abu Sa‘id) dan boshqani ziyyarat qilmayaptilar,

علي بن نايف الشعوذ. الخلاصة في علوم البلاغة: <http://www.shamela.ws>

² عبد الرحمن حسن جبنكة الميداني. البلاغة العربية أساسها وعلومها وفنونها: <http://www.shamela.ws>

³ عبد الرحمن حسن جبنكة الميداني. المرجع السابق.

⁴ على بن نايف الشعوذ. المرجع السابق.

¹ عبد الرحمن حسن جبنكة الميداني. المرجع السابق.

Abu Sa'идни зiyorat qilishlarining o'zi senga yetarlidir).

Bu kabi ochiq kinoyalar o'z tabiatiga mos ravishda imo yoki ishora deb atalgan. Chunki «imo» yoki «ishora»ning lug'aviy ma'nosi ochiq-oydin ishora qilishni anglatadi.

Demak, kinoya va uning xususiyatlari arab olimlari tomonidan ilk o'rta asrlardan boshlab o'rganila boshlangan. Keyingi olimlar bu borada ularning fikrlarini rivojlantirdilar. Kinoya nutq go'zalligi va ta'sirchanligini oshirish maqsadida arab xalq og'zaki va yozma ijodida keng qo'llanib kelinyapti.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Kinoya tushunchasiga ta'rif bering.
2. Kinoyaning qanday tarkibiy qismlari mavjud?
3. Ochiq kinoyaning belgilarini ayting.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Mumtoz adabiyotda majozning qo'llanilishi.
2. Turkiy (arab, fors) adabiyotda kinoya.
3. Istiora (xalq og'zaki ijodi namunalari misolida).

4-MAVZU. BADI' ILMI

4.1. Badi' ilmi va uning tasnifi

Dars rejajasi:

1. Badi' ilmi.
2. Badi' ilmining tasnifi.

Tayanch so'zlar: badi', badi' ilmi, muxassino-l-lafziyya, al-muxassino-l-ma'noviyya.

1. Badi' ilmi. Balog'at ilmining badi' bo'limida tilning yetukligini mumkin qadar namoyon qilish vositalaridan bo'lgan badiiy san'atlar o'rganiladi. Balog'at olimlari ularni san'at hosil qilishdagi xususiyatiga ko'ra ikki katta guruhga ajratadilar. Birinchisi, so'zning tovush jihatini e'tiborga olib hosil qilinadigan san'atlar bo'lib, ular المحسنات اللفظية (al-muxassino-l-lafziyya), ya'ni «lafziy go'zalliklar» deb ataladi. Ikkinchisi, so'zning ma'no tomoni hisobga olinadigan ma'noviy san'atlar bo'lib, ular المحسنات المعنية (al-muxassino-l-ma'noviyya), ya'ni «ma'no go'zalliklari» deb nomlanadi.

Badiiy san'atlar sharq filologiyasidan farqli o'laroq, g'arb filologiyasi va ular orqali bugungi kun o'zbek filologiyasida adabiyotshunoslik sohasida ko'rildi va u «badiiy» yoki «she'riy» san'atlar deb yuritiladi. Bu san'atlar turkiy xalqlar ijodida ham keng qo'llangan bo'lib, ularning tasnifi, ta'rifi va nomlari arabshunos olimlarning asarlari orqali o'zlashtirilgan va rivojlantirilgan.

2. Badi' ilmining tasnifi. Arab tilidagi manbalarda badiiy san'atlar «al-muxassino-l-lafziyya» (lafz go'zalliklari), «al-muxassino-l-ma'noviyya» (ma'no go'zalliklari) deb ataluvchi ikki guruhga ajratilgan. Bu borada arab balog'atchilari orasida munozara bo'lмаган va hozirgacha badi' san'atlar shu tasnif asosida o'rgatiladi. «Lafziy» atamasi san'at hosil qilishda so'zning aynan tovush jihatni e'tiborga olingan, «ma'noviy» atamasi san'at hosil qilishda so'zning aynan ma'no jihatni e'tiborga olingan san'atlarga qo'llanadi. Lekin lafziy san'atlarni hosil qilishda Sakkokiy ta'kidlaganidek, «lafz ma'noga tobe bo'lishi kerak».

Bugungi o'zbek adabiyotshunoslari orasida «...she'riy san'at shakl va mazmun birligidagina yuzaga chiqadi, faqat konkret holatda ulardan biri yetakchiroq mavqeda bo'lishi mumkin. Badiiy asar, ayniqsa, she'riy asar, qachonki ma'no ham, shakl ham go'zal bo'lsagina, haqiqiy san'at hodisasi hisoblanadi... She'riy san'atni tasniflashda «lafziy» va «ma'noviy» xususiyatlarni asos qilish u qadar to'g'ri emas¹, deb san'atlarni aynan lafz go'zalligi yoki aynan ma'no go'zalligi deb atashning to'g'riliqiga shubha bildiradilar.

Bu masalaga oydinlik kiritish uchun balog'at olimlariga murojaat qilish, ular tomonidan amalga oshirilgan badiiy san'atlar tasnifini o'rganish, balog'at ilmining rivojlanish jarayonlari bilan bog'liq o'zgarishlarni, arab, fors, turkiy, jumladan o'zbek olimlarining fikr-mulohazalarini e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. «Badi' ilmi» deganda nimani tushunasiz?
2. «Badi' ilmi»ning tarkibiy qismlari nimadan iborat?
3. «Badi' ilmi» bo'yicha yurtimizda kimlar izlanishlar olib borishgan?

4.2. «Lafziy san'atlar» tushunchasi

Dars rejasি:

1. Lafziy san'at turlari.
2. Lafziy san'atlarda tovushdoshlik xususiyati.

Tayanch so'zlar: **lafziy san'atlar**, «Miftohu-l-ulum» asari, lafz, tovushlar orqali, tovushdoshlik, yangroq tovushlar, noyangroq tovushlar.

1. Lafziy san'at turlari. Balog'at ilmining badi' bo'limiga kiruvchi san'atlar ko'p bo'lsa-da, arab balog'atiga bag'ishlangan aksar kitoblarda ularning faqat ko'p qo'llanadigan turlari haqidagina ma'lumot berilgan.

¹ Мамажонов З. Шеърий санъатларни таснифлаш масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиети. 2005. №6. –Б. 48-51.

Homid Avniy «Al-minhaju-l-vodih»da quyidagi lafziy san'atlar keltirilgan: jinos (tajnis), raddu-l-'ajz 'ala-s-sadr, aks, saj', izdivoj.¹

Ahmad Hoshimiyning «Javohiru-l-balogs'a» asarida yuqoridaqilardan tashqari tashrif, izdivoj, muvozana, tashri', luzum ma la yalzam, ma la yastahilu bi-l-in'ikos, muvoraba, i'tilofu-l-lafzi ma'a-l-lafzi, tasmit, insijom yoki suhula, iktifo', tattriz san'atlari haqida ham ma'lumot bor.²

Mumtoz manbalarga kelsak, Sakkokiyning «Miftohu-l-ulum» asariga lafziy san'atlardan tajnis (tajris tomm, noqis tajnis, muzayyal tajnis, muzori' tajnis, lohiq tajnis), ishtiqoq, raddu-l-'ajz 'ala-s-sadr, qalb, saj', tarsi' kiritilgan, «nuqtali-nuqtasiz harflardan ham go'zallik yaratish mumkin» ekani aytilgan³.

Atoulloh Husayniy lafziy san'atlarga «xat suvratig'a taalluqlug'« san'atlarni ham qo'shgan holda quyidagilarni kiritadi: tarsi', tajnisli tarsi', tajnis (lafz-i tajnis, tajnis-i noqis, tajnis-i muzayyal, tajnis-i muzori', tajnis-i lohiq, tajnis-i aks, tajnis-i muzdavaj, tajnis-i murakkab, g'ayr-i lafziy tajnis), raddu-l-'ajz mina-s-sadr, qalb (maqlub-i kull, maqlub-i ba'z, maqlub-i mujannah, maqlub-i mustaviy), saj' (saj'-i mutavoziy, saj'-i mutarraf, saj'-i mutavozin), mumosala, tashtir, tajziya, tasri', tasmit, aks, tardid, taattuf, tashri', zulqofiyatayn, tavshih, talavvun, tarofuq, maqrū ba nazmu nasr, maqrū-l-lug'atayn, mulamma', muqatta', muvassal, raqto, xayfo, jami'u-l-huruf, hazf, e'not, tazmin-i muzdavaj, mutazalzil, murabba', mu'aqqad, mudavvar, mushajjar, tavsim, mushokala.⁴

Atoulloh Husayniy «lafz» atamasiga «lafz» so'zining birinchi ma'nosi «og'izdan chiqarib tashlash» va «so'z aytish» bo'lib, uni so'zga nisbatan qo'llaganda so'zning tovush tomoni nazarda tutiladi⁵ deb izoh beradi. Demak, lafziy go'zalliklar tovushlar orqali hosil qilinadi.

¹ حامد عوني. المنهج الواضح للبلاغة. الجزء الثاني. دار الكتاب العربي بمصر. 1953. ص. 234-198.

² احمد هاشمي جواهر في المعاني و البيان و الديب. بيروت-لبنان. 2004. ص. 439-424.

³ أبو يعقوب يوسف السكاكى. مفتاح العلوم. مطبعة مصطفى النباتى الحلبي و أولاده بمصر. 1937. ص. 202-204.

⁴ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноий. Форсчадан А. Рустомов таржимаси. –Т.: Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1981. –Б. 35-121.

⁵ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Ўша манба. –Б. 39.

Badiiy asar yaratilayotganda, albatta, so‘zlarning ma’no jihat e’tibordan chetda qolmaydi, lekin lafziy san’atlarda tanlangan so‘zning ma’nosini ko‘zlangan maqsadga mos bo‘lib, tovushlari jihat san’at hosil qilishga halal bersa, tanlangan so‘zning ma’nodoshlari orasidan tovush jihatdan mos keluvchi shakli tanlanadi. Masalan, quyidagi misolga nazar solinsa:

لما اقعدت غارب الاغراب، وانلتني المترية عن الاتراب،
طوحت بي طواح الزمن، إلى صناء اليمن.

(G‘ariblik tulporiga minganimda va faqirlik do‘sstlarimdan uzoqlashtirganda, zamon oqimi meni Yaman Sanasiga olib ketdi)¹, unda so‘zlari lafziy san’atlardan biri ishtiqoqni hosil qilgan. O‘z navbatida لاتراب لاغرابة اتراب، مترية اتراب، طواحة اتراب، طواحة الزمن va so‘zlari va so‘zlari tajnis orqali saj’ hosil qilib turibdi. Bu tasodifiy emas, balki ohangdosh so‘zlar maxsus tanlangan.

Bu kabi kalom ohangdorligini ta’minlovchi vositalar tovushlarning o‘zaro munosabatga kirishishidan vujudga keladi. Lafziy san’atlar ma’noning go‘zal holatda taqdim etilishini ta’minaldi va estetik zavq uyg‘otib, unga bo‘lgan rag‘batning kuchayishiga olib keladi. Rag‘bat uyg‘otish ma’noni yetkazishdagi muhim qadamdir. Doimo go‘zallikka intiluvchi inson tabiatini o‘zi uchun zarur xabarlarni nutq orqali qabul qilishda ham uning go‘zal shaklga ega bo‘lganini tanlashga moyil bo‘ladi. Sayqallangan ma’noning go‘zal shaklga ega bo‘lishi komil kalomni yuzaga keltiradi.

Demak, lafziy san’atlarda so‘zlarning tovushdoshlik xususiyati birinchi o‘ringa chiqadi.

2. Lafziy san’atlarda tovushdoshlik xususiyati. Lafziy san’atlarning yuzaga kelishida tilning tovushdoshlik xususiyatlariga tayaniladi. Bu haqda olimlarimiz shunday deganlar: «Tildagi tovushlar tovushdoshlik nuqtai nazaridan bir xil emas. Ularni dastlab ikkiga bo‘lib, bir turini noyangroq, ikkinchi turini yangroq tovushlar deb atash mumkin. Eng noyangroq tovushlar lablanmagan va qisqa unlilardir... Noyangroqlik unli kengaygan sari kamayib boradi... Noyangroq tovushlar ohangdoshlik paydo qiladi.

Yangroqdoshlik bilan ohangdoshlik birlashganda jarangdoshlik vujudga keladi. To‘liq yangroqdoshlikda hamma yangroq tovushlar bir xil bo‘lsa, chala yangroqdoshiikda ularning bir qismigina bir xil bo‘ladi... Agar tartibli yangroqdoshlik va ohangdoshlik birlashsa, to‘liq lafzdoshlik vujudga keladi. To‘liq lafzdoshlik tilshunoslikdagi omonimiya (shakldoshlik yoki mutashokillik)»dan farq qiladi... San’atda tenglikdan ko‘ra uyg‘unlik muhimroq. Lekin to‘liq lafzdoshlikning to‘liq omonimiya bilan tenglashishini ham hisobga olib, bunisini tugal lafzdoshlik deb ataymiz. Ammo bu lafzdoshlikning qutbi bo‘lib, shu yerda lafzdoshlik tugaydi...»¹

Arab balog‘atchilarla lafzdoshlikdan hosil bo‘lgan bunday san’atlarga yuqorida ta‘kidlanganidek, saj’, tajnis, ishtiqoq, raddu-l-‘ajz ila-s-sadr, tarsi’ni kabi san’atlarni kiritadilar, ayrim olimlar² iqtibosni ham qo‘shadilar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Lafziy san’atlarning xususiyatini aniqlang.
2. «Miftohu-l-ulum» asarida qaysi lafziy san’atlar keltirilgan?
3. Tilning tovushdoshlik xususiyatlari haqida ma’lumot bering.

4.3. «Ma’noviy san’atlar» tushunchasi

Dars rejasi:

1. Ma’naviy san’at turlari.
2. Badiiy san’atlarning ajam xalqlariga xos tasnifi.

Tayanch so‘zlar: lafziy san’atlar, ma’noviy san’atlar, lafziy-ma’noviy san’atlar.

1. Ma’naviy san’at turlari. Badiiy san’atlar sirasiga kiruvchi ma’noviy san’atlarni hosil qilishda so‘zning ma’no tomoni hisobga olinadi va ular «al-muhas-sanotu-l-ma’noviyya», ya’ni «ma’no go‘zalliklari» deb nomlanadi.

Balog‘at ilmi asoschisi Abu Yoqub Yusuf as-Sakkociy

¹ Сайдумаров М. Харирий макомалари. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти. 1996. –Б. 72.

على جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعاني. الدينج. القاهرة. 1999. ص. 308.

«Miftohu-l-’ulum» asarida ma’noviy san’atlarga tavriya, tiboq, muqobala, husnu-t-ta’lil, tiboq (mutobaqa, ittidod), muqobala, mushokala, muro’otu-n-nazir, muzovaja, laff va nashr, jam’, tafriq, taqsim, jam’ ma’a tafriq, jam’ ma’a taqsim, jam’ ma’a tafriq va taqsim, iyhom, tayjih, suqu-l-ma’lum masoqa g’ayrih (boshqalarda tajohulu-l-orif), i’tirod, istitbo’, iltifot, taqlilu-l-lafz kabilarni kiritgan¹.

Jaloliddin Muhammad bin Abdurrahmon Qazviniy «Talxisu-l-miftoh»da mutobaqa ((tiboq, ittidod), tiboqu-l-ijob, tiboqu-s-salb), iyhom muqobala, muro’otu-n-nazir, tanosib, iyhomu-t-tanosib, irlsod (tashim), mushokala, muzovaja, aks, ruju’, tavriya (iyhom), istaxadd, laff va nashr, jam’, tafriq, taqsim, jam’ ma’a-t-tafriq, jam’ ma’a-t-taqsim, jam’ ma’a-t-tafriq va-t-taqsim, tajrid, mubolag’a, mazhab kalomiy, husnu-t-ta’lil, tafri’, ta’kidu-l-madh, istibto’, idmoj, tayjih, tajohulu-l-orif, ittirod kabi san’atlarni qayd etgan².

Zamona olimlaridan Homid Avniyning «Al-minhaju-l-vodih» kitobiga kiritilgan ma’noviy san’atlar mutobaqa, muqobala, mushokala istixdom, tavriya, laff va nashr, tayjih, iqtibos, jam’, tafriq, taqsim, mubolag’a, husnu-t-ta’lil, ittilofu-l-lafz ma’a-l-ma’na, husnu-l-ibtido’, husru-l-xitamdir³.

Ahmad Hoshimiyy «Javohiru-l-balogs» asarida quyidagi ma’noviy san’atlar haqida ma’lumot keltiradi: tavriya, istixdom, istidroj, iftonon, tiboq, muqobala, muro’otu-n-nazir, irlsod, idmoj, al-mazhabu-l-kalomiy, husnu-t-ta’lil, tadrij, mushokala, muzovaja, tay va nashr, jam’, tafriq, taqsim, al-jam’ ma’a-t-tafriq, al-jam’ ma’a-t-taqsim, mubolag’a, mug’obara, ta’kidu-l-madh bi-ma yushbihu az-zam, ta’kidu-l-madh bi-ma yushbihu al-madh, tayjih, nafsi-sh-shay’ bi-l-ijaba, mavjib, tafri’, istitbo’, as-salb va al-ijob, ibdo’, al-uslub al-hakim, tashobihu-l-atrof, aks, tajohulu-l-orif⁴.

Atoulloh Husayniy aytadi: «Bu ikki nav’dur. Biri uldurkim jami’ arab fuqarosi va ajam shuarosi qoshida sanoyi’ga kirur.

¹ -200. ابو يعقوب يوسف الساكتي. مفتاح العلوم. مطبعة مصطفى انتسابي الحلبي و أولاده بمصر. 1937. ص. 202

² O’ZRF Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. №402 raqamli qo’lyozma. 30b-35a varaqlar.

³ .218-200. حامد عوني. المنهج الواضح للبلاغة. الجزء الثاني. دار الكتاب العربي بمصر. 1953. ص. 200-202. احمد هاشمي جواهر في المعاني والبيان والتبيّع. بيروت-لبنان. 2004. ص. 387-420.

Ikkinchı nav’i uldurkim ajam shuarosi qoshinda sanoyi’ turkumidindur, ammo arab fusahosining bari bir bo’lub, ani nutqning zotiy go’zalliklaridin deb hisoblapturlarkim, aning bayoni ma’oniy ilmi va bayon ilmining vazifasidur, va badiyyat sanoyi’idin deb hisoblampurturlarkim, aning bayoni badi’ ilmining vazifasidur, holbuki tamhidda zikr etilganidek ul oriziy go’zalliklardindur¹.

Birinchi turga quyidagi san’atlarni kiritadi: tajvih, iyhom, ta’kidu-l-madh bimo yashbahu-z-zam, ta’kidu-z-zam bimo yashbahu-l-madh, istibto’, idmoj, ta’liq, hazlun murodu bihi-l-jidd, tajohulu-l-orif, talmih, irlsolu-l-masal, kalom-i jomi’, mazhab kalomiy, husnu-t-ta’lil, tafri’, tahakkum, jam’, tafriq, taqsim, jam’ u tafriq, jam’ ma’a taqsim, jam’ ma’a tafriq va taqsim, jam’ ma’a taqsim ma’a-l-jam’, laffu nashr, maqbul mubolag’a, tablig’, ig’roq, g’uluvv, mardud g’uluvv, iyg’ol, takmil, tazyil, tatmim, e’tiroz, tavshi’, izoh, ruju’, tadoruk, takrir, tarji’, itnob, musovot, iyjoz, istitrod, tafsir, tajrid, tag’lib, iltifot, uslub-i hakim, qavl bi-l-mujib, savolu javob, ibdo’, muammo, lug’a, izhoru-l-muzmar.²

Bulardan itnob, musovot, iyjoz arab balog’atida ma’oniy ilmida o’rganiladi. Atoulloh Husayniy ularga shunday ma’rif beradi: «itnob uldurkim, lafz ifoda tufaylidin aytil mish ma’nog’ a nisbatan ortiq bo’lur», musovotga «agar lafz aytil mishning asli miqdorida bo’lsa, ani musovot derlar» va iyjozga «agar lafz aytil mishning aslidin ozroq bo’lsa, ko’p ma’no ozg’ina lafz bila ado etilsa, ani iyjoz derlar»³.

Shuningdek, u ««Talxis» sohibi» Qazviniy «takrir, tavshi’, e’tiroz, iyg’ol, tazyil va tatmimni itnob qabilidin deb» bilganini ko’rsatib o’tadi.

U ikkinchi tur san’atlarga quyidagilarni kiritadi: tashbih, tashbih-i mutlaq, tashbih-i kinoyat, tashbih-i mashrut, tashbih-i tasviyyat, tashbih-i aks, tashbih-i izmor, tashbih-i tafzil, istiora, tamsil, kinoya, ta’riz.¹

¹ Атоуллох Хусайнин. Бадойиъ-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. -Т.: F.Фулом номидаги Алабиёт ва санъат нашриёти, 1981. -Б. 122.

² Атоуллох Хусайнин. Ўша манба. -Б. 122-209.

³ Атоуллох Хусайнин. Ўша манба. -Б. 175.

¹ Атоуллох Хусайнин. Ўша манба. -Б. 201-222.

Bu san'atlar arab balog'atida bayon ilmi tarkibida o'rganiladi. Atoulloh Husayniy, shuningdek, bu san'atlar borasida Shams-i Qaysning muhim fikrini keltiradi: «...istioralar, tashbihlar barchasi ijyoz bobidindur. Iyg'ol, takmil, tabyin, tafsir, taqsim, istirod, tafri' va hokazo ortiqcha bayon yoki shubhani bartaraf etish uchun iste'mol qilingan san'atlarning bari suxan basti qabilidindur». Bast haqida «Bast... itnobqa nisbatan xususiyroqtur»¹ deydi.

Demak, balog'at olimlari kalomning ma'noviy va lafziy jihatlarini farqlaganlar, shu jihatlardan qay biriga xizmat qilishini e'tiborga olib, san'atlarni ham ikki turga ajratganlar va mos ravishda ma'noga husn bo'lganlarini «al-muxassino al-ma'noviyya», lafzga husn bo'lganlarini «al-muxassino al-lafziyya» deb ataganlar. Bu atamalar ularning mazmun-mohiyatini ochiq ifodalab turibdi.

2. Badiiy san'atlarning ajam xalqlariga xos tasnifi. Balog'at ilmi Sakkokiya qadar arab tili doirasidan chiqib, ajamlar orasida ham yoyilgan va har bir tilning badiiy ifoda imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yonma-yon rivojlanib borayotgan edi. Natijada badiiy san'atlarning ta'rifi, turlari, ularga mos misollar bilan ta'minlangan asarlar yaratildi. Ulardan o'rin olgan san'atlar turlariga ko'ra maxsus ajratilmagan bo'lsa-da, yuqoridagi tasnifga mos keluvchi tartibga ega edi.

XII asrga kelib Sakkokiylar balog'atning arab tili uchun maxsus tizimini ishlab chiqqan davrda, ham arab, ham fors tillarida yozilgan, ajam xalqlari orasida mashhur bo'lgan asarlar mavjud edi.

Mana shu davrdan boshlab arab tili balog'ati Sakkokiylar tasnifi asosida o'z rivojini davom ettirdi. Fors tili balog'atida Sakkokiying bayon va badi' borasidagi qarashlari davom ettirildi, ma'oniy masalalari esa arab tilining lingvistik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ko'p jihatdan fors tiliga mos kelmagani tufayli o'zlashtirilmadi, faqat ayrim umumiy jihatlar qabul qilindi. Shuning uchun ham XVI asrga kelib Atoulloh Husayniy fors tilida yaratgan asarida san'atlarning Sakkokiynikidan qisman farq qiluvchi tasnifini yaratdi. Bu ularning lafziy, ma'noviy va lafziy-ma'noviy turlarga ajratilgani bilan xarakterlanadi. Turkiy tillarda

¹ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадиийу-с-саноийӣ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: Г.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 175.

holat bir oz boshqacharoq. Bu tillarda badiiy ijod yuksak cho'qqilarga ko'tarilgan bo'lsa-da, nazariy jihatdan arab va fors tillaridagi manbalarga suyanilar edi.

Bizning davrimizgacha XV asrda Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy tomonidan forscha uslubda tartib berilgan bir asar yetib kelgani ma'lum. Bu asar o'z ichiga nafaqat badiiy san'atlar, balki Sakkokiylar va Husayniy asarlari kabi qofiya, aruz masalalarini ham qamrab olgani bilan o'zbek adabiyotshunosligi uchun qadrlidir.

Demak, sharq badiiyatida san'atlarning ikki xil tasnifi mavjud. Birinchisi faqat arab balog'atiga xos bo'lgan tasnif: lafziy san'atlar va ma'noviy san'atlar. Ikkinchisi ajam xalqlariga xos tasnif: lafziy, ma'noviy va lafziy-ma'noviy san'atlar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ma'naviy san'atlarning xususiyatini aniqlang.
2. «Miftohu-l-ulum» asarida qaysi ma'naviy san'atlar keltirilgan?
3. Badiiy san'atlar ajam xalqlari orasida qanday tasnifga ega.

MUSTAQIL TA'LIM MATERIALLARI BADIY VOSITALAR

Lafziy san'atlar

Saj'

Tovushdoshlikning o'zi bir necha ko'rinishlarga ega bo'lib, bular nutqqa turli miqdor va darajada husn bag'ishlaydi. Bularning eng husndori va eng ko'p foydalilaniladigani so'z oxiridagi tovushdoshlik bo'lib, bundan so'z ustalari tomonidan nazmda qofiya va nasrda saj yasaladi¹. Masalan: xalq bularning tovushdoshligini hisobga olib saj'ga shunday ta'rif beradi: «السجع يكون في النثر ، كالكافية في الشعر كقولك ما من جدٍ وجد ، الكذب داء و الصدق شفاء ، لا تعمل الخير رباء و لا ترکه حياء kabi sajli maqollarni yaratgan.

(saj') سجع (g'uv-g'uvlamoq (kaptarlarga nisbatan); qofiyali nasrda yozmoq) fe'lining masdaridir. Sakkokiy saj'ga shunday ta'rif beradi: السجع يكون في النثر ، كالكافية في الشعر كقولك ما (saj') nasrda xuddi she'rdagi qofiya kabi bo'ladi).

Balog'at ilmida saj'ning hosil bo'lishi uchun aynan tovushlar mutanosibligi zarur shart ekani hisobga olinib, badi' ilmining lafziy san'atlari² qatorida o'rganiladi. Chunki saj'da so'zning tovush jihatni e'tiborga olinadi, ma'nosi esa saj' san'ati hosil qilishda ishtirok etmaydi, ammo ayni vaqtida ma'no e'tiboriga ko'ra hosil bo'luchchi tavriya, tiboq, mugobala, husnu-t-ta'lil va boshqa san'atlardan biri yoki bir yo'la bir nechtasining hosil bo'lishida qatnashadi.

Saj' haqida Burhoniddin Atoulloh Mahmud Husayniy o'zining «Badoyi'u-s-sanoyi» asarida «Arabiyat ahlining bir toifasi nazdida nasrg'a xosdur va bu toifa saj'ni nasr fosilalarining oxirg'i harfta muvofigqlig'idin iborat deb bilipturlar. Fosiladan murod ul so'zdirkim, aning tufaylidin kalom qarinlari, ya'ni bo'laklari bir-biridin ayrilib turg'ay. Bu san'atta, qaerda zikr etilmasun, oxirg'i harftin murod so'z o'zagidagi qofiya raviysi yanglig' amalda

¹Qarang: Рустамов А. Сўз хусусида сўз. -Т.: Ёш гвардия. 1987. -Б. 14.

²Qarang: مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان، المعاني. البنيان. القاهرة. 1999. ص. 308.

bo'lg'an oxirg'i harf yoki o'shul harfsqa o'xshash o'zga bir harftur» deydi³. Bu ta'riflar saj' san'ati faqat so'zlardagi tovushlar mutanosibligi orqaligina amalga oshishini ko'rsatadi.

Atoulloh Husayniy «Miftoh»⁴ sohibi, saj', ya'ni nasr bo'laklari oxiridagi so'zlar she'rdagi qofiya kibidur deputur. Ravshan va mashhuri ham aning ushbu qavlidur» deb Abu Yoqub Yusuf as-Sakkokiyning ta'rifiga ishora qiladi va saj'ning ta'rifida ixtilof bo'lganidek, uning turlarini aniqlashda ham ixtilof borligini ta'kidlab shunday deydi: «Bir toyifa derkim, aning nav'lari uchdur: saj'-i mutavoziy, saj'-i mutarrraf, tarsi'. Bu toifa tarsi'ni alohida san'at deb bilmaslar va ani nasrg'a xos deb bilurlar. Ikkinci bir toifa derkim, tarsi' saj' nav'laridin emastur, ul alohida san'attur va aning uchinchi nav'i saj'i mutavozindur»⁵.

Lekin ko'pchilik sharq filologlari saj'ni Atoulloh Xusayniy tasnifiga mos ravishda uch, ya'ni mutavoziy, mutarrraf, mutavozin turlarga bo'ladilar. Jumladan, XV asrda yashagan Shayx Ahmad Taroziy badiiy san'atlarga bag'ishlangan «Fununu-l-balogs'a»⁶ asarida saj'ni nazmga nisbatan qo'llaydi va Husayniyy tasnifiga mos keluvechi saj'u-l-muwozana, ya'ni mutavozin, saj'u-l-mutavoziy va saj'u-t-tarafa, ya'ni mutarrraf turlarga ajratadi.

«Saj'-i mutavoziy ohangdosh raviyodosh lafzdoshlikdan iborat»⁷, ya'ni saj' hosil qilayotgan so'zlar ham vaznda, ham tovushlarda o'zaro mutanosiblikka ega bo'ladi. Masalan, «qalam» bilan «alam», «jur'at» bilan «sur'at» singari. Haririyan maqomasidan misol:

طوحت بي طواح الزمن إلى صناع اليم (Zamon oqimi meni Yaman Sanasiga olib ketdi)⁸

¹ Атоуллох Хусайнин. Бадойиу-с-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. -Т.: Ф.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1981. -Б. 62.

² Абу Ёкуб Юсуф ас-Саккокийнинг (1160-1228) араб балоғат илми ҳақидаги «Мифтоҳу-л-ъулум» асари назарда тутилган.

³ Атоуллох Хусайнин. Ўша маңба. -Б. 62.

⁴ Асар ҳақида qarang: Шайх Ахмад Тарозий. Фунуну-л-балога. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1994 йил 18 марта.

⁵ Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. -Т.: Ф.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1979. -Б. 99.

⁶ Сайдумаров М. Харирий мақомалари. -Т.: Қомуслар бош таҳририятни. 1996. -Б. 72.

تبا لك من خريج مارق و تلميذ سارق (Sendek itoatsiz shogirdga va o'g'ri o'quvchiga la'nat bo'lsin).¹

Bu misollarda سارق-مارق va الزمن من الزمن so'zlari saj'-i mutavoziy hosil qilgan.

«Saj'-i mutarraf nobo'g'indosh raviydosh lafzdoshlikdan iborat, ya'ni so'zlar vaznda va tovushlar sonida farq qiladi, lekin oxirgi harflari o'zaro mos bo'ladi.»² Masalan: «hol» bilan «ahvol», «nas» bilan «miras» kabi.

(An سلاح الناس كلام الحديد و سلاحكم الادعية و التوحيد) (Barcha odamlarning quroli temirdan, sizning qurolingiz esa da'vat etish va birlashishdir)³.

Bu misolda سلاح التوحيد bilan so'zlari saj'-i mutarraf hosil qilgan.

«Saj'-i mutavozin yangroqdosh ohangdosh lafzdoshlikdan iborat, ya'ni saj' hosil qilayotgan so'zlar vaznda mutanosib, lekin tovushda farqli bo'ladi».⁴ Masalan: «nazm» bilan «nasr», «nosir» bilan «sodiq», «qallob» bilan «dalol» kabi.

(تودى الناطق والصامت) (Notiq ham, somit ham nobud bo'ldi).⁵

Bu misolda الصامت bilan سلاح الناطق so'zlari saj'-i mutavozin hosil qilgan.

Shuni ham ta'kidlash joizki, o'rta asrlardan boshlab hozirga qadar ko'pchilik ajam olimlari Sakkokiyning saj'ga bergen ta'rifini qabul qilgan bo'lsalar-da, unga o'z munosabatlarini bildirib, takomillashtirishga harakat qilganlar ham bor. Shuning uchun bu saj'ning ta'rifi masalasida xilma-xillik vujudga kelgan⁶, masalan: «Saj' lug'atta qumrining sayrashini va islohda jumladagi so'zlarning vaznda bir xil bo'lishini ifodalaydi» (Husayin Voiz Koshifiy), «saj'... ikki jumla oxiridagi ikki so'zning tengligidan iborat» (G'iyo'siddin bin Jaloliddin), «...so'zlovchi o'z gapida yo vaznda, yo harfiy raviyda, yoki har ikkisida bir-biriga o'xshagan so'z keltiradi»

¹ Сайдумаров М. Харирӣ макомалари. –Т.: Комуслар бош таҳририяти, 1996. –Б. 62.

² Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Т.: F. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –Б. 99.

³ Сайдумаров М. Ўша манба. –Б. 63.

⁴ Рустамов А. Ўша манба. –Б. 99.

⁵ Сайдумаров М. Ўша манба. –Б. 63.

⁶ Мальумот олинган манба: Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётida сажъ. –Т.: Фан, 1978. –Б. 13-15.

(«Abduqahhor bin Ishoq») va h.k.; hozirgi Eron va Turkiya adabiyotshunoslari orasida, masalan: «...saj' hamvazn bo'limgan, ammo qofiyalangan so'zlardan iboratdir» (Habibullo Omuzgor va b.), «...yozuvchi yoki so'zlovchi o'z gapida vazn yo so'nggi harfda, yo har ikkalasida mos so'zlarni keltiradilar» (Do'iy Javod), «Saj' kalomi mansurda ikki fosilaning oxirlarining harfi vohid uzra kelmisina derlar».

Saj'ning ta'rifi va turlari hamda xususiyatlarini sinchkovlik bilan tadqiq qilgan B. Sarimsoqov «Saj' o'z xususiyatlari jihatidan ma'noviy-lafziy san'at hisoblanadi. Chunki u muayyan asardagi mazmunni yorqin ifodalabgina qolmay, balki nozik so'z o'yinlari, ifodaning ohangdorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi»¹ fikri bilan saj'ga bo'lgan an'anaviy yondashuvni o'zgartiradi.

O'zbek arabshunosi M. Saydumarov² o'zining Haririy maqomalariga bag'ishlangan tadqiqotida saj' san'atining badiiy xususiyatlari, saj'ning tarkibi, uning badiiy-uslubiy xususiyatlarini tahlil qiladi.

B.Sarimsoqovning saj'ga munosabati, M.Saydumarovning saj'ga «tarkibi, uning badiiy-uslubiy xususiyatlari» jihatdan yondashuvi, bu san'at hozirgi zamон o'zbek adabiyotida «o'zbek folklori va yozma adabiyotidagi saj' quruq shakliy bezak bo'lmay, balki muhim g'oyaviy estetik vazifa bajaruvchi san'at hisoblanadi»³ mezoniga asoslanganini ko'rish mumkin.

Lekin arab tilida saj' badiiylik hosil qilishda faqat fonetik vosita hisoblangan.

Tajnis

Tovushdoshlikni talab qiluvchi san'atlardan yana biri jinosdir. jinos (تاجنیس) san'ati (tajnis) deb ham yuritiladi. «Jinos»ning lug'aviy ma'nosi jinsdoshlikdir. Uning istilohdag'i ta'rifi shunday:

الجنس أن يتشابه اللفظان في النطق و يختلف في المعنى

Badi' ilmida talaffuzda o'xshash bo'lib, ma'no jihatdan farq

¹ Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётida сажъ. –Т.: Фан, 1978. –Б.12.

² Сайдумаров М. Харирӣ макомалари. –Т.: Комуслар бош таҳририяти, 1996.

³ Исҳоков Ё. Сўз санъати сўзлиги –Т.: Zarqalam, 2006. –Б. 51.

qiladigan ikki so'z jinosni tashkil qiladi, ya'ni bu tushunchaga «paronim va omonimlarga asoslangan badiiy tasvir vositalari mujassamlashgan»¹.

Jinos so'zlardagi tovushlarning mosligiga va imlosiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Uning «Talxisu-l-miftoh»²ga ko'ra quyidagi turlari mavjud:

الجنس التام (jinosu-t-tomm). (at-tajnisu-t-tomm) (at-tajnisu-t-tasrih) deb ham yuritiladi³. Bunda ikki so'z to'rt jihatdan, ya'ni tovushlarning turi, shakli, soni va tartibiga ko'ra mos keladi, lekin ma'nio jihatdan farq qiladi⁴. Bu haqda Atoulloh Husayniyning yanada aniq ta'rifi bor, ya'ni tajnis-i-tommida turli ma'noli so'zlar talaffuz jihatdan to'la mos keladi, ya'ni ulardagi harflarning soni, turi va tartibi, shakli, qisqa unlilari va unlisiz undoshlari, undoshlarning ikkilanishi va yakkalanishi, unlilarning cho'ziq va qisqa talaffuzi bir xil bo'ladi⁵. Bunday so'zlar tilshunoslik nuqtai nazaridan omonimlarga to'g'ri keladi. Omonimlar orqali jinosning mumosil, mustavfiy turlari hosil qilinadi.

المثال (al-mumosil)da jinos hosil qilayotgan so'zlar bir xil so'z turkumiga xos, ya'ni yoki faqat ism, yoki faqat fe'l, yoki faqat harf bo'lishi kerak. «Talxisu-l-miftoh»da keltirilgan misol: ساعه (qiymat kuni) (vaqt).

المستوفي (al-mustavfiy) so'zleri ikki xil so'z turkumiga xos bo'lgan jinos. Misalan, «hayot» so'zining fe'li, ism: يحيا وَسَمِّيَةٌ يَحْيَا فَلَمْ يَكُنْ إِلَى رَدِّ أَمْرِ اللَّهِ فِيهِ مُنْبِئٌ

(Alloh yo'lida hech qachon Uning amriga qarshi bormay yashasin deb uni Yahyo deb atadim).

¹ Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг «Мафотиҳ ал-улум» асарида поэтика (Арз, кофия, бадиият илми истилоҳлари тарихига оид). –Т., 2001. –Б. 52.

² O'Z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, № 514. –C. 35b; Bu asar Abu Yoqub Yusuf as-Sakkociyning «Miftohu-l-ulum» asariga yozilgan qisqartmadir, muallifi Muhammad b. Muhammad b. Abdu-r-Rahmon al-Qazviniy.

³ Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Т.: F. Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –Б. 37.

⁴ على جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعانى. البدىع. القاهرة. 1999. ص. 265؛ صالح سليم.

⁵ المنجد في الإعراب والقواعد والبلاغة والعروض. دار الرائد للطباعة والنشر. ص. 363.

¹ Qarang: Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиу-с-саноийъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: F. Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 39. 294.

² على جارم، مصطفى أمين. المرجع السابق. ص. 263.

(jinosu-t-tarkib) lafzlardan biri birikmadan iborat bo'ladi. U quyidagi ikki turga bo'linadi:

المتشابه (al-mutashobih) har ikki lafz yozuvda bir xil shaklga ega bo'ladi. Misalan: ذاہبۃ ذاہبۃ (ketuvchi hadya)

المفروق (al-mafruq) har ikki lafz yozuvda turli shaklga ega bo'ladi. Misalan: لا جام لنا جامنا: لا جام لنا ما الذي ضرّ مدير الجام لو حاملنا

كلم قد أخذ الجام ولا جام لنا ما الذي ضرّ مدير الجام لو حاملنا (الحرف) (al-muharrif) lafzlarning qisqa unlilari va unlisiz undoshlari, undoshlarning ikkilanishi va yakkalanishi, unlilarning cho'ziq va qisqa talaffuzi turlicha bo'ladi². Misalan: الْبَرْدُ الْبَرْدُ (النقص) (an-noqis) so'zlardagi harflar soniga ko'ra farq qiladi. Bunday jinos uch turlidir:

ساق مساق: 1. So'z boshida bitta harf ortiq bo'ladi. Misalan: آنست من قلبي القساوة حين حللت ساءة.

(Men Savaga kelganimda yuragim siqliganini sezdim).³

Misolda ساق ساواة so'zi so'ziga nisbatan [q] tovushining ortiqligi bilan farq qiladi.

جَدَ جَهْدٌ: 2. So'z o'rtasida bitta harf ortiq bo'ladi. Misalan: كَانَ اللَّهُ وَ لَا مَكَانٌ وَ هُوَ الْأَنْ عَلَى مَا كَانَ (Alloh taolo bo'lgan, biror makon bo'lman, U hozir oldin qanday bo'lsa o'shandaydir). ما كان.

عواصِ عواصِ: 3. So'z oxirida bitta harf ortiq bo'ladi. Bu turni mutarraf deb ham ataydilar. Misalan: وَ شَرُّ شَرِ الحَسْدُ وَ انتِياب النَّوَابِ السُّودُ

(Yomon hasadning eng kuchlisi keldi, oq (yaxshilik) o'rniga qora (yomonlik) navbatni oldi).¹ Bu misolda شَرُّ شَرِ so'zleri birinchi turini mutarrafning uchinchi turini, so'zi حسْدٌ so'zleri birinchi turini hosil qilgan.

«Talxisu-l-miftoh»da noqis jinosning uchinchi turi haqida

¹ رشيد الدين وطوطاط. حدائق السحر في بقائق الشعر. ترجمة إبراهيم أمين الشواربي ، المركز القومي للترجمة ، القاهرة ، ط 2 ، 2009 . م. ص. 97.

² Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиу-с-саноийъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: F. Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 39-40.

³ Сайдумаров М. Ҳарирӣ макомалари. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1996. –Б. 54.

⁴ <http://www.ahlalhdeeth.com/vb/showthread.php?t=210859>

⁵ Сайдумаров М. Ўша манба. –Б. 61.

so'zning ortiq harflari bittadan ko'p bo'lsa, muzayyal deb atovchilar ham borligi aylib o'tilgan. Masalan: الجوى الجوانح.

Atoullohusayniy tajnis-i-noqis haqida uni tajnis-i muxtalif va tajnis-i muharraf¹ deb ham atalishini ta'kidlaydi va «Tal-xisu-l-miftoh» bo'yicha muharraf jinosga mos keluvchi ta'rifni tajnis-i-noqis nomi bilan keltiradi. «Talxisu-l-miftoh»da noqis jinosga mos keluvchi ta'rif esa «Badoyi'u-s-sanoyi»da tajnis-i-muzayyalga to'g'ri keladi. Bu ma'lumot ba'zi tasniflarda jinosning «noqis» va «muharraf» atamalari bir-biridan farqlanmaganini va olimlar o'rtasida noqis, muharraf va muzayyal jinoslar ta'rif-larida chalkashliklar borligini ko'rsatadi².

البعضان (al-mudori') jinos hosil qilayotgan lafzlardagi tovushlardan biri orasida farq bo'ladi va bu farq qiluvchi tovushlarning maxraji o'zaro yaqin bo'lishi shart. Jinosning bu turida evfoniya³ hodisasi kuzatiladi. Mudori' jinos farq qiluvechi tovushlarning so'zdag'i o'rniغا ko'ra uch turli bo'ladi: so'z boshidagi farq, masalan:

(دامس طامس) ليل دامس و طريق طامس.

So'z o'rtasidagi farq, masalan: هم ينهون عنه و يتّون (ينهون بنون) عنهم;

كان رسول الله صلى الله عليه وسلم إذا خرج من بيته قال: «بِسْمِ اللَّهِ، تَوَكَّلْتُ عَلَى اللَّهِ، وَلَا حَذْرَ مِنْ فُورَةِ الْإِلَهِ، اللَّهُمَّ إِنِّي أَعُوذُ بِكَ أَنْ أَضْلَلَ أَوْ أَرْزَلَ، أَوْ أَظْلِمَ أَوْ أَظْلَمَ، أَوْ أَجْهَلَ أَوْ يُخْجِلَ عَلَيَّ». ا

(Rasululloh (s.a.v.) uylaridan chiqayotgan vaqtida: «Allohga tavakkal qilib, Uning nomi bilan chiqaman. Gunohdan saqlanishga bo'lgan quvvat ham, toat qilishga bo'lgan toqat ham faqatgina Allohdandir. Ey Rabbim, adashishdan yoki adashtirilishdan yoki toyilishdan yoki toyiltirilishdan, zulm qilishdan yoki mazlum bo'lishdan, johillik qilishdan yoki menga johillik qilinishidan

¹ Qarang: Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноий. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 39.

² Qarang: Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Ўша манба..

³ Qarang: Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг «Мафотих ал-улум» асарида поэтика. (Аруз, кофия, бадният илми истилоҳлари тарихига оид). –Т., 2001. –Б. 54; Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. –М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. –С. 340.

O'zingdan panoh so'rayman», der edilar»). أصل أزلٌ so'zlarida [d] va [z] tovushlarining maxrajlari yaqin.

Hidisda keltirilgan duoda Rasululloh (s.a.v.)ning nutqlaridagi fasohat va balog'atni ko'rish mumkin.

أَرَى أَمْ سَهَلٌ مَا تَرَانَ تَقْعُدُ ثَلُومٌ وَمَا أَذْرِي عَلَمٌ تَوَجَّعُ

(Past ketib, kasal qilishda, azob berishda davom etayotgan Ummu Sahlni ko'ryapman, azoblayotgan alamni bilmayapman). وجع فجع.

الخيل الخير. So'z oxiridagi farq, masalan:

ايها السادر في غلوایه السادل في خیالاته

(Ey, haddidan oshganini bilmagan,

Ey, qaysarlik to'nini kiygan).

Bu baytda va so'zları oxiridagi maxraji bir-biriga yaqin [r] va [l] tovushlari bilan mudori' tajnis hosil qilgan.

اللاحق (al-lohiq) mudori' kabi jinos hosil qilayotgan lafzlardagi tovushlardan biri orasida farq bo'ladi. Lekin bu tovushlarning mahraji yaqin bo'lmaydi. Bu turdag'i jinos ham uch turli bo'ladi:

همزة لمة;

تقرون تمرحون;

اللهُمَّ إِنِّي أَصُولُ وَبِكَ أَحُولُ وَبِكَ أَسِيرُ (Allahum! Sening madading ila himmatlanaman, Sening madading ila gunohdan tiyilaman, Sening madading ila safarga chiqaman). أصول أحول وسِير

امر امن: so'z oxiridagi farq, masalan:

عَنْ أَبِي بَكْرِ الصَّدِيقِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ أَنَّ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ سَلَّمَ أَنْجَعَ؟ قَالَ: الْعَجْ وَالْأَجْ³

(Abu Bakr Siddiq (r.a.)dan rivoyat qilinadi: «Nabiy (s.a.v.)dan qaysi haj afzaldir?» deb so'radilar. U zot: «Baland ovozda talbiya aytigani va qon oqizilgani», dedilar. الشَّجَعُ وَالْأَجْعَاجُ (الشَّجَعُ الْأَجْعَاجُ) so'zları tajnis.

Ma'lum bo'lganidek, jinosning mudori' va lohiq turlari paronim so'zlar vositasida hosil qilinadi.

التجنيس القلب (tajnis-i-qalb) Atoullohusayniy ma'lumotiga ko'ra

¹ <http://arabicmegalibrary.com/pages-6679-11-131.html>

² Сайдумаров М. Ҳаририй мақомалари. –Т.: Комуслар бош таҳририяти, 1996. –Б. 61.

³ <http://islamweb.net/ahajj/article/136262/>

bu xil jinos tajnis-i-aks deb ham yuritiladi va ayrim olimlardan tashqari «Miftoh» sohibi, barcha arab arboblari va ajam shoirlari tajnis-i-qalbni tajnis turi deb hisoblamaydilar va uni xat san'ati hisoblanangan qalb san'atiga kiritadilar¹.

التجنس المزدوج (tajnis-i-muzdavaj) ketma-ket kelgan so'zlar ham o'zaro jinos hosil qiladi². Bu san'at juftlash san'ati bo'lib, uning yana «الزدواج الترمي المزدوج» va «izdivoj» nomlari ham bor.³ U mukarrar, muraddad deb ham ataladi. Tajnis-i-muzdavaj ham to'liq, ham to'liq bo'lmagan jinoslar orasida hosil bo'ladi. Masalan, Abu Nuvas aytadi:

عَبَّاسٌ عَبَّاسٌ إِذَا احْتَمَ الْوَغْيَ وَالْفَضْلُ فَضْلٌ وَالرَّبِيعُ رَبِيعٌ⁴

(Jang alanga olsa bas, xo'mrayib olar Abbas, al-Fazl (Ibnu-r-Rabi') fazilatlidir, ar-Rabi' ibn Yunus unib-o'suvchidir)

Bu misoldagi عَبَّاسٌ عَبَّاسٌ فَضْلٌ وَالرَّبِيعُ رَبِيعٌ⁴ so'zleri ham o'zaro to'liq izdivojni hosil qilgan.

Yana bir misol, Abu Tammom aytadi:

يَمْدُونَ مِنْ أَنْبِيبِ عَوَاصِمٍ تَصْنُولُ بِسَيْفِ قَوَاضِبِ⁵

Bu baytdagi قَوَاضِبِ va so'zleri o'zaro, so'zleri o'zaro to'liq bo'lmagan izdivojni hosil qilgan.

Bu san'at arab balog'atida tajnis tarkibiga kiritilgan, boshqa adabiyotlarda alohida san'at hisoblanadi.

Tarse'

Tarse' (الترصيع) san'ati, arab olimlari fikricha, nazm yoki nasrdagi ikki bo'lak kalomning bir bo'lagidagi har bir lafz ikkinchi bo'lagidagi unga muqobil lafz bilan vaznda teng bo'ladi va oxirgi harfda mos yoki yaqin bo'ladi. «Al-Mu'jam al-vasit»da tarsi'ning إنَّ [Albatta ularning qaytishi Bizgadir. So'ngra, albatta, ularning hisob-kitobi ham Bizdadir. (G'oshiya 88/25-26)]

¹ Qarang: Атоуллох Хусайнин. Бадойиъ-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 45.

² صالح ساسه. المنجد في الإعراب و القواعد و البلاحة و العروض. دار الران للطباعة و النشر. ص. 364.

³ Qarang: Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –Б. 35.

⁴ على جرام، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة، البيان، المعانى، البيان، القاهرة، 1999. ص. 266.

misoli bilan keltirilgan ta'rifi:

الْأَعْجَاز كَوْلَه تَعَالَى إِنَّ إِلَيْنَا يَأْتِهُمْ ثُمَّ إِنَّ عَلَيْنَا حِسَابُهُمْ .
إِيَاهُمْ حِسَابُهُمْ إِنَّ إِلَيْنَا إِنَّ عَلَيْنَا .

Bu misolda tarse': Ajam shoirlarining fikricha, oxirgi harflar ham mos bo'lishi kerak.

«Tarsi’ lug‘atta oltun, kumushga javohirni o‘rnatmoqni ayturlar. Va istiloh birla tarse’ ul bo‘lurkim, har kalimakim, avvalg‘i misra’da kelur, so‘ngg‘i misra’ning har kalimasin o‘z kalimalarining muqobalasinda kelturub, vazn birla muofiq va lafz birla muttafiq va oxir harf birla muttahid qilurlar¹, netokkim, Kalomi majidu furqoni hamidta kelibtur:

إِنَّ الْأَبْرَارَ لَفِي نَعِيمٍ وَإِنَّ الْفَجَرَ لَفِي حَيْمٍ²

(Yaxshilar jannatiydurlar, buzuqlar do‘zaxiy)³.

Tarsi’da tovushlar mosligiga talab kuchli bo‘ladi.

Tavzi'

Tavzi’ (توضیح) «Tavze» so‘zi «ulashish», «tarqatish» ma’nolariga ega.

«Mazkur san'atda bir xil tovushni barcha so‘zlarga ulashib chiqishni nazarda tutib «tavze» deb ataganlar. Bu san'atni «tovushdoshlik» deb atasak bo‘ladi»⁴.

«Tavzi’ shunday san'atki, bunda shoir yoki umuman so‘zlovchi o‘z fikrini ifodalash uchun yangroqdosh, ya’ni bir xil yangroq tovushga ega bo‘lgan so‘zlardan foydalanadi. Masalan, arabchada كُنْتْ كَذِبًا فَكَنْ تَكُورَا turkiyda «Toqatim toq o‘ldi to bo‘ldim talabgoring sening» misraida «تَ» bilan boshlangan so‘zlardan «Jahon jonon jamolingga tasadduq» misraida «جَ» bilan boshlangan so‘zlardan foydalanib tavzi’ vujudga keltirgan.

Hamma holatlarda ham mazkur san'atdan to‘g‘ri foydalanilgan,

¹ Qarang: Атоуллох Хусайнин. Бадойиъ-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 35.

² Ахмад ибн Худойод Тарозий. Фунуну-л-балога. А.Хайитметов нашрага тайёрлаган. –Т.: Хазина.1996. –Б. 84;

³ http://fikr.uz/blog/Sharq_mumtoz_poetikasi_Birinchi_kitob/15679.html

⁴ Рустамов А. Кофия нима? –Т.: Фан, 1976. –Б. 8.

chunki yangroq doshlik tufayli ma'noga zarar yetkazilmagan».¹

E'not

E'not tovushdoshlikka asoslangan badiiy san'atlardan biridir. Bu atama arabcha *أغنت* fe'lining masdari bo'lib, «qiyin holga solish», «qiyinab qo'yish» ma'nolariga ega. Atoulloh Husayniy uning «tazyiq», «tashdid» va «iltizom-i luzum mo lo yalzam» deb ham yuritilishi va bu nomlarning eng so'nggisi mashhur ekanini ta'kidlab o'tadi².

E'not lafzda yanada ortiqroq go'zallik hosil qilish uchun qo'llanadi. Arab balog'ati olimlardidan «Miftohu-l-'ulum» («Ilmlar kali-ti») muallifi Abu Yoqub Yusuf Sakkociy (555/1160-626/1229) va «Talxisu-l-Miftoh» («Miftoh»ga qisqartma») asari muallifi Jaloliddin Muhammad bin Abdurrahmon Qazviniyning (v.e. 739/1339) fikriga ko'ra e'not saj' yoki qofiyada raviydan oldin zarur deb hisoblanmasa ham bir yoki bir necha maxsus harakat yoki muayyan harf keltitish bilan hosil qilipadi.³

Rashid-i Vatvot shunday ta'rif beradi:

يكون بأن يتكلف الكاتب أو الشاعر شيئاً ليزيّن به كلامه، و لا يكون هذاشيء لازماً، ويستقيم الكلام ويتم بدونه، لأن يتلزم في آخر الأسجاع أو آخر الأبيات حرف قبل حرف الروي أو الرديف، بحيث إذا لم يتلزم له لم يكن هنا لك ذلك، لأن غرضه من التزامه لم يكن إلا لتنقية الكلام وتزيينه.^٤

(Bu shunday san'atki, uni kotib yoki shoir zarur bo'lmasa ham kalomni bezash uchun qo'llaydi. Kalom usiz ham tugal bo'ladi. U xuddi saj'ning oxiri va baytlar so'nggidagi raviy yoki radif tovush (harf)lardan oldin qo'yiladigan harflar kabi bo'ladi. Uni qo'llamasang ham zarari yo'q, chunki uni qo'llashdan maqsad kalomga zeb berishdan boshqa narsa emas).

¹ Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Т: Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –Б. 34.

Атоуллох Хусайнний, Бадойнъ-санойиль, Форсчадан А. Рустамов таржимаси.
—Т.: F.Гулом номидаги Алабиёт ва сийах чончилийн мактаба.

³ Атоуллох Хусайнний. Ўша манба. 1981. —Б. 102-103.

⁴ رشيد الدين وطواط. حدانق السحر في دقائق الشعر. حدانق السحر في دقائق الشعر. ترجمة إبراهيم أمين الشواربي . بيروت: أحمد الجول، ، المركز القومي للترجمة ، القاهرة ، ط 2 ، 2009 م. ص. 119.

Va davom etadi: رقم، نتم so'zlaridagi [t] va عتاب، کتاب so'zlaridagi [q]. so'zining qofiya qilinishi o'rinli، رقم va علم رقاب صواب so'ziga [q]. Lekin kalomni yanada go'zal va jozibali so'zlarida ham shunday. Bo'lishi uchun [t] ga iltizom qilingan عتاب، کتاب va [q] ga iltizom qilingan رقم، نتم juftliklar tanlanadi.

Qur'ondan quyidagi misol keltiriladi: **فَإِنَّ الْيَتِيمَ فِلَامَ تُهْزِئُ وَأَمَّا السَّائِلُ فَلَا** [Ammo yetimga qahr qilma. Va, ammo, «soil»ga zajr qilma (MS 93/9-10)]. Bu yerda **تُهْزِئُ** va **تُهْزِئُ** so‘zlaridagi [h] e’notdir.

Fosihlar gapidan misol: **وْجَهٌ وَسِيمٌ وَفَضْلَهُ جَسِيمٌ** (Yuzi go'zal, fazilati yuksak), **وَسِيمٌ وَجَسِيمٌ** so'zlaridagi [s] e'not. Bu misolda raviy [m] tovush (harf)idir. Ayrim olimlar raviydan oldin kelgan ikki [a], [i] va [s] ni iltizom qilingan desalar, boshqa toifalar [i]ni iltizom deb hisoblamaganlar. Bu yerda [s] ning iltizomligi uning qofiya uchun shart emasligida va «**كَرْبَمْ**» «**وَسِيمٌ**» ga ham qofiya bo'la olishidadir. «**جَسِيمٌ**» va «**وَسِيمٌ**» ning qofiyasida ehtiyojdan ko'ra ortiq holat vujudga kelgan va bu har ikki so'zda [s] larning mos kelganidadir.

Shuningdek, Atoulloh Husayniy aslida lozim bo‘limgan ketma-ket kelgan ikki harf orqali e‘not hosil qilinishi mumkinligini ham ta’kidlaydi¹. Masalan: buni «hoyil» va «moyil», «zoyil» so‘zlarida qofiya uchun zarur bo‘lmasa ham, raviydan oldin keltirilgan [o] va [y] toyush (harf)larida ko‘rish mumkin.

U shunday deydi: «...raviy oldida (aslida) lozim bo'limg'an ikki harf iltizom qilinibdur va alar [o] va [y]dur, chunki agar «dil» va «qotil» so'zlarin «moyil» va «zoyil» so'zlari bila qofiya qilinsa, joyizdur»².

Atoullohu Husayniy e'not haqida ma'lumot berar ekan, Sharaf Romiyning boshqa olimlar kabi fikrini va uning quyidagi misollarini keltirib o'tadi: «sharob», «shabob», «shitob»dagi [sh], «tashrif», «ta'rif», «tasrif»dagi [t] va [r] luzum mo lo yalzamdir.¹

¹ Атоуллох Хусайнний. Бадойнъ-у-санойнъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. — Т.: Елшум номидагы Адабиёт ва санъат нашриети. 1981. — Б.103.

² Атоуллох Хусайнний. Ўша манба. -Б. 103.

¹ Атоуллох Ҳусайнний. 1981. Ўша манба. -Б. 103.

E'not ayrim olimlar tomonidan «iltizom» deb ham yuritiladi.¹ Lekin u baytda tovushning emas, balki so'zning qofiyadan boshqa o'rirlarda qaytarilishidan hosil bo'ladi².

Ba'zi olimlar iltizomni alohida san'at hisoblaydilar.
E'not mumtoz shaxs.

E'not mumtoz shoirlar asarlarini bezab kelgan badiiy san'at turlaridan biri bo'lib, hosil qilishdagi o'ziga xos murakkabliklar uni tajnis kabi keng qo'llanishiga monelik qiladi.

Yaqin va O'rta Sharq xalqlari og'zaki ijodi hamda adabiyotiga xos fonetik san'atlar fikrni ravon, ohangdor ifodalashda, o'quvchi va tinglovchiga emotsiyonal zavq berishda, tasvir va ayrim holatlarning yodda qolishini osonsoylashtirishda ahamiyati katta.

Muqatta'

Muqatta' (المقطع) so'zi arabcha bo'lib, ikkinchi bob majhul daraja sifatdoshidir, uning lug'aviy ma'nosi «bo'lak-bo'lak bo'lgan». Atama sifatida ham shu ma'noga tayanilgan. Chunki muqatta'da harflar bir-biriga ulanmay yozilishi kerak. Buning uchun harflari o'zaro ulanmay yoziladigan so'zlar tanlanadi. Bunday so'zlar asosan bir tomondan ulanadigan harflardan tashkil topgan yoki faqat oxirida ikki tomondan ulanib yoziladigan harflardan biri ishtirok etgan so'zlardir. Muqatta'ning ikki turi bor. Ulardan birida baytdagi so'zlarning barchasi bir-biriga qo'shilmaydigan, ya'ni faqat ikki ko'rinishli harflardan tashkil topadi, boshqa turida to'rt ko'rinishli harf ham ishtirok etadi, ammo yozuv qoidasiga ko'ra ajratib yoziladigan holatda, ya'ni so'zning oxirida bo'ladi. Ayrim san'at ustalari muqatta'ning har ikki turini birgalikda qo'llaganlar Masalan, ushbu misradagi kabi:

وأدرک أن زرت دار ودوی دزا و دزا و وزدا و وزدا

(Men mahbubning uyiga sut, dur, suv va atirgul olib boraman). Bu misraning ikkinchi bo'lagi bir-biriga ulanmaydigan harflardan

¹ ملا هادی، بن المهدی السبزواری، الراح الفراح. صحنه و قدم له و علی علیه مجید هادی زاده. تهران. 2002.
² Рустамов А. Навоийнине баронати.

ملا هادي بن المهدى السبزوارى، الزواج المراج، ص ٢٣٠ - ٢٣١.
Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. -Т: F.Улом номидаги Адабиёт ва
санъат нашриёти, 1979. -Б. 53.

¹ رشيد الدين وطواط. حدائق السحر في دفانق الشعر. ترجمة إبراهيم أمين الشواربي، تقديم أحمد الخولي، المركز القومى للترجمة، القاهرة، ط٢، 2009. م.ص. 165.

tashkil topgan, birinchi bo'lagida har ikki tomondan qo'shilib yozilishi mumkin bo'lgan «ڭ», «ن», «ت» harflari qo'llangan bo'lsada, ular so'z oxirida kelgani va o'zidan oldin ulanmaydigan harf turgani uchun alohida ko'rinishda yozilgan, natijada misradagi birorta harf bir-biriga qo'shila olmagan.

Muvassal

Muvassal (الموصل). Xat orqali hosil qilinadigan san'atlardan muvassal deb nomlanuvchisi muqatta'ning aksi bo'lib, unda harflari o'zaro ulanib yoziladigan so'zlar tanlanishi kerak. «Muvassal» so'zi ham ikkinchi bob majhul daraja sifatdoshi bo'lib, «ulangan» ma'nosini anglatadi. Bu yozuv san'ati ikki turli bo'lib, uning birinchi turida so'zlar faqat ikki tomondan qo'shilib yoziluvchi harflardan tashkil topadi. Masalan:

تَجْنِي فَجَنَّتِي تَجْنِي بَتْجِنْ يَقْنَ غَبْ تَجْنِي

(U meni maftun etib, berahmlarcha bir jinoyatlari ketidan kevingi jinoyatlari bilan aqldan ozdirdi).¹

Bu baytlardagi hamma so'zlar ikki tomonidan ulana oladigan harflardan tarkib topgan. Shu sababli ular qo'shib yozilganda, bir-biriga uzlusiz ulana oladi va quyidagi ko'rinishga keladi:

Bu tarzagi yozuv imlo jihatdan noto'g'ri bo'lsa-da, ko'rib zavq olish uchun mo'ljallangan bunday san'atni hosil qilishda qoidaga zid borish mumkin bo'lgan.

Bu xat san'atining «muvassal ka-asnoni-l-minshor» deb ataluvchi turi mavjud bo'lib, uni hosil qilishda faqat «tishli» harflardan iborat so'zlar tanlanadi, ularni o'zaro ulab yozish arra tishlariga o'xhash ko'rinishni keltirib chiqaradi. Atoulloh Husayniy bu turga ushbu misolni keltiradi:

بپیشترین شیوه تیس بایستی

Bu bayt aslida quyidagichadir:

شب تب پیش بتی بنشستی نیستی سنت بتب تب بستی

(Isitma bor kechasi bir but [go'zaɪ] oldida o'tirding,

¹ Сайдумаров М. Ҳарий макомалари. –Т.: Комуслар бош таҳририяти. 1996. –Б. 77.

Isitmadan sust emassan, isitmaning oldini olding)¹.

Muvassalning ikkinchi turida so'zlarning hammasi ham keyingisiga ulanavermaydi, ya'ni ularning bir tomondan ulanadigan harf bilan tugashi bunga mone'lik qiladi. Masalan:

إِنِّي يُعْظَمُنِي كُلُّ حَرٍ وَّيُبَشِّرُنِي مِنْ أَيَادِهِ بُرْدًا²

(U meni bor sahiylik bilan siylaydi, o'z karami bilan menga burda (chakmon, to'n) kiydiradi)

Mazkur baytda ayrim so'zlarda keyingisiga qo'shila olmaydigan harflar ishtirot etgan, shuning uchun baytdagi so'zlar ulanib yozilganda uzilish hosil bo'ladi va quyidagi ko'rinishga keladi:

إِنِّي يُعْظَمُنِي كُلُّ حَرٍ وَّيُبَشِّرُنِي مِنْ أَيَادِهِ بُرْدًا

Shoirlar muvassalning boshqa turlarini ham yaratganlar va ulardan birini «muvassal bi-l-harfayn» deb ataganlar. Bu ikki harf, ya'ni ikkita-ikkita bo'lib ulanishdir. U ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchisi, ulangan ikki harfning so'nggisi keyingi harfga ulanmaydigan harf bo'ladi. Ikkinchisi esa, so'nggi harf ulana oladi, lekin yozuv qoidasiga ko'ra ulanmaydi. Quyidagi forscha ruboiyda muvassal bi-l-harfaynning har ikkala yo'li o'z ifodasini topgan:

ساقِي بَايدِ جَوْ كَاسِهِ بِرْ مِي سِرْ مَا جَانَا فَرْمَانُو هُمْ تَوقَفُ بِرْ مَا
كَرْ سَاغِرْ مَا پَرْ نَدَهْ يَانَدَهْ فَرْمَا بَدَهْ جَلَكْ تُو سَاغِرْ مَا.

(Soqiy, bizning boshimiz sog'ardek mayga to'la bo'lishi kerak. Ey jon, sen ham, marhamat ustimizda to'xta!

Agar bizning sog'arimizni to'la tutmasa yoki butunlay bermasa, Buyur, sening chokaring bersin bizning sog'arimizni).³ Bu ruboiyning birinchi bayti muvassal bi-l-harfaynning ikkinchi yo'li, keyingi bayt birinchi yo'li orqali hosil qilingan.

Xuddi shunday ikki yo'l orqali muvassalning muvassal bi-s-salosa uchta-uchta ulanish, muvassalu-l-arba'a to'rtta-to'rtta ulanish kabi turlari yaratilgan. Masalan, forscha misol:

بِيَا بِنَا كَهْرْ جَفَا بَجَدْ خَطَا شَمَرْ لَقَانَهْ نَكَرْ كَهْرْ بِيَا بَكُو صَفَا نَظَرْ
(Kel, ey but, bizga boq, jafoni jiddiy ravishda xato hisobla!

¹ Qarang: Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъу-с-саноӣ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981. –Б. 94, 326.

² رشید الدین و طوطاط. حدائق السحر فی دفاتر الشعر. ترجمة إبراهيم أمين الشواربي، تقدیم أحمد الغولی ، المركز

³ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъу-с-саноӣ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981 –Б. 95, 327.

Yuz ko'rsat, ey yaxshi gavhar, kel, «ko'zga nur!» degil!)¹

Bu baytda muvassal bi-s-salosaning birinchi turi qo'llangan. Quyidagi forscha misol muvassalu-l-arba'aning ikkinchi turiga asoslangan:

سخنم بشنوينکر بعطا بکشش بلقا مکسیس بجفا

(So'zimni eshit, Atoga qara, uni vaslga tort, jafoғa tortma!)²

Muhammad Ali Tahonaviy muqatta' va muvassalning qo'llanishi to'rt xil bo'lishini ta'kidlaydi. Bular: 1) birinchi misra muqatta' bo'lsa, ikkinchi misra ikkitadan muvassal, uchinchi misra uch harfli, to'rtinchisi misra to'rt harfli; 2) muqatta' harflar miqdori muvassal harflarga teng; 3) bir harf uzilgan, uch, to'rt yoki undan ortiq harf ulangan; 4) muqatta' harflar ishtirot etmaydi³.

Atoulloh Husayniy ham muqatta' va muvassal birgalikda qo'llanishini e'tirof etadi va misollar keltiradi. Masalan:

دارد آزار و درد ازو زود دوا

جويد خاطر بر سه هر کو بدعا

غير خبر لقائش شهر شفا

بنما صنما پیکر نیکو بعطا

(Ko'ngilning undan ozoru dardi bor, shuning uchun u kelgan bir kishidan duo bilan tez davo istaydi. Yuz ko'rishish xabaridan o'zgasi shifo shahdi bo'lmadi, shuning uchun, ey sanam, go'zal paykaringni Atoga ko'rsat!)⁴

Mazkur ruboiyning birinchi misrai muqatta' va ikkinchisi muvassal bi-l-harfayn, uchinchisi muvassal bi-s-salosa va to'rtinchisi muvassalu-l-arba'ada yozilgan.

Raqto

Raqto (الرقطاء). Yozuv san'atlaridan yana biri raqto deb ataladi. «Raqto» deb oq va qora nuqtalari bor qo'yga aytildi. San'at sifatida kalomdag'i har bir so'zning biri nuqtali, biri nuqtasiz harflardan

¹ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Ўша манба. –Б. 95, 327.

² Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъу-с-саноӣ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981 –Б. 95, 327.

³ محمد على الشهابي كتاب اصطلاحات الفنون والعلوم. بيروت. 1996. ص 1054/2-1054/2.

<http://www.shamela.ws>

⁴ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Ўша манба. –Б. 96, 328-329.

iborat bo'lishi bilan xarakterlanadi. Raqtoning yuqoridagi kabi ta'rifi asarida ham kelgan: «أرشيف ملتقى أهل الحديث» تتوالى حروف كلماتها: «مقامات الحريري» kitobida raqto qo'llangan misollar borligi ta'kidlangan. Jumladan:

أَخْلَاقُ سَيِّدِنَا ثَعْبَنَ وَبِعَفْوِهِ يُلْبَى وَقُرْبَةُ ثَعْبَنَ وَنَيَّةُ ثَعْبَنَ وَخُلْتَهُ نَسْبَ وَقْطِيْعَةُ
نَصْبِيَّةُ ثَعْبَنَ سَبَقَ مُبَرِّرٍ فَطِنْ مُغْرِبُ عَزْوَفُ غَيْوَفَ.

(Xo'jayinning axloqi jozibali, uyi o'ziga tortadi, unga yaqin bo'lish zavqli, nayi halokatli, u bilan do'st bo'lish faxr, chorvasini boqish azobdir)².

الحيفاء (xayfo). Navbatdagi san'at xayfo deb ataladi. Agar kalom nuqtasiz so'z, undan keyin nuqtali so'z tartibida tuzilsa, xayfo san'ati qo'llangan bo'ladi. Misol:

إِسْمَخْ فِيْثُ السَّمَاحِ زَيْنٌ وَلَا تَخْبِثْ أَمْلًا تَضَيِّفْ
وَلَا تُجْزِرْ رَذْ ذِي سَوَابٍ فَنَّ أَمْ فِي السَّوَالِ خَفَّ.

(Sahiy bo'l, sahovat bezaydi, umidlarni aldama, mehmondo'st bo'l).

Soilni rad etishlariga yo'l qo'yma, u tortinsa ham, qattiq talab qilsa ham).³

«Xayfo» deb bir ko'zi qora, ikkinchisi ko'k bo'lgan otga aytiladi.

Jomi'u-l-huruf

Jomi'u-l-huruf (جامع الحروف). Jomi'u-l-huruf san'atida alifboning barcha harflari takrorsiz qo'llanishi kerak, lekin ikkita so'zda takrorlansa bo'ladi¹. Boshqa ta'rifda:

جامع الحروف عند البلغاء يطلق على الكلم المركب من جميع حروف التهجي بدون تكرار أحدتها في لفظ واحد، أما في لفظين فهو جائز. ويجوز إطلاقه على ما جمعت فيه حروف التهجي إطلاقا.

(Jomi'u-l-huruf kalomdagi alifbo harflarini takrorlamaslik

¹ 180/80 ارشيف ملتقى أهل الحديث. ص. 180/80 <http://www.shamela.ws>.

² Сайдумаров М. Харирӣ макомалари. –Т.: Комуслар бosh таҳририяти. 1996. –Б. 78.

³ Сайдумаров М. Ўша манба. –Б. 77.

أبو محمد القاسم بن علي الحريري. مقامات الحريري. طبعه بيروت. 1873 ص. 169/1 <http://www.shamela.ws>

¹ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: F.Улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981. –Б. 99.

kerak, lekin bittasini ikki so'zda takrorlash mumkin).¹ Masalan: (محمد رسول الله والذين معه أشداء على الكفار رحمة بينهم تراهم ركعا سجداً بيتفاغون فضلاً من الله ورؤسوانا سيماهم في وجوههم من أثر السجود ذلك مثلهم في التوراة ومثلهم في الإنجيل كزرع آخر شطاء فائزه فاستغلاظ فاسقى على سوقه يعجب الزراع ليغطيه بهم الكفار وعد الله الذين آمنوا وعملوا الصالحات منهم مغفرة وأجرًا عظيمًا كما تحوي هذه الآية أيضا كل أشكال الخروق العربية الأساسية. فمثلًا رغم غياب الياء المنفصلة (أو في آخر الكلمة) إلا أن الآلف المقصورة في كلمة استوى لها شكلاها.

[Muhammad Allohnning Rasulidir. U bilan birga bo'lganlar kofirlarga shiddatli, o'zaro rahimdildirlar. Ularni Allohdan fazl va rozilik tilab, ruku' va sajda qilgan hollarini ko'rursan. Ularning siyimosi sajda asaridan yuzlarida (balqiydi). Ana o'sha, ularning Tavrot va Injildagi misollaridir. Bu xuddi urug'ini yorib chiqarib, quvvatlanib, yo'g'onlashib, poyasida tik turib, dehqonlarni ajablantirgan bir ekinga o'xshaydi. Kofirlarning g'azabini qo'zish uchun. Alloh ulardan iyomon keltirib va solih amallarni qilganlarga mag'firat va ulug' ajrni va'da qildi (MS 48/29)].

ثُمَّ أَنْزَلْنَا عَلَيْكُمْ مِنْ بَعْدِ الْعُمُرِ أَمْنَةً نَعَمَّا يَعْشَى طَاغِيَةً مِنْكُمْ وَطَاغِيَةً قَدْ أَهْمَتُمْ أَنفُسَهُمْ يَطْهُرُونَ بِاللَّهِ غَيْرِ الْحَقِّ طَنَّ الْجَاهِلِيَّةَ يَقُولُونَ هُنَّ لَنَا مِنَ الْأَمْرِ مَنْ شَاءُ فَلَمْ يَكُنْ فِي أَنفُسِهِمْ مَا لَا يَنْدُونَ لَكُمْ لَوْ كَانَ لَنَا مِنَ الْأَمْرِ شَيْءٌ مَا قُتِلْنَا تَاهِيَّةً فَلَمْ يُؤْتَمْ لِبَرَزَ الَّذِينَ كُتِبَ عَلَيْهِمُ الْقَتْلَ إِلَى مَضَاجِعِهِمْ وَلَيَبْتَلِيَ اللَّهُ مَا فِي صُدُورِكُمْ وَلَيُمَحْصِّنَ مَا فِي قُلُوبِكُمْ وَاللَّهُ عَلَيْمٌ بِذَاتِ الصُّدُورِ.

[So'ngra, g'amdan keyin, sizdan bir toifangizni qamrab olgan mudroqni omonlik qilib tushirdi. Boshqa toifa esa, o'zi bilan ovora bo'lib, Alloh haqida nohaq, johiliyat gumonini qilib: «Bizning qo'limizda nima ish bor edi», deyishdi. Sen: «Ishning barchasi Allohdandir», deb ayt! Senga oshkor qilmagan narsalarini ichlarida maxfiy tutarlar. Ular: «Agar qo'limizda bir ish bo'lganida, bu yerda qatl qilinmas edik, derlar. Sen: «Agar uylaringizda bo'lsangiz ham, qatl bo'lish taqdirida yozilganlar o'z o'lim joylariga chiqar edilar. Bu, Alloh ko'ksingizdag'i narsani sinashi va qalbingizdagini yaxshilab poklashi uchundir. Alloh ko'krakdag'i narsani ham biluvechi zotdir», deb ayt (3/154)]. Bu misollarda arab alifbosining barcha harflari ishtirok etgan.

¹ محمد على التهانوى. كتاب اصطلاحات الفنون والعلوم. جلد 2. بيروت. 1996. ص. 1054. <http://www.shamela.ws>

Hazf

Haſzf (الحۚف). Agar kalomda bir yoki bir necha harf butunlay ishlatalmasa, unda haſzf san'ati qo'llangan bo'ladi.

Bu borada «Hadaiqu-s-sihr fi daqaiqi-sh-shi'r»da nasrdan bir misol rivoyat qilinadi: adl va tavhid raislaridan bo'lgan Vosil ibn Ato [r] tovushining talaffuzida qiyalsada, bunday tovushli so'zlarni ishlatmaslikka harakat qilar va fasohatli kalom ayta olishi bilan ajralib turar edi. Bir kuni unga [r] ni ayttirish maqсадida shu tovush ishtirokidagi so'zlardan tashkil topgan اطْرَخَ رَمَحَكَ وَارْكَبَ فَرْسَكَ (nayzangni tashlab, otga min) iborasini qay tarzda ayta olishini so'radilar. Lekin Vosil «الْقَنَاتُكَ وَاعْلَى جَوَانِكَ» javobi orqali o'zidagi [r] tovushini haſzf qila olish qudratini namoyon qilib, ularni lol qoldirgan ekan¹.

Ushbu misollarda nuqtali harf ishtirok etmagan:
— لَا إِلَهَ إِلَّا مُحَمَّدُ رَسُولُ اللَّهِ — Allohdan o'zga iloh yo'q, Muhammad Allohnning rasulidir.

M.Saydumarovning ta'kidlashicha, Haririyning bir xutbasi 234 so'zdan iborat bo'lib, ularning barchasi nuqtasiz so'zlardir. Shu xutbadan misol:

الحمد لله المقدوح الأسماء، المحمود الآلاء، الواسع الغطاء، المذغع لخضم الآلاء.

(Allohgaga hamdu sanolar bo'lsin, Uning ismlari madh etilgan, rahmati rag'batlantiruvchi, ato etgani sahovatl, baxtsizliklarni bartaraf etishga chaqiriluvchi).²

Tajnisu-l-xat

Tajnisu-l-xat (جَنَسُ الْخَطِ) yoki (jinisu-l-xat) Haririyo ko'rsatib bergen xat san'atlaridan biri bo'lib, «talaffuzi va ma'nosiga ko'ra turli, harflari shakliga ko'ra bir xil yoki bir-biriga yaqin so'zlarning, ko'pincha ikki so'zning yonma-yon kelishi»¹ dan hosil bo'ladi.

¹ رشيد الدين وطواط. حدائق السحر في دقائق الشعر. ترجمة إبراهيم أمين الشواربي، ت تقديم أحمد الخولي ، المراكز القومى للترجمة ، القاهرة ، ط 2 ، 2009 . م. ص. 166.

² Сайдумаров М. Харирий макомалари. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти. 1996. –Б. 76: أبو محمد القاسم بن علي الحريري. مقامات الحريري. طبعه بيروت. 1873 م. ص. 169/1. <http://www.shameela.ws>

¹ Сайдумаров М. Ўша манба. –Б. 78.

«الزيادة والإحسان في علوم القرآن» وَالَّذِي هُوَ يُطْعَمُنِي وَيُسْقِنِي وَإِذَا امْرَضْتُ فَهُوَ يُشْفِنِي (Va meni taomlantiradigan va sug'oradigan ham Uning O'zi. Bemor bo'lganimda menga shifo beradigan ham Uning O'zi. Shuaro 42/79-80). «يُشْفِنِي» «يُسْقِنِي» «يُطْعَمُنِي» وَالَّذِي هُوَ يُطْعَمُنِي وَيُسْقِنِي وَإِذَا امْرَضْتُ فَهُوَ يُشْفِنِي (Va meni taomlantiradigan va sug'oradigan ham Uning O'zi. Bemor bo'lganimda menga shifo beradigan ham Uning O'zi. Shuaro 42/79-80).

Qalb

Qalb (قلب) yoki (muqallab). Uning المصحف (al-musahhad), التصحيف (at-tashif) nomlari ham bor. Yuqorida ta'kidlanganidek, ayrim olimlar bu san'atni tajnis turlariga kiritadilar va uni «tajnis-i-qalb» deb ataydilar. Sakkokiy, Usama ibn Munqiz (XII asr), Imom Salohiddin Safadiy Shofeiy (1296-1363) va boshqa ko'plab olimlar uni alohida san'at deb hisoblaydilar². Chunki tajnis fonetik san'at bo'lsa, qalb grafik san'atdir. Unda harflar tartibida farq bo'ladi. U ikki xil: hamma harflar tartibi teskari bo'ladi, masalan, «fatah hataf» فتح حرف; ba'zi harflar tartibi teskari bo'ladi, masalan, «fraq rafiq» فراق رفاق حرف.

Bu san'atni qo'llash ancha murakkab, shuning uchun ham uning ijodkorlari ko'p emas. Umuman, arab tilida xat san'atlarini ham qo'llab, ijod qilgan olim kam sonli olimlardan biri Abu Muhammad al-Qosim ibn Ali al-Haririyyidir. Uning bir maqomasida ikitidan yettitagacha, bir maqomasida ikki yuzta so'zli matnni to'liq teskari o'qilganda boshqa ma'no kelib chiqar ekan.³

Yozuv bilan bog'liq bo'lgan bunday san'atlarni qo'llash muallifdan ijod asnosida ma'noni ifodalashda ham, undagi tovushlar uyg'unligini saqlashda ham o'ta ziyraklik va topqirlilikni talab etadi. Aks holda yaratilgan ijod namunasi o'z qiymatini yo'qotadi. Shunday murakkabliklarga qaramay, mumtoz adabiyot namoyandalari lafziy, ma'noviy san'atlar bilan bir qatorda arab xatinining boshqa yozuvlarda uchramaydigan o'ziga xos xususiyatlaridan mohirona foydalanim, ma'no va shaklda maftunkor

ابن عقيلة المكي. الزيادة والإحسان في علوم القرآن 1
<https://books.google.com/books?id=pKtMCwAAQBAJ>

ابن عقيلة المكي. الزيادة والإحسان في علوم القرآن 2
<https://books.google.com/books?id=pKtMCwAAQBAJ>

³ Сайдумаров М. Харирий макомалари. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти. 1996. –Б. 78.

jozibaga ega bo'lgan satrlarni yarata oldilar.

Har bir zamon ijodkori ajdod adiblarning bu boradagi chuqur bilimlariga suyanishi va ularning boy tajribalarini davom ettirishga o'z hissasini qo'shishi zarur.

Ishtiqoq

Bu san'at «iqtizob» deb ham yuritiladi. Ishtiqoq bir o'zakdan yasalgan so'zlarni keltirish. Masalan: وَقُلْ رَبِّ الْأَنْزَلِيْ مِنْ لَا مُبَارَكًا وَأَنْتَ خَيْرٌ [Yana ayt: «Ey, Rabbim, meni bir muborak manzilga tushirgin. Sen manzilga tushiruvchilarning eng yaxshisidirsan» (MS 23/29)]. Oyatda qo'llangan so'zlar «خَيْرٌ» o'zagidan yasalgan IV bob fe'lining grammatic shakkiali: «أَنْتُنْ» (tushirgin) birlikdagi amr (buyruq fe'l), «مِنْلَكٌ» (tushiriluvchi) maf'ul (majhul daraja sifatdoshi), «مُنْزَلٌ» (tushirguvchi) fo'il (aniq daraja sifatdoshi) so'zları ishtiqoq san'atini hosil qilgan.

Misol: [Yumshoqlik bilan (mo'min) jonnı oluvchi (farishta)lar bilan qasam. Suzib yuruvchi (farishta)lar bilan qasam. O'zishda musobaqa qiluvchi (farishta)lar bilan qasam. (Nozi'ot 79/2-4)]. Ketma-ket kelgan uchta gap ishtiqoqqa asoslangan: o'zagidan yasalgan (fo'il) – نَشْطٌ (fo'il) شَيْطَاتٌ – سَبِّحٌ (masdar), o'zagidan سَبِّحَ (masdar) شَيْطَاتٍ سَبِّحَ (masdar) سَبِّحَ (masdar) شَيْطَاتٍ (fo'il) سَبِّحَ (masdar) so'zları.

«Ishtiqoq» atamasi arab tili morfologiyasida so'z yasashga nisbatan qo'llanadi, ya'ni bu san'at sharqda «ishtiqoq», g'arbda «derivatsiya» deb ataluvchi so'z yasalishi hodisasiga asoslangan.

Olimlar orasida bu san'atni tajnis turiga qo'shishda ixtiloflar bor. Ba'zi olimlar bu san'atni fonetikadagi tovushdoshlikka asoslangan tajnis turiga qo'shadilar. Bu haqda Atoulloh Husayniy Ibnulasir, «Tibyon» sohibi va Rashid-i Vatvot kabilar ishtiqoqni tajnisga qo'shmaganliklari, «Miftoh» muallifi abu Yoqub Yusuf as-Sakkociy va «Izoh» sohiblari esa tajnisga tobe' tarmoq deb bilishlarini ta'kidlaydi¹.

Iltifot

¹ Qarang: Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 50.

Iltifot san'atiga zamonaviy olimlar quydagicha ta'rif beradilar: «iltifot... lirik va liro-epik she'riyatda so'zlovchi shaxsning ko'chishi (birinchi shaxsdan ikkinchi shaxsga, ikkinchidan birinchi yo uchinchiga, uchinchidan birinchi yo ikkinchiga ko'chishi)ni ifodalaydi»¹ yoki «Bu san'atda shoir bayon vaqtida gap shaxsini o'zgartirib turadi».² Atoulloh Husayniy bu san'at borasida Sakkociyning fikrini keltiradi «Ani shujo'atu-l-'arabiyya ham derlar. Shujo' undan o'zga qila olmagan ishga otlanar, arab tili bu san'atga maxsusdir va undan o'zgada bo'lmas» deb uning arab tiliga xos ekani va boshqa tillarda u qadar mashhur emasligini ta'kidlagan³.

Shoir Yahyodan misol:

وَسَمِّيَّتْ يَحْيَى لِيَخِيَا فَلَمْ يَكُنْ إِلَى رَدِّ أَمْرِهِ فِيهِ سَبِيلٌ⁴

(Alloh yo'lida hech qachon Uning amriga qarshi bormay yashasin deb uni Yahyo deb atadim). Bu baytda gap shaxsi birinchi shaxsdan (men atadim) uchinchi shaxsga (u yashasin) ko'chdi.

«Fotiba» surasidan misol: الحَمْدُ لِلَّهِ (Allohga hamd) lafz jihatdan xabar, ma'no jihatdan insho jumla. Hamdning Alloh taologa xosligi (qasr)ni ifodalagan. وَإِلَّاكَ نَعْبُدُ maf'ul (to'ldiruvchi), uning oldinda turishi qasr (xoslik)ni ifodalaydi, ya'ni «Sendan boshqaga emas» ma'nosiga ega, gap birinchi shaxsdan ikkinchi shaxsga ko'chib, iltifot san'atini hosil qildi⁵.

وَإِذْ قَلَنَا لِلْمُلَائِكَةِ اسْجَدُوا لِآدَمَ فَسَجَدُوا إِلَّا إِبْرِيزَ أَبِي وَاسْتَكْبَرَ وَكَانَ مِنَ الْكَافِرِينَ [Esla, farishtalarga: «Odamga sajda qilinglar!» deganimizni. Bas, sajda qildilar, magar Iblis bosh tortdi, mutakabbirlik qildi va kofirlardan bo'ldi (MS 2/34)]. Oyatdagagi وَإِذْ قَلَنَا birlik o'rniiga ko'plikning qo'llanishi buyuklikni ifodalash uchun. Bu

¹ Хожиахмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз кофия. -Т.: Шарқ, 1998. -Б. 63.

² Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. -Т: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. -Б. 48.

³ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. -Т: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. -Б. 182.

⁴ على جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعاني. البين. القاهرة، 1999. ص. 263.

⁵ وهبة بن مصطفى الزحلبي. التفسير المنير في العقيدة والشريعة والمنهج. دار الفكر المعاصر - دمشق، 1418 هـ ص 55

(Rabbingiz deganida) ma'nosiga ega, ulug'lik va mahobatni ochiq ko'rsatish uchun gap uchinchi shaxsdan birinchi shaxsga o'tdi¹.

Ittifot san'ati nutqni bir xillikdan qutqaradi, zerikarli bo'lisdan asraydi.

Syoqatu-l-a'dad

Nasrda yoki nazmda otlarning uyushib kelishi siyoqatu-l-a'dad س و) سیاقه الأعداد (سیاقه (تعلیم (تعديل (deb ataladi. سیاقه الأعداد (سیاقه الأعداد (surmoq, boshqarmoq» ma'nosiga ega. عدد so'zi (son)ning ko'pligi. سیاقه الأعداد (سیاقه الأعداد (otlarning har birini bir narsaga bog'lab tartiblagani uchun atama sifatida shu nom berilgan².

«to'g'rila'moq» ma'nosiga ega. San'at sifatida «sodda otlarni bir tariqada zikr qilganda go'yo alarni bir-biriga to'g'rila'gandek bo'lurlar»³.

Misol:

عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: مَا مِنْ شَيْءٍ يُنْهَى إِلَيْيَّ مِنْ عَنْ يَمِينِهِ وَعَنْ شِمَائِلِهِ مِنْ حَجَرٍ أَوْ شَجَرٍ أَوْ مَذْرِحٍ حَتَّى تَقْطَعَ الْأَرْضُ مِنْ هَاهُنَا وَهَاهُنَا. رَوَاهُ الْتَّرمِذِيُّ.

(Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Qay bir musulmon talbiya aytса, albatta, uning chap va o'ngidagi yer tugaguncha bo'lган yerdagi toshlar, daraxtlar va kesaklar ham talbiya aytadi», dedilar). Bu misolda من حَجَرٍ أَوْ شَجَرٍ أَوْ مَذْرِحٍ (toshlar, daraxtlar va kesaklar) otlar uyushib kelgan.

Olimlar, agar bu san'atga izdivoj, tajnis, tazod yoki boshqa bir san'at qo'shilsa, u yanada takomillashadi, deydilar va quyidagi saj' va tazod orqali ifodalangan misolni keltiradilar:
دَفَعْنَا إِلَيْهِ، وَضَعْنَا فِي يَدِهِ، زِمَامَ الْحَلِّ وَالْعَدْدِ، الْقُبُولُ وَالرَّدُّ، وَالْأَمْرُ وَالنَّهِيُّ، وَالْإِثْبَاتُ وَالنَّفِيُّ، وَالْبَسْطُ وَالْقِبْضُ، وَالْإِبْرَامُ وَالنَّفْضُ، الْهَدْمُ وَالْبَنَاءُ، وَالْمَنْعُ وَالْإِعْطَاءُ.¹

(Biz unga (molini) qaytardik va qo'liga erkinlik va tutqinlik, qabul va rad, buyruq va ta'qiq, tasdiq va inkor, tarqatish va qoldirish, borlik va yo'qlik, buzish va yaratish, mahrumlik va tortiq rishtasini tutqazib qo'ydik.)

¹ روهه بن مصطفى الزحلبي. المرجع السابق. ص. 55.

² رشيد الدين وطوطاط. حدائق السحر في بقائق الشعر. ترجمة ابراهيم أمين الشواربي، تقديم احمد الغولي، مركز القومي للترجمة، القاهرة، ط 2، 2009 م. ص. 149.

³ Атоуллох Хусайниний. Бадойиъ-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: F.Уулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.. 1981. –Б. 239.
رشيد الدين وطوطاط. المرجع السابق.. ص. 132.

Tansiqu-s-sifot

Sifatlarning uyushib kelish holatidan ham badiiy vosita sifatida foydalilaniladi. Sifatlarning uyushib kelishi tansiqu-s-sifot تنسیق (الصلفات) yoki husnu-l-nasaq deyiladi. Masalan:

هُوَ اللَّهُ الَّذِي لَا إِلَهَ إِلَّا هُوَ الْمَالِكُ الْقَدُوسُ السَّلَامُ الْمُؤْمِنُ الْغَيْرُ الْمُبَرِّئُ
الْمُكَبِّرُ سُبْحَانَ اللَّهِ عَمَّا يُشَرِّكُونَ

[U Alloh, Undan o'zga iloh yo'q. U Malik, U Quddus, U Salom, U Mo'min, U Muhyamin, U Aziz, U Jabbor, U mutakabbirdir. Alloh Unga shirk keltirayotgan narsalardan pokdir (MS 59/23)]

بِأَيْمَانِ النَّبِيِّ إِنَّ أَرْسَلَنَا شَاهِدًا وَمُبَشِّرًا وَنَذِيرًا

[Ey Nabiy, albatta, Biz seni guvohlik berguvchi, xushxabar eltguvchi va ogohlantirguvchi... qilib yubordik (MS 33/45)]. Ushbu oyatda Payg'ambarimizning (s.a.v.) uchta vazifalari zikr qilinmoqda.

Bu san'atda so'z turkumiga rioya qilingani uchun morfologik vosita hisoblanadi.

Iqtibos

Bu san'at Atoulloh Husayniy ta'rifida shunday: «Iqtibos mashhur qavlg'a ko'ra qur'on yo hadisdin bir nimani aning qur'on yoki hadisdin oling'anig'a ishora bo'limg'an tarzda kalomg'a kiritmakin iborattur.»¹

اقتباس (iqtibos) so'zi o'zagidan yasalgan o'zgarish bilan vaznidagi fe'l masdari (harakat nomi) (ifti'al) vaznidandir. Lug'aviy ma'nolari: 1) o'zlashma; 2) o'zlashtirish (masalan, bilimni); 3) havola, iqtibos.

Arab balog'atida Qur'on va hadisdan bir oz o'zgarish bilan kiritilgan matnlar iqtibos sanaladi. Iqtibosning ta'ifi:

الاقتباس تضمن النثر أو الشعر شيئاً من القرآن الكريم أو الحديث الشريف من غير دلالة على أنه منها، ويجوز أن يغير في الآخر المقتبس قليلاً.¹

Ya'ni: Iqtibos nasr yoki she'rda Qur'oni Karim yoki hadisi

¹ Атоуллох Хусайниний. Бадойиъ-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: F.Уулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.. –Б. 242.

على جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعانى. البديع. القاهرة. 1999. ص. 270.

sharifdan biror narsaning qaerdan olingani ko'rsatilmagan holda keltirilishidir. U bir oz o'zgartirilgan bo'lishi mumkin.

Iqtibos ma'no jihatdan qo'llanishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Asl ma'nosi saqlanadi, masalan: Abdul Mu'min al-Isfahoni yaytadi:

لَا شَغْرَكَ مِنَ الظُّلْمَةِ كَثْرَةُ الْجَيُوشِ وَالْأَنْصَارِ «إِنَّمَا تُؤْخَرُهُمْ لِيَوْمٍ تَشْخَصُ فِيهِ الْأَبْصَارُ». ¹

[Ansorlar va askarlarning ko'pligi yana adashtirmasini, «faqatgina ularni ko'zлari qotib qolgan kungacha qo'yib qo'yadi xolos»² (MS 14/42)]

2. Iqtibosning ma'nosi ko'chadi, masalan: Ibn Sino al-Mulk aydtadi:

رَحِلُوا فَلِسْتُ مُسَانِلاً عَنْ دَارِهِمْ أَنَا «بِالْخَفْيِ نَفْسِي عَلَى آثَارِهِمْ»³

[Ular ketdi, men ularning uyini so'rab boruvchi emasman, men ularning ortidan taassuf ila o'zimni halok etmoqchi bo'laman). Mazkur baytda «Kahf» surasi 6-oyatidan iqtibos qilingan. Bu oyat: «فَلَعْلَكَ بَلَغْتُ نَفْسَكَ عَلَى آثَارِهِمْ إِنْ لَمْ يُؤْمِنُوا بِهِذَا الْحَدِيثِ أَسْفًا» [Ular bu so'zga iymon keltirmasalar, ehtimol ularning ortidan taassuf ila o'zingni halok etmoqchi bo'larsan?! (MS 18/6)]. Iqtibosning ma'nosi muallif ifodalamoqchi bo'lgan ma'noga ko'chdi, lekin asl shakli saqlandi.

Iqtibos ayrim ajam olimlari tomonidan quyidagicha talqin qilinadi:

«Iqtibos san'ati... Qur'on oyatlari yo hadisdan qisman yo to'laligicha hech qanday o'zgarishsiz, aynan keltirish...»⁴

Demak, mumtoz adabiyotda bu san'atni qo'llashda ikki xil qarash mavjud ekan. Birida uning asliyatga aynan mos kelishi, ikkinchisida bir oz o'zgartirish mumkinligi shart qilib qo'yilgan. Ta'kidlanganidek, arab tilida birinchisiga asoslaniladi.

Ayrim olimlar bu san'atni lafziy san'atlardan deb bilishadi. Buning sababi shuki, ular muallif ifodasi va unga ma'no jihatdan bog'lanadigan iqtibos yaxlit holda saj' yoki nazm hosil qilishi lozim bo'lgani uchun (bu mumtoz badiiyatda asosiy masaladir) iqtibos

¹ على جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعاني. البديع. القاهرة. 1999. ص. 269.

² «Ko'zлari qotib qolgan kungacha», ya'ni o'lim kunlarigacha.

³ على جارم، مصطفى أمين. المرجع السابق. ص. 269.

⁴ Qarang: Davlatpur O. Иктибос санъати//Шарқшунослик. 2001. № 1. –Б. 28.

ham vazn, qofiya kabi ohangdorlikni yaratib beruvchi talablarga mos bo'lishi kerakligini e'tiborga olganlar, ya'ni bu san'atda tovushlar mutanosibligiga erishish birlamchi vazifaga aylangan. آثارهم va الأنصار—الأنصار tarzida lafzdoshlik hosil qilgan.

Ba'zi balog'at olimlari iqtibos san'atini fonetik san'atlar qatoriga qo'shsalar-da, uning sintaktik vosita sifatida san'at hosil qilishi muhimroqdir. U ko'pincha ko'chirma gap yoki o'zlashtirma gap vazifasini bajaradi.

Takrir

«Ani takror ham derlar ul ma'noning takriri, ya'ni muqarraru muhaqqqaq qilmoq yanglig' nukta uchun lafzni takrorlamakin iborattur»¹.

Mumtoz asarlarda qo'llangan badiiy san'atlar orasida eng mashhurlaridan biri takrirdir. U so'z qaytarig'iga asoslangan bo'lib, takror va mukarrar deb ham ataladi.²

گُرْ (takrir) arabcha so'z bo'lib, گر، اوzagidan yasalgan («qaytarmoq») fe'lining «qaytarish» ma'nosiga ega bo'lgan harakat nomi, مکرر shu fe'lning majhul nisbat sifatdoshi, ma'nosi «qaytarilgan, qaytariq». Zamonamiz olimlari takrirda «kuchaytiruv, ta'kid va hayajon bir so'z yoki iborani takrорlash yo'li bilan ifoda qilinadi»³ deydilar. Bundan tashqari jumla takrori ham mavjud.

So'z takrori. Masalan: صَفَّا [Yo'q! Vaqtiki, yer zilzilaga tushib parcha-parcha bo'lib ketsa. تکرار]. Va Robbing va farishtalar saf-saf bo'lib kelsa (MS 89/21-22). صَفَّا صَفَّا (saf-saf) so'zlari takrorni tashkil qilgan.

Agar sizga jarohat yetgan bo'lsa, u qavimga ham shunga o'xhash jarohat yetgan (MS 3/140), قَرْخَ [jarohat] so'zi takrorlangan.

La'nat bo'lsin قَتْلَ [Qatil] كَيْفَ قَتَلَ ثُمَّ قَتْلَ كَيْفَ قَتَلَ: Jumla takroriga misol:

¹ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-у-саноийӣ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: F.Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 174

² Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. –Т: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –Б.49.

³ Рустамов А. Ўша манба. –Б.49.

unga, qandoq ham chamlab ko'rdi! So'ngra yana la'nat bo'lsin unga, qandoq ham chamlab ko'rdi (MS 19/20).

XI asarda yashab o'tgan alloma Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy takrirning shubhadan holi qilish, ulug'lab ko'rsatish, tahdidni ta'kidlash, zavq berish, kalom davomida eslab turish, bir nechta narsani bir narsaga taalluqli ekani bildirish maqsadida qo'llanishini aytib o'tgan¹.

U itnobda qo'llanadi.

Raddu-l-'ajz 'ala-s-sadr

Raddu-l-'ajz 'ala-s-sadr (tasdir) arab adabiyotida nasrda ham, nazmda ham qo'llanadigan badiiy san'atlardan biridir. Uning nasrda qo'llanishiga Jalolidin Muhammad bin Muhammad Abdurrahmon Qazviniy (v.e. 739/1339):

رد العجز على الصدر وهو في النثر أن يجعل أحد اللفظين المكررين أو المتجلانسين أو الملحقين بهما في أول الفقرة والآخر في آخرها²

Ya'ni: «takrorlanayotgan yoki ma'nosini boshqa bo'lib, shakli bir xil bo'lgan, shuningdek, bir o'zakdan yasalgan ikki so'zdan birining fitra boshida, boshqasining fitra oxirida kelishi» deb ta'rif beradi va quyidagi misollarni keltiradi: تَخْشَى النَّاسُ وَ اللَّهُ أَحَقُّ أَنْ تَخْشَى هُنَّا نَسَاءٌ وَاللَّهُ أَحَقُّ أَنْ يَعْلَمَ مَا فِي الْأَنْفُسِ وَاللَّهُ أَعْلَمُ بِمَا يَصْنَعُ (Odamlardan qo'rqasan, Alloh qo'rqish(ing) uchun eng haqlidir), (Hiyla tarki hiyla).

Birinchi misolda shakl va ma'no jihatdan bir xil bo'lgan, تَخْشَى الْجِلَةُ، ikkinchi misolda so'zlari fitraning boshi va oxirida takrorlangan.

Shakldosh so'zlarning takrorlanib kelishiga quyidagi misol keltiriladi: سائل اللثيم يرجع و دمعه سائل. (Baxildan (biror narsa) so'ragan (kishi quruq) qaytib ketadi, u (baxil)ning ko'z yoshlari (seldek) oqadi)³. Bu yerdagi birinchi «so'rovchi», ikkinchisi «oquvchi» ma'nosida qo'llangan.

¹ Qarang: Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноӣ. Форсчадан А. Рустамов таржими. — Т.: Г.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. — Б.172-173.

² جلال الدين أبو عداته محمد بن سعد الدين بن عمر الفزويي. الإيضاح في علم البلاغة.

³ «Baxildan narsa so'rash unga sabur (aloe)dan ham achchiq ta'sir qiladi» masaliga asoslangan.

Ishtiqoq, ya'ni bir o'zakdan yasalgan so'zlarning takrorlanishi ushbu misolda ko'rsatilgan: (Rabbingizga غفارا استغفروا ربكم انه كان غفارا). Bu yerdagi غفران so'zidir⁴.

Quyidagi misolda ham غرر («har bir narsaning go'zalligi» ma'nosidagi غرر so'zining ko'plik shakli) va (xavf-xatar) لا ثال الغرر إلا برکوب الغرر. so'zlarida shu hodisani kuzatish mumkin: (go'zallikka xavf-xatarsiz erishib bo'lmaydi).

Ishtiqoqqa o'xshash, ya'ni shaklan bir o'zakdan yasalgandek, ammo o'zaklari turlicha bo'lgan so'zlarga misol: (MS 42/168)

Bu misoldagi so'zining masdari قال القالين، القول so'zining masdari قال القالى، ularning ishtiqoqqa o'xshashligi o'zaklarda bir xil harflar, ya'ni قال القالى va ل ning mavjudligi va ularning bir xil ketma-ketlikda joylashganidadir.³

Raddu-l-'ajz 'ala-s-sadrning yuqorida sanalgan turlari nazmda ham qo'llanadi. Bu san'atning nazmdagi o'rni haqida balog'atshunos olim Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy (1160-1228) o'zining «Miftohu-l-ulum» asarida shunday yozadi:

رد العجز على الصدر، وهو أن يكون إحدى الكلمتين المتكررتين أو المتجلانسين أو الملحقين التجانس في آخر البيت والأخرى قبلها في أحد الموضع الخمسة من البيت وهي صدر المصراع الأول وحشوه وأخره وصدر المصراع الثاني وحشوه.⁴

Ya'ni, Sakkokiy raddu-l-'ajz 'ala-s-sadrda takrorlanayotgan yoki shakldosh so'zlardan birining bayt oxirida, ikkinchisining esa shu baytning besh o'rnidan birida kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bular: birinchi misraning boshi, o'rtasi va oxiri, ikkinchi misraning boshi va o'rtasi. Qazviniy ham bu fikrga qo'shiladi. Sakkokiy shulardan to'rttasiga misol keltiradi, ularda مشتهر (mashhur bo'lgan) so'zi vositasida raddu-l-'ajz 'ala-s-sadr san'ati hosil qilingan:

مشتهر في علمه وحلمه وز هذه وعده مشتهر

¹ حامد عوني. المنهاج الواضح للبلاغة. الطبعة الخامسة. 1953. ص. 228.

² على جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعاني. النبیع. القاهرة. 1999. ص. 268.

³ حامد عوني . المنهاج الواضح للبلاغة. الطبعة الخامسة. 1953. ص. 228.

⁴ Qarang: أبو يعقوب يوسف السكاكى. مفتاح العلوم. مصر. 1937. www.shamela.ws

lar bo'lgani uchun mutobaqa hosil qilgan.

Mutobaqa zamona viy balog'atchilar ning ta'riflarida bunday: الطلاق: هو الجمع بين معينين متقابلين (متضادين) في كلام واحد: كالطول و القصر، والحياة والموت، والضحك والبكاء، والأبيض والأسود، والعلم والجهل، والعز و الذل. و هذا النوع من الطلاق يسمى طلاقا ايجابيا.¹

(Tiboq ikki qarama-qarshi (zid bo'lgan) ma'nolarning bir kalomda kelishi: uzunlik-qisqalik, hayot-o'lim, kulgu-yig'i, oq-qora, ilm-gumrohlik, ulug'lik-tubanlik kabi. Bu tiboqning ijobiy tiboq deb nomlanuvchi turidir).

Bunday so'zlar tilshunoslikda antonimlar deyiladi. Demak, antonimlar mutobaqaning bir turini hosil qilar ekan.

Balog'at ilmining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan Atoulloh Husayniy boshqa san'atlar qatori mutobaqa san'atiga oid ma'lumotlarni ham o'rganib chiqdi va ularga o'z munosabatini bildirdi. Xususan, u mutobaqani arab balog'atidan farqli ravishda ma'noviy emas, balki lafziyu ma'noviy san'atlar qatoriga kiritadi. Shuningdek, mutobaqaning turlari borasida antonimlar orqali hosil qilingan «orasidag'i qarama-qarshiliq qora bila oq singari «g'oyat darajada» bo'lgan mutobaqa taqobul-i tazoddir, agar qarshilik qora bilan qizil kabi «g'oyat darajada bo'limasa», u taqobul-i taonuddir, deydi.²

Balog'atchilar mutobaqani haqiqiy va e'tiboriy taqobullarga ajratadilar. Haqiqiy taqobul bir vaqtida bir joyda va bir jihatdan birga bo'lishning mumkin emasligi bo'lsa, e'tiboriy taqobul oralarida qarama-qarshilik bo'lmagan ikki narsani bir-biriga zid qilib ifodalashdir.³

Haqiqiy taqobulning yuqorida keltirilgan tazod, shuningdek, tazoyuf, adamu malaka, ijobu salb turlari bor. Taqobilu tazoyuf vujudiy narsa orasida bo'lib, «otalik» va «o'g'llik» kabi ikki mutaqobilning birisiz ikkinchisini tasavvur qilib bo'lmashigidir.

Arab balog'atchilar mutobaqa bitta so'z turkumiga yoki ikki so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlardan iborat bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar va Qur'oni Karimdan quyidagi misollarni keltiradilar:

¹ صالح سليم. المنجد في الإعراب و التواعد و البلاعنة و العروض. دار الراند للطباعة و النشر. ص. 358.

² Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойъу-с-саноийт. Форсчадан А. Рустамов таржимаси –

³ Атоуллоҳ Ҳусайний. Ўша манба. –Б. 225-226.

[Uxloq bo'lsalar-da, (ko'zlar ochiq bo'lgani uchun) sen ularni uyg'oq, deb o'ylaysan (MA 18/18)].

Kahf surasi 18-oyatdan keltirilgan bu misolda mutobaqa hosil qilgan (uyg'oq) va رقود (uxloq) so'zlarining ikkalasi ham ism turkumiga mansubdir.

Quyidagi misolda mutobaqa ikkita fe'lidan iborat. Bular (o'ladi) va يحيى (yashaydi):

[U joyda u na o'la olur va na yashay olur (MA 20/17)].

Mutobaqaning harf (yordamchi so'z)lardan iborat turiga quyidagi misol keltirilgan: [Uning kasb etgani (yaxshiligi) o'ziga, va orttirgani (yomon amali) ham o'zigadir (MA 2/286)]. Bu yerda zid ma'nolar ل على so'zlaridadir, chunki foyda, yaxshilik, keyingisi «zarar, yomon amal» ma'nolariga ega.

San'at hosil qilayotgan ikki zid ma'noli so'z turli turkumlarga xos bo'lishi mumkin. Masalan: [O'lik (kofir) bo'lgan odamni (imon bilan) tiriltirib... (MA 6/122)]. Bu misolda احينا (tiriltiramiz) so'zlarining biri ism, ikkinchisi fe'l (o'lik) va يحيى (tiriltiramiz) so'zlarining biri ism, ikkinchisi fe'l turkumidan bo'lsa-da, mutobaqa hisoblanadi.

Mutobaqaning ijobiy turi haqida yuqorida eslatib o'tilgan edi. Arab balog'atchilar uning salbiy turini quyidagi misollar orqali ل لكن أكثر الناس لا يعلمون، يعلمنون ظاهرا من حياة الدنيا [Lekin izohlaydilar: ko'p odamlar bilmaslar. Ular oxiratdan g'ofil (bexabar) bo'lgan hollarida faqat dunyo hayotining zohirinigina bilurlar (MA 30/7)] لا يعلمون olingan mazkur misolda inkor ma'nosidagi oylaridan olingan mazkur misolda inkor ma'nosidagi (bilmaslar) va tasdiq ma'nosidagi (bilurlar) fe'llari mutobaqa hosil qilgan.

لا تخروا الناس و أخسون (Bas (ey hukm chiqaruvchilar), odamlardan qo'rqmangiz. Mendan qo'rqingiz (MA 5/44) misolida (qo'rqmangiz) va أخسون (qo'rqingiz) fe'llaridagi ta'qiq va buyruq (qo'rqmangiz) va يخسون (qo'rqingiz) fe'llaridagi ta'qiq va buyruq (qo'rqmangiz) fe'llaridagi ta'qiq va buyruq (qo'rqingiz) fe'llaridagi ta'qiq ma'nolarini birga qo'llash salbiy tiboq ekanini buyruq bilan ta'qiq ma'nolarini birga qo'llash salbiy tiboq ekanini

ta'kidlaganlar.¹ Lekin Sakkokiy salbu ijobni mutobaqa turiga kiritmay, alohida san'at deb hisoblagan.²

Mutobaqaning yana bir turi bor-ki, unda ikki ma'noning bir-biriga zid ekanı yuqorida keltirilgan misollardagidek ochiq ko'rini turmaydi, balki yashirin bo'ladi va u arab balog'atida xafo (خفا) deb ataladi. Bu yuqorida zikr qilingan e'tiboriy taqobuldır. Xafoga quyidagi misolni izohi bilan keltiradilar: [أَغْرِقُوا فَادْخُلُوا نَارًا g] qarq qilinib, (suv balosidan keyin) olovga kiritildilar (MA 71/25)]. Bu misolda (olvoga kiritildilar) iborasi (أَغْرِقُوا g) arq qilindilar, cho'ktirildilar)ning ziddi yoki antonimi emas. Lekin mazkur holatda bu iborani *الإغراء* deb tushunish lozim, shunda «cho'ktirish» va *الإغراء* (kuydirish, yondirish) o'zaro zid ma'nolarni anglatadi. Bu yerda ma'nolar orasidagi ziddiyat aniq ko'rini turmagani tufayli bunday mutobaqa xafo, ya'ni yashirin mutobaqa deb nom olgan.³

Mutobaqa san'ati na faqat arab, fors, balki turkiygo'y shoirlar ijodida ham unumli qo'llangan va tazod, mutazod nomi bilan mashhur bo'lgan.

Mumtoz adabiyot badiiyatini tadqiq qilayotgan o'zbek adabiyotshunoslari bu san'atni ham e'tibordan chetda qoldirmaganlar.⁴ Lekin Ahmad Taroziy ham, zamona adabiyotshunoslari ham mutobaqaning turlari xususida alohida to'xtalmaganlar va umumiylar bilan chegaralanganlar. Ba'zi adabiyotlarda arab balog'atichilar ma'noviy, ajam olimlari lafziyu ma'noviy deb e'tirof etgan bu san'at lafziy san'atlar orasiga tushib qolgan, ayrimlarida atamalarning o'qilishida xatoliklar uchraydi, ya'ni «mutobiqa» emas «mutobaqa», «taboq» emas «tiboq» bo'lishi kerak.

¹ حامد عوني. المنهج الواضح للبلاغة. الجزء الأول. دار الكتب العربي بمصر 1953 م. ص. 201.

² صالح ساسه. المنجد في الإعراب وقواعد اللغة والعروض. دار الراند للطباعة والنشر. ص. 359-358.

³ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: Ғ.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 227.

⁴ حامد عوني. المنهج الواضح للبلاغة. الجزء الأول. دار الكتب العربي بمصر 1953 م. ص. 201.

⁵ Ҳожиахмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз кофия. Т.: Шарқ, 1998. –Б. 83; Исхоков Ҷ. Сўз санъати сўзлиги. –Т.: Заркайнар. 2006. –Б. 65.

Demak, arab, fors va o'zbek adabiyotida keng qo'llanadigan mutobaqaning ta'rifida olimlar o'rtasida ixtilof yo'q. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, fors balog'atida arabiya mavjud bo'lgan mutobaqaga oid qarashlar rivojlantirilgan va turlari jihatdan boyitilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotida esa shu kunning tadqiqotdalab masalalaridan biri hisoblanadi.

Muqobala

Ma'lumki, badiiy san'at turlari borasidagi nazariy fikrlar XI asrda arab balog'at ilmi tarkibida shakllangan, keyingi davrda ular turli olimlar tomonidan rivojlantirib kelinmoqda va arab, fors tillaridagi kabi o'zbek tilida ham ularning o'ziga xos tasnif va ta'riflari mavjud. Bular qatoriga muqobala ham kiradi.

Bugungi kunda bu san'at haqida so'z ketganda shunday fikrlarga duch kelamiz: «...muqobala san'ati ayrimlarida ma'noviy, boshqalarida lafziyu ma'noviy san'at deb berilgan...»¹ Darhaqiqat, bu san'atlar dastlabki, ya'ni o'rta asr arabshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan tasnifga ko'ra balog'at ilmining badi' bo'limidan o'rın olgan ma'noviy san'atlar sirasiga kiritilgan va arablar hozirgacha shu holatni saqlab qolganlar.² Lekin shuni eslab o'tish lozimki, ayrim o'rta asr olimlari muqobalani alohida san'at turi emas, balki mutobaqaning bir turi deb hisoblaganlar.³

Atoulloҳ Husayni esa muqobalani lafziy-ma'noviy san'atlarga kiritadi.⁴ Hozirgi zamon o'zbek olimlaridan A. Hojiahmedov muqobalani dastlabki tasnifga mos ravishda ma'noviy san'atlardan deb biladi.⁵

Muqobalaning ta'rifida o'rta asr olimlari o'rtasida ixtilof yo'qligi kuzatiladi. Arab balog'at ilmida muqobala san'atiga shunday ta'rif beriladi:

¹ Мамажонов З. Шеърий санъатларни таснифлаш масаласига доир. Ўзбек тили ва азабиёти. 2005 №6. –Б. 49

² Qarang: على جازم، مصطفى أمين البلاغة الواضحة، البيان العربي، البيع القاهرة 1999. ص. 284.

³ Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: Ғ.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 232.

⁴ F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 231.

⁵ Qarang Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Ўша манба. –Б. 231.

⁶ Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: Шарқ. 1999. –Б. 57.

ال مقابلة وهي أن يوتى بمعنيين غير م مقابلين أو أكثر ثم يوتى بما يقابل كلا على الترتيب الفظي.¹

Ya'ni, muqobalada avval ikki yoki undan ortiq qarama-qarshi bo'limgan ma'nolar, so'ngra ularning har biriga mos keluvchi qarshi ma'nolar tartib bilan keltiriladi. Muqobala hosil qilayotgan ma'nolar soniga ko'ta bir necha turga bo'linadi. U kamida ikki ma'no va uning muqobili orasida, ya'ni ikkiga ikki bo'lishi kerak. Arab olimlari misol tariqasida Tavba surasining 82-oyatidan parcha keltiradilar: [فَلِيضْحُكُوا قَبْلًا وَ لِيُبَكُّو كَثِيرًا] (bu dunyoda) oz kulsinlar va (oxiratda) ko'p yig'lasinlar! (MA 9/82)]. Bu misolda ضحك (kulish) va كثرة (oz), so'ngra ularning muqobilari بكاء (yig'i) va كثرة (ko'p) ma'nolarini anglatuvchi so'zlar keltirilib muqobala hosil qilgan.

Atoulloh Husayniy maqobalaning ta'rifida Sakkokiying المقابلة، و هي أن تجمع بين شيئين متافقين أو أكثر وبين ضدتها. ثم إذا شرطت هنا شرطا شرطت هناك ظده²

ta'rifiga tayanadi va deydi: ««Miftoh» sohibi debtur: muqobala uldurkim, ikki yoki andin ortiq muvofiq va alarg'a zid, ya'ni muqobil nimaning zikrin jam' qilursen. Agar ul nimalar orasinda bir niman shart qilsang, ya'ni ifoda qilsang, alarning ziddining orasinda ul nimaning ziddin shart qilursen»³.

Husayniy fors shoirlaridan, arab olimlari Qur'on va mumtoz she'riyatdan misollar keltirgan holda muqobalaning ikkiga ikki, uchga uch, to'rtga to'rt va undan ortiq turlari bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Muqobalaning uchga uch turiga misol:

ما أحسن الدين و الدنيا إذا اجتمعا و أبغى الكفر والإفلات بالرجل⁴

Ya'ni: Kishida din va boylik jamlansa, qanchalar go'zal, kufr va nochorlik (juda) xunuk.

Bu baytda muqobala hosil qilayotgan juftliklar quyidagi idir: الدين-الإفلام (din-kufr) va الكفر-الدين (go'zallik-xunuklik), (boylik-nochorlik).

Sakkokiy to'rtga to'rt turiga muqobalaga misol tariqasida zikr

¹ حامد عوني. المنهج الواضح للبلاغة. الجزء الأول. دار الكتاب العربي بمصر. 1953. م.ص. 202

² أبو يعقوب يوسف السعدي. مفتاح العلم. مطبعة مصطفى النابي الطبوي وأولاده بمصر. 1937. ص. 200

³ Атоуллох Хусайнин. Атоуллох Хусайнин. Бадойиу-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. -Т.: F.Гулом Хусайнин. Атоуллох Хусайнин. Бадойиу-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. -Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. -Б. 231.

⁴ حامد عوني. المنهج الواضح للبلاغة. الجزء الأول. دار الكتاب العربي بمصر. 1953. م.ص. 202

فاما من أعطى واتقى و صدق بالحسنى فسيسره لليسرى و أما من بخل و استغنى وكذب بالحسنى فسيسره للعسى. qilgan Layl surasi 5-10 oyatlari keltirilgan: [Bas, kimki (zakot va sadaqotlarni) bersa va Allohdan qo'rqsqa, hamda go'zal (narsa)ni tasdiq etsa, bas unga oson yo'lni muyassar qilurmiz. Ammo, kimki baxillik qilsa va (o'zini) behojat (boy) sanasa, hamda go'zal (narsa)ni yolg'onga chiqarsa, bas, unga og'ir (yo'l)ni «muyassar» qilurmiz (MA 92/5-10)].

Mazkur misolda muqobala hosil qilgan to'rtta juftlik quyidagilar: (الإنقاء-الاستغاء-العطاء-البذل) (qo'rqish-boyish), (الصدق-العسر-اليسر-التعذر) (tasdiqlash-inkor qilish) va (oson-qiyin). Uchinchilikda yashirin muqobala bor, ya'ni Alloh qiyin. Uchinchilikda yashirin muqobala bor, ya'ni Alloh yo'lida tiyilishni anglatса. استغنى mol-mulkdan boyib, o'z amallarida Allohdan qo'rmaslik ma'nosida qo'llangan.

Muqobalaning besha besh, oltiga olti turlari ham mayjud.¹

Badi' san'atlar xususida turkiyda bitilgan Ahmad Taroziyining «Funun-l-balogs'a» asarida muqobala zikr qilinmagan. Lekin unga mohiyatan yaqin turuvchi tazod (mutobaqa) mutazod nomi bilan keltirilgan va unga shunday ta'rif berilgan: «Bu san'at ul bo'lurkим, ikki narsa kultururlarkim, biri birining ziddi bo'lg'ay, netokkим: suv va o'ts². Tazodni barcha balog'at olimlari bir xil ta'riflaydilar. Demak, tazodda muqobaladan farqli ravishda zid ma'nolar faqat bir juftlikni hosil qiladi.

Tazodni eslab o'tishdan maqsad shuki, o'rta asr olimlari tomonidan tazod va muqobalaning o'ziga xos xususiyatlari aniq ko'rsatib berilgani holda, hozirgi davrga kelib o'zbek olimlari tomonidan muqobala e'tibordan chetda qolmoqda¹ yoki ularning har ikkisiga deyarli bir xil ta'rif berilmoqda:

«Tazod» so'zi «zid qo'yish», «qarshilantirish» ma'nolarini ifodalaydi. Shu so'z bilan ataluvchi she'riy san'at esa baytda ma'no jihatidan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llab,

¹ Qarang: Атоуллох Хусайнин. Атоуллох Хусайнин. Хусайнин. Атоуллох Хусайнин. Бадойиу-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. -Т.: F.Гулом Хусайнин. Атоуллох Хусайнин. Бадойиу-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. -Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. -Б. 231; الجزء الأول. دار الكتاب العربي بمصر. 1953. م.ص. 203-202.

² Ахмад ибн Худайод Тарозий. Фунуну-л-балога. А.Хайитметов нашрла тайёрлаган. -Т.: Хазина. 1996. -Б. 112.

¹ Y. Ishoqovning «So'z san'ati so'zligi» kitobida ham tazod bandi bayon qilingan, ammo muqobala haqida ma'lumot berilmagan.

ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi¹, «Muqobala «qarshi kelish» ma'nosini ifodalaydi va she'r baytlarida bir-biriga zid tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni keltirib ular vositasida muayyan bir g'oja, fikrni ta'sirchan ifodalash san'ati sanaladi.»² Keltirilgan ta'riflarda tazod va muqobala o'rtasidagi chegara aniq belgilab berilmagani sabab, o'quvchi bu san'atlar haqida yorqin tasavvurga ega bo'la olmaydi. Shuningdek, bu san'atlar «she'riy»gina emas, balki ular nasrda, xususan saj'da ham qo'llangan. Bunga Qur'on oyatlari misol bo'la oladi.

Ba'zi olimlar tomonidan taqobuli tazod, taqobuli ijobu salb «muqobalani yuzaga chiqqargan»³ qayd qilingan. Aslida taqobuli tazod, taqobuli ijobu salb muqobalaning emas, tazodning turlari hisoblanadi.⁴

Demak, muqobala mumtoz adabiyotda keng qo'llangan san'at turlaridan hisoblanib, uni ayrim olimlar ma'noviy, ayrimlari lafziyu ma'noviy deb hisoblaydilar. Unga arab va forsiy manbalarda o'tmish olimlari tomonidan aniq va ravshan ta'rif berilgan. Bu san'at tazodga yaqin tursa-da, ko'pchilik olimlar uning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib alohida san'at turi deb hisoblaganlar.

TEST

1. So'zlovchining grammatik jihatdan mukammal jumlanı o'z o'mida va tegishli holatda qo'llay olishi hamda shu talablarga javob beruvchi fasih jumلالарни so'zlay bilish mahorati... ilmida o'rgatiladi.

- A. Sarf
- B. Balog'at
- C. Tilshunoslik
- D. Nahv

2. Abu Yoqub Yusuf Sakkokiyning balog'at ilmiga doir bo'limni o'z ichiga olgan asari nomini ko'rsating.

- A. «Miftohu-l-ulum»
- B. «Sharh Talxisi-l-Miftoh»
- C. «Talxisu-l-Miftoh»
- D. «Asroru-l-balogs'a»

3. Jaloliddin Qazviniyning balog'at ilmiga doir asari nomini ko'rsating.

- A. «Sharh Talxisi-l-Miftoh»
- B. «Talxisu-l-Miftoh»
- C. «Asroru-l-balogs'a»
- D. «Miftohu-l-ulum»

4. Sa'aduddin Taftazoniyning balog'at ilmiga doir asari nomini ko'rsating.

- A. «Talxisu-l-Miftoh»
- B. «Sharh Talxisi-l-Miftoh»
- C. «Miftohu-l-ulum»
- D. «Asroru-l-balogs'a»

5. Abdulqohir Jurjoniyning balog'at ilmiga doir asari nomini ko'rsating.

- A. «Asroru-l-balogs'a»
- B. «Sharh Talxisi-l-Miftoh»

¹Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: Шарқ. 1999. –Б.83.
²Хожиахмедов А. Ўша манба. –Б.57.

³Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: Шарқ. 1999. –Б.57.
⁴Qarang: Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ-с-саноӣ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981. –Б. 225.

- D. «Miftohu-l-ulum»
E. «Talxisu-l-Miftoh»

6. so'zidan ilmiy atama sifatida so'zlovchining grammatik jihatdan mukammal jumlani o'z o'rniда va tegishli holatda qo'llay olishi hamda shu talablarga javob beruvchi fasih jumlalarini so'zlay bilish mahorati tushuniladi

- A. Fasohat
B. Badi'
D. Balog'at
E. Bayon

7. Qaysi ilm balog'at ilmi tarkibiga kirmaydi.

- A. Sarf
B. Badi'
D. Ma'oniy
E. Bayon

8. Balog'at ilmi tarkibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

- A. Sarf, badi', bayon
B. Badi', sarf, nahn
D. Ma'oniy, bayon, badi'
E. Ma'oniy, bayon, sarf

9. Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johizning asari nomini ko'rsating.

- A. «Asroru-l-balog'a»
B. «Al-bayon va-t-tabyin»
D. «Miftohu-l-ulum»
E. «Talxisu-l-Miftoh»

10. Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johizning asarlari nomi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

- A. «I'jazu-l-Qur'on», «Talxisu-l-Miftoh»
B. «Al-bayon va-t-tabyin», «I'jazu-l-Qur'on»
D. «Miftohu-l-ulum», «Talxisu-l-Miftoh»
E. «I'jazu-l-Qur'on», «Miftohu-l-ulum»

11. Abu Ubayda Ma'mar ibn al-Musanni al-Basriyning asari nomini ko'rsating.

- A. «Asroru-l-balog'a»
B. «Al-bayon va-t-tabyin»
D. «Majoz al-Qur'on»
E. «Miftohu-l-ulum»

12. Abdulloh ibn Mu'tazzning asari nomini ko'rsating.

- A. «Al-Badi'»
B. «Al-bayon va-t-tabyin»
D. «Miftohu-l-ulum»
E. «Asroru-l-balog'a»

13. Kim badi' ilmi borasida birinchi bor maxsus asar yozgan?

- A. Abu Ubayda Ma'mar ibn al-Musanni al-Basriy
B. Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johiz
D. Abdulloh ibn Mu'tazz
E. Abdulqohir Jurjoniy

14. «Miftohu-l-ulum» asarining muallifi kim?

- A. Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy
B. Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johiz
D. Abdulqohir Jurjoniy
E. Abdulloh ibn Mu'tazz

15. «Al-bayon va-t-tabyin» asari muallifi kim?

- A. Abdulloh ibn Mu'tazz
B. Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johiz
D. Abdulqohir Jurjoniy
E. Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy

16. Kalomni vaziyat talab qilgan holatga moslashtirish usul va qoidalarini o'rganadi.

- A. Bayon ilmi
B. Badi' ilmi
D. Ma'oniy ilmi
E. Sarf ilmi

17. Ma'oniylar tarkibiga kiradi.

- A. Xabar va insho
- B. Majoz va istiora
- C. Saj' va jinos
- D. Xabar va jinos

18. Ma'oniylar tarkibiga kirmaydi.

- A. Xabar va insho
- B. Majoz va istiora
- C. Fasl va vasi
- D. Iyjoz, itnob va musovot

19. Kalomning iyjoz, itnob, musovot usullari balog'at ilmining qaysi bo'limida o'rganiladi?

- A. Bayon
- B. Ma'oniylar
- C. Badi'
- D. Balog'at ilmida o'rganilmaydi.

20. Iyjozning ta'rifi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating.

- A. Ma'noni ifodalash uchun lafzni ko'paytirish.
- B. Kuchaytiruv va ta'kidni ifodalash uchun ma'noni qo'shimcha iboralar orqali yetkazishdir.
- C. Ko'p ma'noning kam so'zlar bilan, maqsadga mos ravishda, ochiq-oydin aytilishi
- E. A,V.

21. Iyjozning qo'llanish sabablarini aniqlang.

- A. Ixchamlikka erishish, yodlashni yengillashtirish, tez fahmlash, vaziyatni boshqalardan yashirish, kam so'z bilan ko'p ma'no hoslil qilish.
- B. Ma'noni mustahkamlash, maqsadni yoritish, ta'kidlash; shubhani yo'qotish.
- C. Ma'noning unga mos miqdordagi iboralar bilan ifodalanish.
- E. To'g'ri javob yo'q.

22. Itnobning ta'rifi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating.

- A. Kuchaytiruv va ta'kidni ifodalash uchun ma'noni qo'shimcha iboralar orqali yetkazishdir.
- B. Ma'noni ifodalash uchun lafzni ko'paytirish.
- D. Ko'p ma'noning kam so'zlar bilan, maqsadga mos ravishda, ochiq-oydin aytilishi
- E. A,V.

23. Itnobning qo'llanish sabablarini aniqlang.

- A. Ixchamlikka erishish, yodlashni yengillashtirish, tez fahmlash, vaziyatni boshqalardan yashirish, kam so'z bilan ko'p ma'no hoslil qilish.
- B. Ma'noni mustahkamlash, maqsadni yoritish, ta'kidlash; shubhani yo'qotish.
- D. Ma'noning unga mos miqdordagi iboralar bilan ifodalanish.
- E. To'g'ri javob yo'q.

24. Musovotning ta'rifi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating.

- A. Ma'noning unga mos miqdordagi iboralar bilan ifodalanishi.
- B. Ma'noni ifodalash uchun lafzni ko'paytirish.
- D. Ko'p ma'noning kam so'zlar bilan, maqsadga mos ravishda, ochiq-oydin aytilishi
- E. A,V.

25. Musovotning qo'llanish o'rinnarini aniqlang.

- A. Matbuot matnlari, yuridik va qonunchilik materiallari matnlari va b.
- B. Ma'noni mustahkamlash, maqsadni yoritish, ta'kidlash; shubhani yo'qotish
- D. Ma'noning unga mos miqdordagi iboralar bilan ifodalanish.
- E. To'g'ri javob yo'q

26. ... rost yoki yolg'on ma'lumotni bildirgan kalom bo'lib, bu so'zlovchining rost yoki yolg'on nutqida o'z aksini topadi, berilgan ma'lumot voqelikka mos kelish yoki kelmasligi bilan baholanadi.

- A. Insho
- B. Xabar
- D. Musnad
- E. Musnad ilayhi

27. ... – rost yoki yolg'on hukmi berilmaydigan kalom.

- A. Xabar
- B. Musnad
- D. Insho
- E. Musnad ilayhi

28. Insho qanday turlarga bo'linadi?

- A. Iltimos va taajjub
- B. Talabli va talabsiz
- D. Insho va xabar
- E. Musnad va musnad ilayhi

29. talab qilingan narsaning biror vaqtida amalga oshishi nazarda tutilmaydi

- A. Talabli inshoda
- B. Talabsiz inshoda
- D. Xabarda
- E. To'g'ri javob yo'q

30. Iltimos, taajjub, maqtov va yomon deb bilish, qasam va kelishuv (bitim) ma'nolarini beruvchi siyg'alari mavjud.

- A. Talabsiz inshoning
- B. Talabli inshoning
- D. Xabarning
- E. To'g'ri javob yo'q

31. Xabarning qanday turlari mavjud?

- A. Talabli va talabsiz
- B. Foida va lozima
- D. Yolg'on va rost
- E. Lozima va talabsiz

32. Xabar ikki holatda yetkaziladi.

- A. Talabli va talabsiz
- B. Foida va lozima
- D. Foida va talabli
- E. Lozima va talabsiz

33. Istilohiy ma'nosi bir narsani boshqa bir narsaga xoslashtirish, ya'ni tegishli qilish.

- A. Faslning
- B. Qasrning
- D. Vaslning
- E. To'g'ri javob yo'q

34. Mutakallim, ya'ni so'zlovchining maqsadiga ko'ra haqiqiy va izofiy deb ataluvchi turlarga bo'linadi.

- A. Qasr
- B. Fasl
- D. Vasl
- E. To'g'ri javob yo'q

35. Xoslikning holatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sifat-mavsuf, mavsuf-sifat.

- A. Vasl
- B. Fasl
- D. Qasr
- E. To'g'ri javob yo'q

36. Tinglovchining holatiga ko'ra qalb, ifrod va ta'yin turlarga ajratiladi.

- A. Vasl
- B. Qasr
- D. Fasl
- E. To'g'ri javob yo'q

37. Vaslning ta'rifini ko'rsating.

- A. Bir jumlanib boshqasiga «va» orqali bog'lash
- B. Ikkinchiga gapni bog'lovchisiz keltirish

D. Bir narsani boshqa bir narsaga xoslashtirish, ya'ni tegishli qilish

E. To'g'ri javob yo'q

38. Vasl usulini qo'llashning nechta o'rni bor.

A. 3

B. 5

D. 7

E. 9

39. Fasl usulini qo'llashning nechta o'rni bor.

A. 3

B. 5

D. 7

E. 9

40. ... – biror ibora tushib qoladi, bu hazf mahzuf (tushib qolgan narsa) borligida anglatgan narsani fahmlab olishga xalal bermaydigan bo'lishi kerak.

A. Hazf iyjoz

B. Qisar (balog'a) iyjoz

D. Itnob

E. Musovot

41. ... – istalgan bir ma'noni turli yo'llar orqali yoritib berish uchun kerak bo'ladigan usul va qoidalar tushuniladi

A. Bayon

B. Ma'oniy

D. Badi'

E. A, B

42. Bayon ilmining tarkibi ...

A. Tashbih, majoz, istiora, kinoya.

B. Xabar, insho, qasr

D. Iqtibos, saj, muqobala

E. A, B.

43. Ma'oniy ilmida o'rganiluvchi hodisalarни aniqlang.

A. Iqtibos, saj, muqobala

B. Tashbih, majoz, istiora, kinoya

D. Xabar, insho, qasr

G. B, V.

44. Badi' ilmida o'rganiluvchi hodisalar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

A. Xabar, insho, qasr

B. Iqtibos, saj, muqobala

D. Tashbih, majoz, istiora, kinoya

E Jinos, itnob, majoz

45. Tashbihning ruknları qaysilar?

A. Mushabbah, mushabbah bihi

B. Vajhu-sh-shabah

D. Adat-t-tashbih

E. Hamma javob to'g'ri.

46. Tashbihning ruknlar ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan turlarini aniqlang.

A. Mursal, mufassal

B. Mujmal, muakkad, balig'

D. Mushabbah, mushabbah bihi

E. A, B

47. Zulfni tunga va tunni zulfga, hilolni ot taqasiga va ot taqasini hilolga qilingan tashbihlar qaysi turdag'i tashbih hisoblanadi?

A. Izmor tashbih

B. Aks tishbih

D. Tasviyat tashbih

E. Mashrut tashbih

48. Mutobiqiyya, tazminiyya va iltizomiyya deb nomlanuvchi uchta guruhga ajratiladi

- A. Aqliy dalolat
- B. Vaz'iy dalolat
- C. Tushunchi dalolat
- D. Tabi'iy dalolat
- E. G'ayrilafziy dalolat

49. So'z (biror tushuncha yoki narsaning bir jihatini bildiradi) o'z ma'nosining bir qismini bildiradi. Masalan, «inson» so'zi uning yoki faqat hayvonlik jihatiga, yoki faqat gapira oluvchilik qobiliyatiga dalolat qiladi.

- A. Mutobiqiyya
- B. Tazminiyya
- C. Iltizomiyya
- D. G'ayrilafziy

50. So'z orqali (biror narsa yoki tushunchaga) ma'no yuklatiladi. Masalan, «sher» so'zining shijoatga dalolat qilishi kabi.

- A. Mutobiqiyya
- B. Tazminiyya
- C. Iltizomiyya
- D. G'ayrilafziy

51. Asl ma'nosidan ko'chib, o'ziga mos keladigan boshqa narsaning ma'nosini bildirish uchun qo'llanadigan lafz deb ataladi. Masalan: «sher» lafzining shijoatli kishiga nisbatan qo'llanishi.

- A. Majoz
- B. Kinoya
- C. Tashbih
- D. Tajnis

52. ... sifat, mavsuf va nisbat turlarga ajratiladi.

- A. Tashbih
- B. Kinoya
- C. Majoz
- D. Tajnis

53. «Doru-s-salom» deganda Bog'dod, «Toyyiba» deganda Madinai munavvara tushunilishi kinoyaning qaysi turiga xos.

- A. Sifat
- B. Mavsuf
- C. Nisbat
- D. Kinoya emas

54. Qanday kinoyada mukanna bihi va mukanna 'anhu orasidagi vosita kam bo'ladi.

- A. Sifat
- B. Mavsuf
- C. Ba'ida
- D. Qariba

55. Qanday kinoyada mukanna bihi va mukanna 'anhu orasidagi vositalar ko'p bo'ladi.

- A. Ba'ida
- B. Mavsuf
- C. Qariba
- D. Sifat

56. Ta'riz, talvih, ramz va imo (yoki ishora) turlarga ajratiladi.

- A. Tajnis
- B. Kinoya
- C. Majoz
- D. Tashbih

57. Arab tili balog'atiga oid manbalarda badiiy san'atlari qanday tasniflanadi?

- A. Lafziy san'atlari
- B. Ma'noviy san'atlari
- C. Lafziy-ma'noviy san'atlari
- D. A, B

58. Qanday san'atlarda so'zlarning tovushdoshlik xususiyati birinchi o'ringa chiqadi.

- A. Lafziy san'atlar
- B. Ma'noviy san'atlar
- C. D. Lafziy-ma'noviy san'atlar
- E. Barcha san'atlarda

59. Qanday san'atlarda so'zlarning ma'no xususiyati birinchi o'ringa chiqadi.

- A. Ma'noviy san'atlar
- B. Lafziy san'atlar
- C. D. Lafziy-ma'noviy san'atlar
- E. Bunday san'at mavjud emas

60. Ajam xalqlari tillari balog'atiga oid manbalarda badiiy san'atlardan qanday tasniflanadi?

- A. Lafziy san'atlar
- B. Ma'noviy san'atlar
- C. D. Lafziy-ma'noviy san'atlar
- E. Tasniflanmaydi

TEST KALITI

1-B	11-D	21-A	31-D	41-A	51-A
2-A	12-A	22-A	32-B	42-A	52-B
3-B	13-D	23-B	33-B	43-D	53-B
4-B	14-A	24-A	34-A	44-B	54-E
5-A	15-B	25-A	35-D	45-E	55-A
6-D	16-D	26-B	36-B	46-E	56-B
7-A	17-A	27-D	37-A	47-B	57-E
8-D	18-B	28-B	38-A	48-B	58-A
9-B	19-B	29-B	39-B	49-B	59-A
10-B	20-D	30-A	40-A	50-D	60-D

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Шарифов З. Араб тили. Балоғат фанидан маъruzalар матни. –Т.: Шоакбар. 2002.
2. Рустамий С. Балоғат илмидаги лингвистик назариялар ва тил ҳодисаларининг ёритилиши. –Т.: ТДШИ, 2017.
3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: Шарқ 1999.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси хузуридаги Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази устави // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 31-сон, 782-модда; Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.01.2018 й., 09/18/23/0576-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти вазифасини бажарувчи Шавкат Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташки ишлар вазирлари кенгаси 43-сессиясининг очилиш маросимидағи нутқи: Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик // Халқ сўзи. – 2016. – 19 октябрь.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2995- сон «Кадимий ёзма манбаларни саклаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Қарори // Халқ сўзи, – 2017. – 25 май.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – 2017. – 23 декабрь.

5. Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат н-ти. 1981.

6. Исломов З.М. Адаб илмининг дурдонаси. –Т.: Тошкент ислом университети ун-ти. 2002.

7. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.: Зарқайнар. 2006.
8. Рустамий С. «Балоғат илми»да лафзий санъатлар. Илмий-таҳлилий ахборот. 2008. №3. Тошкент ислом университети. –Б. 31-34.
9. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат н-ти. 1979.
10. Ҳўжаев М. Чустий лирикасида истиора. Шарқшунослик. №2. 2001. Б 3-5.
11. أبو يعقوب يوسف السکاکی. مفتاح العلوم. دار الكتب العلمية. بيروت. 1987
- جلال الدين القرزوینی. الاصحاح في علوم البلاغة. دار احياء العلوم بيروت. 12. الطبيعة الرابعة. 1998.
- على جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعانى. البدىع. 13. القاهرة. 1999.

Internet saytlari

1. www.gov.uz O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. <http://mlis.ru/literature/8-yestetika-yazvka.html>
4. <http://www.shamela.ws>: على بن نايف الشحود. الخلاصة في علوم البلاغة
5. <http://www.shamela.ws>: عبد الرحمن حسن حبنكة الميداني. البلاغة العربية أنسها وعلومها وفنونها
6. https://studopedia.ru/10_251509_leksikografiya-kak-nauka.html
7. <http://study-english.info/article063.php>
8. <http://dereksiz.org/osimjon-sodiov-tarhiij-leksikografiya.html>

BALOG'AT ILMI ATAMALARINING QISQACHA IZOHLI LUG'ATI

Aks tashbih yoki **tashbih-i ma'kus** (تشبيه العكس) – bir narsa ikkinchi narsaga o'xshatiladi, so'ngra aksincha, ikkinchisi birinchisiga o'xshatiladi.

«Asroru-l-balog»^a («أسرار البلاغة») – Abdulqohir Jurjoniyning asari.

Al-muhassinot al-lafziyya (المحسنات المعنوية) – ma'noviy san'atlar: ma'noga asoslangan.

Al-muhassinot al-ma'naviyya (المحسنات اللغوية) – lafziy san'atlar: tovushdoshlikka asoslangan.

Asmau-n-navasix (أسماء النواسخ) – kāna va unga o'xshashlarning ismlari, 'inna va unga o'xshashlarning ismlari.

Aqliy majoz (المجاز العقلي) – bu ish-harakatni gapda grammistik jihatdan ega bo'lib kelgan, biroq ma'nosiga ko'ra shu fe'lning haqiqiy egasi bo'limgan so'zga emas, balki shu so'zga aloqador bo'lib, haqiqiy egasini ifodalaydigan so'zga aqlan bog'lashdir.

Bayon (بيان) – lug'aviy ma'nosи: «kashf qilish, yaratish, yoritish, izohlash». Istilohda: istalgan bir ma'noni turli yo'llar orqali yoritib berish uchun kerak bo'ladigan usul va qoidalar tushuniladi.

Balig' tashbih (التشبیه البليغ) – o'xshatish vositasi va o'xshash jihat tushib qolgan tashbih.

Ba'ida kinoya (كتابية بعيدة) – mukanna bihini mukanna 'anhuga bog'laydigan vositalar ko'p bo'ladi.

Buyruq (الأمر) – tinglovchidan ish-harakatni amalga oshirish majburan talab etiladi.

Vasl (وصل) – bir jumlanı boshqasiga «va» orqali bog'lash.

Dalolat (دلالة) – bir narsaning boshqa narsani bildirishi.

Ibtidoiy xabar (الخبر الابتدائي) – (boshlang'ich, sodda xabar). U tinglovchi xabarning madluli, ya'ni dalil bo'luvchi (denotat yoki referent)ni bilmagan holatlarda qo'llanadi.

Izmor tashbih (تشبيه الأضمار) – yoki **tashbih-i muzmar** kalomda bir narsa yashirin tarzda tashbih qilinadi, bu kalomning zohir ma'nosida maqsad o'sha tashbihdan emas, boshqa narsadek bo'ladi, ammo haqiqatta uning maqsadi o'sha tashbihdir.

Izofiy qasr – maqsur maqsur alayhga xos qilinganda, boshqa bir muayyan narsaga nisbat qilinadi. Nisbat qilinayotgan narsada o'sha xususiyat bo'lmaydi.

Iyg'ol (أوغل) (chuqur ketmoq, chuqurga olib bormoq) fe'lining masdar. Iyg'olning istilohiy ma'nosи: bayt yoki nasa bo'lagining maqtaida uning oldidagi mubolag'ani orttirish yoki mubolag'ani tugallash uchun boshqa bir vasf keltiriladi. Itmob turi.

Iyjoz (الإيجاز) – ko'p ma'no oz ta'bir bilan ifodalanadi.

Iltizomiyya (اللتزامية) – so'z orqali (biror narsa yoki tushunchaga) ma'no yuklatilishi. Iltizomiyya deb atalishiga sabab ma'noning biror tushuncha yoki narsaning zaminida mavjud bo'lmay, tashqaridan kiritilgani (ga ishora)dir. Dalolat turi.

Imo yoki **ishora** (الإماء أو الإشارة) – mukanna bihi va mukanna 'anhu orasidagi vositalar ko'p ham, yashirin ham bo'lmaydi. Kinoya turi.

Inkor (الثئي) – biror narsadan voz kechish (biror narsani bajarmaslik) majburan talab qilinadi.

Inkoriy xabar (الخبر الإنكاري) – tinglovchi xabarni inkor qilish holatida bo'lganda qo'llanadi.

Insho (إنشاء) – lug'aviy ma'nosи: ijod. Istilohiy ma'nosи: rost yoki yolg'on hukmi berilmaydigan kalom.

Irshod (الإرساند) – eng munosib yo'l bilan ko'rsatma berish. Itnob turi.

Isnod (إسناد) – musnad so'z musnad ilayhi bo'lgan boshqa so'z bilan birikadi, bu bilan ularning biri vositasida boshqasining zimmasidagi hukm ifodalanadi.

Istak (الثمني) – biror istalgan narsani talab qilish ma'nosini anglatadi.

Istiora (استعارة) – lug'aviy ma'nosи: «qarzga olingan». Istilohda: tashbihning ikki tarafı (mushabbah va mushabbah bihi)dan biri zikr qilinadi, boshqa tarafı nazarda tutiladi. Bunda mushabbah bihi (o'xshovchi)ga xos bo'lgan narsani mushabbah (o'xshatiluvchi)ga tegishli qilish orqali mushabbah mushabbah bihining jinsi (turi)ga kirishi da'vo qilinadi). Yoki ikki tarafidan bira tushirilgan tashbih, doim mushabbahga (ma'no jihatdan) bog'lanib turadi.

Itnob (الأطناب) – ma'noni ifodalash uchun ta'birning miqdori ma'noning miqdordan ortiq bo'ladi. Bunda agar ta'bir ifoda uchun zarur bo'lgan miqdordan oshib ketsa, u aybga aylanadi.

Ifrod (إفراط) – «ajratib olish, yakkalash». Ifrod tinglovchi bir necha narsani bir narsaga tegishli deb hisoblaganda sodir bo'ladi.

I'tirod (الاعتراض) – kiritmalar. Itnob turi.

Kinoya (كتابة) – yoki **irdof** (لوج) lug'aviy ma'nos: belgi, ishora. Istilohiy ma'nos: kerak bo'lgan narsa ochiq-oydin ifodalanmaydi, balki boshqa biror narsani aytish orqali bildiriladi, kerakli ma'no aytigan lafzdan aytilmaganga ko'chishi kerak.

Kinoyalı tashbih (تشبيه الكتابة) – o'xshatish vositasi va o'xshovchi zikr qilinmaydi.

Qalb (قلب) – «o'zgartirish, almashtirish» ma'nolariga ega. Qalb holati so'zlovchi ta'kidlagan fikrning aksiga ishongan kimsada ro'y beradi.

Qariba kinoya (كتابة قريبة) – mukanna bihi va mukanna 'anhu orasidagi vosita kam bo'ladi.

Qasdu-l-isti'ob (قصد الاستيعاب) – «borini qamrab olmoq» ma'nosiga ega. Itnob turi.

Qasr (قصر) – «chegegaralash, qisqartirish, kaltalatish, chek (chegara)» va «hibs» kabi lug'aviy ma'nolarga ega. Uning istilohiy ma'nosib bir narsani boshqa bir narsaga xoslashtirish, ya'ni tegishli qilish.

Qisor iyojuz (إيجاز قصر) – qisqartirish evaziga amalga oshirilgan iyojuz, u balog'at iyojizi deb ham ataladi.

Mavsuf kinoya (كتابة عن موضوع) – sifatlanuvchi orqali sifatga ishora qilinadi.

Madlul (مدلول) – dalil bo'luvchi (denotat yoki referent).

Majoz (مجاز) – lug'atda: «yo'lak», «bo'g'oz (suv yo'li)», «shama, kesatiq, qochirim» ma'nolariga ega. Istilohda: asl ma'nosidan ko'chib, o'ziga mos keladigan boshqa narsaning ma'nosini bildirish uchun qo'llanadigan lafzdir. Yoki iste'molda ma'nos o'zgaradigan lafzlar.

Matakallim (منكلم) – so'zlayotgan (birinchi shaxs)

Mashrut tashbih (تشبيه المشروط) – bir narsa boshqa narsaga biror shartga asosan o'xhatiladi.

Ma'oniy (معاني) – arab tilida balog'at ilmining bo'limlaridan biri, bu nom o'zagidan yasalgan مُعْنَى (ma'no, tushuncha, g'oya, voqelik) so'zining ko'plik shaklidir.

«Miftohu-l-ulum» (العلوم مفتاح) – Abu Yoqub Yusuf Sakkociyning asari.

Muakkad tashbih (التشبيه المؤكّد) – hoh lafzan, hoh taqdiran o'xshatish vositasi tark etilgan tashbih.

Mujmal tashbih (التشبيه المجمل) – o'xshash jihat tushib qolgan tashbih.

Mursal tashbih (التشبيه المرسل) – hoh lafzan, hoh taqdiran o'xshatish vositasi ishtirot etgan tashbih.

Musnad (سند) – o'zagidan yasalgan so'zining lug'aviy ma'nos: «tayanch» bo'lib, istilohda fe'l, xabar yoki uning vazifasidagi narsaga nisbatan qo'llanadi. Musnad xabar, fe'l, fe'l nomi, bosh kelishikdagi xabardan xoli bo'lgan mutbado-vasf, axbaru-n-nawāsix (kāna va unga o'xhashlar, 'inna va unga o'xshashlarning xabarları), fe'lning o'mida keluvchi masdar bilan ifodalanadi.

Musnad ilayhi (مسند اليه) – fo'il, mutbado yoki uning vazifasidagi narsaga nisbatan qo'llanadi. Musnad ilayhi xabari bor bo'lgan mutbado, fo'il, uning noibi, 'asmā'u-n-nawāsix, ya'ni kāna va unga o'xhashlar, 'inna va unga o'xshashlarning ismlari.

Musovot (المساواة) – ta'bir ma'no miqdoricha bo'ladi, ya'ni lafz miqdori shu ma'noning asliga teng keladi.

Mutobaqati-l-kalom li-muqtado-l-hol (مطابقة الكلام لمقتضى الحال) – o'sha maxsus narsaning qamrab olinishi.

Mutobiqiyta (مطابقية) – so'zning biror tushuncha yoki narsani to'liq (ligicha, yaxlitligicha, to'la) bildirishi. Mutobiqiyta deb atalishiga sabab lafz va narsa yoki tushunchaning bir-biriga mosligi, tengligi uchundir. Dalolat turi.

Mufassal tashbih (التشبيه المفصل) – o'xshash jihat ishtirot etgan tashbih.

Muxotob (مخاطب) – murojaat qilinayotgan (ikkinci shaxs).

Muqtado hol (مقتضى الحال) – so'zlovching kalomida keltirilgan maxsus narsa.

Nisbat kinoya – (كتابية عن نسبة) – bir ish boshqasiga nisbat qilib yoki sifatlanuvchining sifatiga nisbatan aytildi.

Ramz – (الرمز) – mukanna bihi va mukanna ‘anhu orasidagi vositalar kam bo‘ladi, bunda kinoya yashirin bo‘lishi kerak. Kinoya turi.

Rukn – (ركن) – tarkibiy qism.

Sifat kinoya – (كتابية عن صفة) – kinoya sifatlash orqali bo‘lib, mavsuf (sifatlanuvchi) nazarda tutiladi.

So‘roq – (الاستفهام) – ilgari ma‘lum bo‘lmagan narsani bilish talabidir.

Tavshi’ – (توشیع) – «ip yigirish» ma‘nosiga ega. Tavshi’da ikkilikda kelgan ismning tafsiri kalom oxirida bir-biriga bog‘langan ikki ism bilan keltiriladi. Itnob turi.

Tazyil – (تخييل) – lug‘aviy ma‘nosi: «tugatmoq, to‘ldirmoq, oxiriga qo‘shamoq, xotima so‘z aytmoq». Istilohda: jumladan keyin kelib, uni ta‘kidlash ma‘nosiga ega bo‘lgan boshqa bir mustaqil jumлага aytildi. Itnob turi.

Tazminiyya – (تضمنية) – so‘zning (biror tushuncha yoki narsaning bir jihatini bildiradi) o‘z ma‘nosining bir qismini bildirishi. Tazminiyya deb atalishiga sabab bildirilgan ma‘no shu so‘zning zaminida bor bo‘lgani uchundir. Dalolat turi.

Takrir – (تكرير) – bir narsani ikki yoki undan ortiq marta takrorlash. Itnob turi.

Talabiy insho – (إنشاء الطلب) – talab qilingan narsaning talab vaqtidan qat’iy nazar amalga oshishi nazarda tutiladi.

Talabiy xabar – (الخبر الطلب) – tinglovechi xabardan shubhalanayotgan, uning haqiqatini bilishga vosita izlayotgan bo‘lsa, bu holda unga kalomning hukmini kuchaytirib, ta‘kid bilan yetkazishda qo‘llanadi.

Talabsiz insho – (إنشاء غير الطلب) – talab qilingan narsaning biror vaqtida amalga oshishi nazarda tutilmaydi, ya’ni talabning bajarilishi talabga bog‘lanmaydi.

Talvih – (التلويح) – mukanna bihi va mukanna ‘anhu orasidagi vositalar ko‘p bo‘ladi. Kinoya turi.

Targ‘ib – (الترغيب) – xitob qiluvchining o‘z nasihatini unga moyil bo‘lib qabul qilishga rag‘batlantirish. Itnob turi.

Tardid – (الترديد) – kalomda lafz takrorlanganda, uni birinchi marta taalluqli bo‘lgan narsadan boshqasiga taalluqli bo‘lgan holda takrorlash. Itnob turi.

Tasviyat tashbih – (تشبيه التسوية) – ikki narsa bir narsaga o‘xhatiladi, unda bir narsa o‘zidin va boshqa narsa maqsad qilingandan olinadi va ikkisi bir narsaga o‘xhatiladi.

Tatmin – (تضميم) – ifoda maqsadga xilof bo‘lmagan kalomda nukta uchun ortiqcha (kalomning asosiy bo‘lagi bo‘lmagan va mustaqil jumla ham bo‘lmagan) bir narsa keltiriladi. Itnob turi.

Tafzil tashbih – (تشبيه التفضيل) – bir narsani boshqa narsaga tashbih qilinadi va undan qaytib, mushabbahni mushabbah bihdan afzal deb bilinadi.

Tashbih – (تشبيه) – bir jihatdan mushtarak bo‘lib, boshqa jihatdan farq qiluvchi ikki taraf mushabbah (o‘xhatiluvchi)ni mushabbah bih (o‘xshovchi)ga o‘xshatish. Mushabbah va mushabbah bih haqiqatda umumiylilikka ega bo‘lib, sifatida farq qilishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin.

Ta‘yin – (تعيين) – so‘zi «aniqlash, tayinlash» ma‘nolarini bildiradi. Ta‘yin tinglovchi maqsur yoki maqsur alayh uchun ikki narsadan birini tanlay olmay qolganda sodir bo‘ladi.

Ta’riz – (التعريض) – keltirilgan kalom aytigandan boshqa narsaga dalolat qiladi va bu narsa vaziyat orqali bilib olinadi. Kinoya turi.

Tulu-l-fasl – (طول الفصل) – ajratib olingan bo‘lakning ravon bog‘lanishini ta‘minlash. Itnob turi.

Undov – (الثداء) – so‘zlovchining «chaqirayapman» ma‘nosi o‘rnida keluvchi yuklamalar orqali tinglovchini yaqinlashtirish talabi.

Fasl – (فصل) – ikkinchi gapni bog‘lovchisiz keltirish.

Xabar – (خبر) – ma‘oniy ilmida «xabar» atamasi «ma‘lumot» ma‘nosida qo‘llanadi.

Hazf iyoz – (إجاز حذف) – Tushirib qoldirish evaziga amalga oshirilgan iyoz.

Hol – (حال) – so‘zlovchi o‘z kalomida biror maxsus narsani nazarda tutishi talab qilinadigan (asl ma’noga qo‘sishma tarzda) holat.

MUNDARIJA

KIRISH	3
«Balog'at ilmi» fanining mazmuni, predmeti, maqsadi va vazifalari.	5
1-MAVZU. BALOG'AT ILMI TARIXI	8
1.1. Insonning tabiatan go'zallikka intilishi.....	8
1.2. Balog'at ilmi va estetik tarbiya.....	16
1.3. Balog'at ilmining shakllanishi va rivoji.....	21
2-MAVZU. MA'ONIY IMLI. MA'ONIY ILMINING TARKIBI	29
2.1. «Ma'oniy» tushunchasi.....	29
2.2. Xabar va insho.....	38
2.3. Qasr, fasl va vasl.....	45
2.4. Iyjoz.....	52
2.5. Itnob.....	55
2.6. Musovot.....	62
3-MAVZU. BAYON ILMI	64
3.1. «Bayon» tushunchasi. Bayon ilmining tarkibi.....	64
3.2. Dalolat.....	65
3.3. Tashbih, uning turlari.....	67
3.4. Majoz va uning turlari. Istiora.....	74
3.5. Kinoya va uning turlari.....	81
4-MAVZU. BADI' ILMI	87
4.1. Badi' ilmi va uning tasnifi.....	87
4.2. «Lafziy san'atlar» tushunchasi.....	88
4.3. «Ma'noviy san'atlar» tushunchasi	91
Mustaqil ta'lif materiallari	96
Test	133
Test kaliti	145
Tavsiya etiladigan adabiyotlar	146
Balog'at ilmi atamalarining qisqacha izohli lug'ati	148

O'quv qo'llanma

RUSTAMIY SALIMA ALIYBEG QIZI

BALOGAT ILMI

Muharrir **M.Rustamov**

Musavvir **U.Solihov**

Sahifalovchi **M.Zoyitova**

Nashriyot litsenziyasi AI № 303. 21.06.2017.

«Zilol buloq» nashriyoti MChJ, Toshkent sh., Qamarniso k. 3-uy.

Bosishga ruxsat etildi 22.09.2020. Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozni. Sharqli bosma tobog'i 9.75. Nashr tabog'i 9.5. Buyurtma № 334. Adadi 100 nusxa.

«Saydana-print» MChJ bosmaxonasida bosildi.

Toshkent sh., Qamarniso k., 3-uy. E-mail: saydana-print@mail.ru

Tel.: +99891 162-08-43; +998 99 862-08-43.



ZILOL BULOQ
NASHRIYOTI

61304

ISBN 978-9943-6551-2-6

9 789943 655126